

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ҚОНУНЧИЛИК
ТЎПЛАМИ

41-сон
(1217)
2025 йил
октябрь

Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами беш бўлимдан иборат:

биринчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг қарорлари эълон қилинади;

иккинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари эълон қилинади;

учинчи бўлимда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари эълон қилинади;

тўртинчи бўлимда Ўзбекистон Республикаси Конституциявий судининг қарорлари эълон қилинади;

бешинчи бўлимда вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларининг Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари эълон қилинади.

МУНДАРИЖА

Иккинчи бўлим

610. «Истеъмомчилар ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 6 октябрдаги ПҚ–296-сон қарори
611. «Алоҳида туман (шаҳар) ва маҳаллаларни аҳолининг яшаши ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши учун намунали ҳудудга айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 8 октябрдаги ПҚ–298-сон қарори

Учинчи бўлим

612. «Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирини ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 7 октябрдаги 629-сон қарори

613. «Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 8 октябрдаги 631-сон қарори
614. «Ёшларнинг ўқув марказларида хорижий тилларни ўқиш харажатлари учун субсидия ажратиш ҳамда ўқув марказларини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 8 октябрдаги 632-сон қарори
615. «Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатини ҳамда ушбу рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида» Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 10 октябрдаги 637-сон қарори

Бешинчи бўлим

616. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-sentabrdagi 48-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi 8-mh-son “Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 6-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3515-1*)
617. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining 2025-yil 2-sentabrdagi 23-son “Atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo‘yiladigan asosiy talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3684*)
618. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasining 2025-yil 2-sentabrdagi 22-son “Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo‘yicha asosiy talablarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3685*)
619. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-sentabrdagi 9-son “Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi buyrug‘i (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2667-4*)
620. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2025-yil 4-oktabrdagi 2025/1-son “O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomning 19-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3360-2*)

621. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2025-yil 5-sentabrdagi 445-son "Avtomototransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazishni (qayd etishni) tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2050-5*)
622. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil 19-sentabrdagi 289-son "Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi buyruqqa o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2730-1*)
623. O'zbekiston Respublikasi transport vazirining 2025-yil 22-sentabrdagi 13-son "O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yuk tashish qoidalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3457-1*)
624. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2025 йил 9 октябрдаги 23-мх-сон "Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш, қабул қилиш, ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида"ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3686*)
625. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2025 йил 8 сентябрдаги 49-ҚҚ-сон "Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрларини тасдиқлаш ҳақида"ги буйруғи (*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил 9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3687*)
626. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 23-sentabrdagi 17-2025/B-son "O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi buyrug'i (*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 9-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3688*)
627. O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 23-sentabrdagi 18-2025/B-son "O'zbekiston Respublikasi

Камбагʻallikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish toʻgʻrisida”gi buyrugʻi (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 9-oktabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3689*)

628. Oʻzbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2025-yil 1-oktabrdagi 569-son “Oʻzbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga oʻzgartirishlar kiritish haqida”gi buyrugʻi (*Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 9-oktabrda roʻyxatdan oʻtkazildi, roʻyxat raqami 3690*)

Вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан ўтказиш ҳолати тўғрисидаги маълумот

ИККИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ ҚАРОРИ

610 Истеъмолчилар ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида*

Озиқ-овқат маҳсулотларининг сифати ва хавфсизлиги устидан назоратни янада кучайтириш, шунингдек, истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишнинг самарали механизмларини йўлга қўйиш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш.

1. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ 2026 йил 1 мартдан бошлаб рақамли маркировка тизими жорий қилинган товарларнинг яроқлилиқ муддати ўтган бўлса, уларнинг савдоси ушбу тизим орқали автоматик равишда чекланади. Бунда рақамли маркировкаланган муддати ўтган товарларга назорат-касса техникаларида харид чеки чиқарилмайди.

2. Белгилансинки:

(а) 2025 йил 1 ноябрдан бошлаб санитария-эпидемиологик хулоса расмийлаштириш мақсадида давлат санитария назорати органи тизимидаги аккредитация қилинган лабораторияларда ўтказиладиган барча синовлар баённомалари электрон кўринишда «E-akkreditatsiya» ахборот тизимининг «E-laboratoriya» модули орқали расмийлаштирилади ҳамда ушбу органнинг расмий веб-сайтида хулосаси расмийлаштирилган озиқ-овқат маҳсулотларининг ягона онлайн реестри юритилади;

(б) 2025 йил 15 октябрдан 2027 йил 1 январга қадар тажриба тариқасида нодавлат нотижорат ташкилотлар томонидан истеъмолчиларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш ҳамда «сирли мижоз» ва назорат хариди тадбирларини ўтказиш тартиби жорий этилади. Бунда мазкур тадбирларни ўтказиш учун нодавлат нотижорат ташкилотнинг тегишли ходими Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси (кейинги ўринларда — Рақобат қўмитаси) ҳузуридаги Рақобат сиёсати ва истеъмолчилар ҳуқуқлари тадқиқотлари марказининг ўқув курсларини тамомлаганлиги тўғрисидаги махсус сертификатга эга бўлиши лозим;

(в) нодавлат нотижорат ташкилотлар фаолиятини қўллаб-қувватлаш мақсадида Рақобат қўмитасининг бюджетдан ташқари Рақобатни ривожлантиришга қўмаклашиш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) маблағлари ҳисобидан уларга истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилишни

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 8 октябрда эълон қилинган.

** 1-2-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ташқил қилиш ва соҳадаги муаммоларни ўрганиш учун давлат ижтимоий буюртмалари бериш тарзида маблағлар ажратиб борилади. Бунда:

(i) ушбу маблағлар Жамғармадан Ўзбекистон Республикасининг республика бюджетига ўтказиладиган маблағлар қисми ҳисобидан ажратилади;

(ii) истеъмолчилар мурожаатларини кўриб чиқиш ҳамда «сирли миждоз» ва назорат хариди тадбирларини ўтказиш учун давлат ижтимоий буюртмалари беришда нодавлат нотижорат ташкилотлар фаолиятини баҳолаш мезонлари белгиланади;

(iii) нодавлат нотижорат ташкилотларга давлат ижтимоий буюртмалари бериш тарзида ажратиладиган маблағлардан самарали фойдаланишни ташқил қилиш учун вазначилик назорати ўрнатилади.

3. Истеъмолчиларнинг мурожаатларини кўриб чиқиш самарадорлигини ошириш мақсадида 2025 йил 1 декабрдан бошлаб «истеъмолчи — тадбиркор — нодавлат нотижорат ташкилотлар — давлат органлари» тизими жорий этилади. Бунда:

(а) истеъмолчиларнинг барча мурожаатлари Рақобат қўмитасида ишга тушириладиган «Истеъмолчи мурожаати» ахборот тизими орқали қабул қилинади ва барча босқичларда мониторинг қилиб бориш тизими йўлга қўйилади;

(б) «Истеъмолчи мурожаати» ахборот тизимини Солиқ қўмитасининг ягона ахборот тизимига интеграция қилиш орқали барча тадбиркорлик субъектларига истеъмолчилардан мурожаатлар келиб тушгани ҳақида хабар юбориш тизими йўлга қўйилади;

(в) истеъмолчининг «Истеъмолчи мурожаати» ахборот тизими орқали рўйхатга олинган мурожаати, биринчи навбатда, тадбиркор томонидан Рақобат қўмитаси назорати остида 10 кун ичида кўриб чиқилади, истеъмолчи мурожаати ижобий ҳал этилмаган тақдирда, мурожаатчининг танловига кўра Қўмитага ёки нодавлат нотижорат ташкилотларга ўрганиб чиқиш учун юборилади. Бунда:

(i) истеъмолчи ҳуқуқларининг бузилиши ҳолатлари мавжуд бўлганда, нодавлат нотижорат ташкилотлар тадбиркорга ихтиёрий тартибда ҳуқуқбузарликни бартараф этиш бўйича кўрсатма беради;

(ii) агар тадбиркор 10 кун ичида ҳуқуқбузарликни ихтиёрий тарзда бартараф этмаса, нодавлат нотижорат ташкилотлар ҳолат юзасидан истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш бўйича тегишли ваколатли давлат органларига мазкур тизим орқали ёки судга мурожаат қилади;

(г) Рақобат қўмитаси истеъмолчиларнинг тизимли муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш, номуайян доирадаги истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ишларини амалга оширади.

4. Рақобат қўмитасининг яроқлилик муддати ўтган, шунингдек, ишлаб чиқарилган санаси ва яроқлилик муддати кўрсатилиши шартлиги белгиланган озик-овқат маҳсулотларини уларнинг ишлаб чиқарилган санаси ва яроқлилик муддати кўрсатилмаган ҳолда сотганлик ҳамда сотиш учун қабул қилганлик учун маъмурий ҳуқуқбузарлик бўйича жарималар миқдорини уч барабаргача ошириш тўғрисидаги таклифига розилик берилсин.

Рақобат қўмитаси икки ой муддатда мазкур бандда келтирилган таклиф юзасидан Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги қонун лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ҳузуридаги Нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтларини қўллаб-қувватлаш жамоат фондига истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш йўналишида нодавлат нотижорат ташкилотларга давлат субсидиялари, грантлар ажратиш ва ижтимоий аҳамиятга молик лойиҳаларни молиялаштириш тавсия этилсин.

II. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат.

6. Истеъмолчиларнинг мурожаатларини ўз вақтида қабул қилиш ва кўриб чиқиш мақсадида 1-иловага* мувофиқ давлат органлари ва ташкилотлар уч ой муддатда ўз ахборот тизимларини «Истеъмолчи мурожаати» ахборот тизимига интеграция қилишни таъминласин.

7. Истеъмолчилар ҳуқуқларини самарали ҳимоя қилишни ташкил этиш ва янги босқичга олиб чиқиш бўйича чора-тадбирлар дастури 2-иловага* мувофиқ тасдиқлансин.

8. Рақобат қўмитаси манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда уч ой муддатда қонунчилик ҳужжатларига ушбу қарордан келиб чиқадиган ўзгартириш ва қўшимчалар тўғрисида Вазирлар Маҳкамасига таклифлар киритсин.

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг айрим қарорларига 3-иловага* мувофиқ ўзгартириш ва қўшимчалар киритилсин.

10. Мазкур қарор ижросини самарали ташкил қилишга масъул ва шахсий жавобгар этиб Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси раиси Ҳ.С. Турахужаев белгилансин.

11. Қарор ижросини муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 6 октябрь,
ПҚ–296-сон

* 1 — 3-илвалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ПРЕЗИДЕНТИНИНГ
ҚАРОРИ**611** Алоҳида туман (шаҳар) ва маҳаллаларни аҳолининг яшаши ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши учун намунали ҳудудга айлантириш чора-тадбирлари тўғрисида*

Худудларда аҳоли яшаши ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши учун қулай муҳит яратиш ва инфратузилмани яхшилаш орқали тадбиркорликни ривожлантиришга катта туртки бериш, юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва замонавий хизматлар кўрсатишни йўлга қўйиш, қишлоқ маҳаллаларига шаҳар муҳити ва яшаш шароитларини олиб кириш мақсадида **қарор қиламан:**

I. Алоҳида туман (шаҳар) ва маҳаллаларни намунали ҳудудга айлантириш

1. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликларининг таклифига асосан:

(а) 1-иловага мувофиқ туман (шаҳар)ларга «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақомини бериб, уларни аҳолининг яшаши ва тадбиркорлик фаолияти билан шуғулланиши учун намунали ҳудудга айлантириш;

(б) Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлардаги қишлоқ туманларида 2 тадан маҳаллага «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла» мақомини бериб, уларга шаҳар муҳити ва яшаш шароитларини олиб кириш бўйича янги ёндашувлар амалиётга жорий этилсин.

2. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари «Ислоҳотлар штаблари» билан биргаликда икки ҳафта муддатда 2-иловага мувофиқ шартлар асосида қишлоқ туманларидаги 2 тадан Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳаллаларни танлаб олиб, уларнинг рўйхатини Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси ва халқ депутатлари вилоятлар кенгашларига тасдиқлаш учун киритсин.

3. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари «Ислоҳотлар штаблари» билан биргаликда:

(а) бир ой муддатда ҳар бир Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар) ва Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳаллани комплекс ривожлантириш бўйича 3-иловада белгиланган йўналишлар асосида «Тараққиёт ва етакчилик маскани» дастури (кейинги ўринларда — Дастур)ни тасдиқласин;

(б) 2025 йил 15 декабрга қадар аҳоли ва тадбиркорларнинг таклифлари ва лойиҳалари асосида Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла маркази учун мастер режани ишлаб чиқсин ва тасдиқласин;

(в) 2026 йил 1 февралга қадар Дастурга киритилган объектларнинг лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқсин;

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 9 октябрда эълон қилинган.

(г) 2026 йил 1 мартдан бошлаб тасдиқланган лойиҳаларга мувофиқ қурилиш ишларини бошласин;

(д) 2026 йил 1 декабрга қадар Дастурга киритилган объектларни ишга туширишни таъминласин.

4. Белгилансинки, мастер режалар ва лойиҳа ҳужжатларини ишлаб чиқишни молиялаштириш:

(а) маҳаллий бюджетда иқтисод қилинган маблағлар ҳамда маҳаллий бюджетларнинг қўшимча манбалари;

(б) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари ҳузуридаги Тадбиркорлик инфратузилмасини ривожлантириш жамғармаси маблағлари;

(в) «Инфратузилма ва ижтимоий барқарорлик» жамғармаси маблағлари;

(г) қонунчиликда тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан амалга оширилади.

5. Вазирлар Маҳкамаси бир ой муддатда Дастурга киритилган объектларда қурилиш-таъмирлаш ишларини сифатли ташкил этиш ва жадаллаштириш бўйича тегишли ҳужжат лойиҳасини тасдиқласин.

6. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлиги билан биргаликда 2026 йил 1 февралга қадар Жаҳон банкининг «Ўрта шаҳарларни комплекс ривожлантириш» лойиҳаси маблағлари ҳисобидан хорижий компанияларни жалб қилиб, «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақоми берилган туман (шаҳар)ларни ривожлантириш бўйича «фазовий режа»ларни ишлаб чиқишни бошласин.

II. Саноат ривожланишини янги босқичга олиб чиқиш

7. Белгилансинки, «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» лойиҳаси доирасида ҳар йили:

(а) мавжуд хомашё захираларидан тўлиқ фойдаланган ҳолда юқори қўшилган қийматли маҳсулотлар ишлаб чиқаришни йўлга қўйиш, саноат кооперациясини чуқурлаштириш ва саноат зоналари қувватларини кенгайтириш ҳисобига Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлардаги саноатнинг ўсиш суръатидан камида 2-3 фоиз юқори ўсиш таъминланади;

(б) камида 50 миллион АҚШ доллари эквиваленти миқдорида инвестицияларни жалб қилган ҳолда озик-овқат, мебелчилик, қурилиш материаллари, тикувчилик ва бошқа ихтисослашган йўналишларда камида 10 тадан йирик инвестиция лойиҳалари ишга туширилади;

(в) илгари ўз маҳсулоти билан ташқи бозорларга чиқмаган камида 3 — 5 тадан корхона экспорт фаолиятига жалб қилинади;

(г) хорижий давлатлардан технолог, маркетинг, бренд-менежер каби мутахассисларни жалб қилган ҳолда камида 1 та корхонада миллий бренд маҳсулотлар ишлаб чиқариш йўлга қўйилади;

(д) 10 нафардан тадбиркорлар хорижий давлатларда ўтказиладиган ихтисослашган саноат кўргазмаларига тажриба алмашиш учун юборилади.

8. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар

ҳокимликлари Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги, Савдо-саноат палатаси билан биргаликда икки ой муддатда мазкур қарорнинг 7-бандини инобатга олган ҳолда ҳар бир Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар) бўйича саноатни жадал ривожлантириш «йўл хариталари»ни тасдиқлаш учун Вазирлар Маҳкамасига киритсин. Бунда:

(а) Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла ва унга туташ бўлган маҳаллалардаги бўш ер майдонларида микросаноат, ҳунармандчилик ва хизмат кўрсатиш марказларини ташкил этиш;

(б) саноат зоналаридаги бўш ер майдонларида истиқболли инвестиция лойиҳаларини жойлаштириш ҳамда муҳандислик инфратузилмаси мавжуд ҳудудларда янги саноат зоналарини ташкил этиш;

(в) энергия самарадорлиги юқори технологиялар асосида атроф-муҳитга зарар етказишни камайтиришга қаратилган «яшил» саноат лойиҳаларини амалга ошириш назарда тутилади.

III. Қишлоқ хўжалигида янги ёндашувлар орқали қўшимча қиймат занжирини яратиш

9. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари 2026 йил 1 февралга қадар «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман» мақоми берилган туманларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 3 февралдаги ПФ-18-сон Фармониға мувофиқ туман ҳокимликлари захирасида мавжуд бўш турган ер майдонлари ҳажмидан келиб чиққан ҳолда камида 200 гектардан қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер майдонларини электрон онлайн аукцион савдоларига чиқарсин.

10. Қишлоқ хўжалиги вазирлиги Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, тижорат банклари, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда 2025 йил 1 декабрга қадар ҳар бир Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туманда:

(а) камида 50 гектар ер майдонларида саноатлашган боғ плантациялари ташкил этиш бўйича дастур лойиҳасини;

(б) аҳоли томорқаларида ёмғир ва техник сувлардан фойдаланиш, томчилатиб суғориш ҳамда эски боғларни босқичма-босқич янгилаш бўйича молиявий қўллаб-қувватлаш чораларини амалиётга жорий этиш юзасидан таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

11. «Uzagrostar holding» компанияси ҳар бир Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман ва Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳаллада:

(а) 2026 йил 1 январга қадар аҳоли томорқалари ва ижараға берилган ер майдонларида тупроқ ва сув таҳлилини ўтказсин;

(б) 2026 йил 1 февралга қадар иқлим шароитига мос, юқори ҳосилдорликка эға уруғ ва кўчатлар сотувини йўлга қўйсин;

(в) аҳоли ва деҳқонларнинг аграр соҳадаги билим ва кўникмаларини ошириш мақсадида хорижий ва маҳаллий агрономларни жалб қилган ҳолда амалий семинарлар ташкил этсин.

IV. «Яшил» ва энергия самарадор ҳудудларни ривожлантириш

12. Белгилансинки, «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақоми берилган туман (шаҳар)ларда:

(а) 2026 йил 1 январдан бошлаб барча давлат идоралари ва ижтимоий соҳа муассасалари бинолари фақат энергия самарадорлик тамойиллари асосида қурилади ва модернизация қилинади;

(б) 2027 йил 1 январга қадар давлат идоралари, давлат иштирокидаги корхоналар ва ижтимоий соҳа муассасалари энергия самарадор ускуналар билан тўлиқ жиҳозланади;

(в) 2026 йил 1 мартдан бошлаб биттадан ижтимоий соҳа муассасаси биноларини «Ноль энергия сарфли бинолар» концепцияси асосида модернизация қилиш бўйича пилот лойиҳалар бошланади.

13. Энергия самарадорлиги миллий агентлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда икки ой муддатда «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақоми берилган туман (шаҳар)ларни энергия самарадор ҳудудларга айлантириш бўйича қуйидагиларни назарда тутувчи қарор лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин:

(а) энергия истеъмоли юқори бўлган аҳоли уй-жойларига энергия самарадор қурилмалар ўрнатишни рағбатлантириш;

(б) тунги ёритиш тизимларини энергия тежамкор ёритиш тизимларига ўтказиш ва модернизация қилиш;

(в) энергия аудити хизматини ва энергия самарадор қурилмаларга техник хизмат кўрсатишни кенгайтириш.

V. Молиявий ресурслар

14. Белгилансинки, мазкур қарорда белгиланган вазифаларни бажариш мақсадида 2026 йилда 7 триллион сўмдан ортиқ маблағлар, шу жумладан:

(а) 1-иловага мувофиқ «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақоми берилган туман (шаҳар)ларнинг ҳар бирини ривожлантириш учун Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан 100 миллиард сўмдан жами 2,3 триллион сўм;

(б) ҳар бир Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳаллани ривожлантириш учун Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан 5 миллиард сўмдан жами 1,7 триллион сўм;

(в) Ислом тараққиёт банкининг «Қишлоқ жойларни барқарор ривожлантириш» ҳамда Жаҳон банкининг «Ўрта шаҳарларни комплекс ривожлантириш» лойиҳалари доирасида «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» мақоми берилган туман (шаҳар)ларни ривожлантириш учун 100 миллион АҚШ доллари;

(г) ҳудудларда иқтисодий ўсишга туртки берувчи драйвер лойиҳаларни амалга ошириш учун Ўзбекистон Республикаси республика бюджетидан 2 триллион сўм йўналтирилади.

15. Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси раҳбарига Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликларининг «Ислохотлар штаблари» билан келишилган таклифлари асосида Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар) ва Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла учун кўзда тутилган маблағларнинг тегишли харажат йўналишларини белгилаш ва қайта тақсимлаш ҳамда лойиҳаларга ўзгартириш киритиш ваколати берилсин.

16. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги:

(а) 2025 йил якунига қадар Жаҳон банкидан натижага асосланган молиялаштириш механизми асосида Ўзбекистонда яшаш учун қулай ва барқарор шаҳарлар дастури доирасида 250 миллион АҚШ доллари миқдоридаги имтиёзли кредит маблағларини жалб қилиш бўйича қарз битимини имзолаш чораларини кўрсин. Бунда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузурида Жаҳон банки кўмагида жалб қилинган маблағлар ва грантлар ҳисобидан молиялаштириладиган Ўзбекистонда яшаш учун қулай ва барқарор шаҳарлар дастурини мувофиқлаштириш офиси ташкил этилади;

(б) 2026 йил давомида мазкур йўналишда халқаро молия институтларидан қўшимча 250 миллион АҚШ доллари миқдоридаги маблағларни жалб қилиш бўйича келишувга эришсин;

(в) 2026 йил 1 июлга қадар халқаро молия институтлари иштирокида «Қишлоқ инфратузилмасини ривожлантириш» лойиҳасининг 2-босқичини амалга ошириш мақсадида камида 300 миллион АҚШ доллари миқдоридаги маблағларни жалб қилиш бўйича келишувга эришсин.

17. Белгилансинки, 2025 йил 10 октябрдан бошлаб қўйидаги маблағлар фақат Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳужжатлари асосида ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш тадбирларини молиялаштиришга йўналтирилади:

(а) Ўзбекистон Республикаси республика бюджетининг эркин қолдиқ маблағлари ҳамда ҳар чорак якунлари бўйича аниқланадиган прогноздан ошириб бажарилган қисми;

(б) Ҳисоб палатаси ва Давлат молиявий назорати инспекцияси томонидан мақбуллаштирилган маблағлар ва қўшимча аниқланган даромадлардан ундирилган маблағлар.

Бунда ҳар ой якуни бўйича кейинги ойнинг 5 санасига қадар мазкур бандда келтирилган маблағларнинг шаклланган миқдори тўғрисидаги маълумотлар Ҳисоб палатаси ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги томонидан биргаликда тасдиқланган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига киритиб борилади.

18. Шундай тартиб ўрнатилсинки, унга мувофиқ 2026 молия йилидан бошлаб:

(а) Давлат бюджети даромадлари прогнозини чораклар ва ҳудудлар кесимида тақсимлаш Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳужжатлари билан амалга оширилади;

(б) Давлат бюджети даромадлари прогнозини ҳисоблаш Иқтисодиёт ва молия вазирлигининг ахборот тизими орқали амалга оширилади ҳамда ушбу

ахборот тизими Солиқ қўмитаси, Божхона қўмитаси ва Ҳисоб палатасининг ахборот тизимларига интеграция қилинади.

19. Вазирлар Маҳкамаси икки ой муддатда Давлат бюджети даромадлари прогнозини ҳисоблаш методологиясини тасдиқлаш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори лойиҳасини киритсин.

VI. Қарор ижросини ташкил этиш, таъминлаш ва назорат

20. Белгилансинки, мазкур қарор ижроси:

(а) ҳар ойда икки марта туман (шаҳар) ҳокимликлари томонидан туман (шаҳар) даражасидаги ташкилотлар раҳбарлари иштирокида;

(б) ҳар ойда бир марта Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари томонидан тегишли бошқарма ва ташкилотлар раҳбарлари иштирокида;

(в) ҳар икки ойда бир марта Вазирлар Маҳкамасида вазирлик ва идоралар раҳбарлари иштирокида танқидий муҳокама қилиб борилади.

21. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги икки ой муддатда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 1 апрелдаги ПҚ–132-сон қарорига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича тегишли қарор лойиҳасини Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

22. Мазкур қарорда белгиланган вазифалар ижроси самарали ташкил этилишига ҳамда белгиланган муддатларда амалга оширилишига шахсан масъул этиб Бош вазир ўринбосари Ж.А. Қўчқоров, Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ва Вазирлар Маҳкамасидан ҳудудларга бириктирилган масъул раҳбарлар ҳамда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси ва вилоятлар ҳокимлари белгилансин.

23. Қарор ижросини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазири А.Н. Арипов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**

Ш. МИРЗИЁЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 8 октябрь,
ПҚ–298-сон

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 8 октябрдаги
ПҚ–298-сон қарорига
1-ИЛОВА

**«Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)»
мақоми бериладиган туман (шаҳар)лар
РЎЙХАТИ**

Қорақалпоғистон Республикаси	
1.	Қўнғирот тумани*
2.	Чимбой тумани*
Андижон вилояти	
3.	Асака тумани*
4.	Шаҳрихон тумани
Бухоро вилояти	
5.	Шофиркон тумани
6.	Ғиждувон тумани*
Жиззах вилояти	
7.	Зафаробод тумани
8.	Ғаллаорол тумани*
Қашқадарё вилояти	
9.	Қамаши тумани
10.	Яккабоғ тумани*
Навоий вилояти	
11.	Хатирчи тумани*
12.	Нурота тумани
Наманган вилояти	
13.	Норин тумани**
14.	Косонсой тумани
Самарқанд вилояти	
15.	Булунғур тумани*
16.	Иштихон тумани
17.	Каттақўрғон тумани
18.	Пайариқ тумани
Сурхондарё вилояти	
19.	Қизириқ тумани
20.	Музработ тумани
21.	Денов тумани*
Сирдарё вилояти	
22.	Сардоба тумани
23.	Сирдарё тумани*
Фарғона вилояти	
24.	Қува тумани*

25.	Ёзёвон тумани
26.	Ўзбекистон тумани
27.	Марғилон шаҳри*
Хоразм вилояти	
28.	Янгиариқ тумани
29.	Шовот тумани*
Тошкент вилояти	
30.	Бўка тумани
31.	Чирчиқ шаҳри
32.	Чиноз тумани
33.	Янгийўл шаҳри*

* Ушбу 14 та туман (шаҳар)га Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 1 апрелдаги ПҚ–132-сон қарорига асосан ажратилган 70 млрд сўмга қўшимча 2026 йилда 30 млрд сўмдан маблағ ажратилади.

Бунда мазкур рўйхатдаги қолган барча туман (шаҳар)ларга 100 млрд сўмдан маблағ ажратилади.

** Норин тумани Шўрариқ маҳалласига 10 млрд сўм маблағ ажратилади.

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 8 октябрдаги
ПҚ–298-сон қарорига
2-ИЛОВА

Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла сифатида танлаб олинадиган маҳаллалар учун қўйиладиган шартлар

1. Туташ маҳаллаларни боғловчи марказ вазифасини бажариши, йирик автомобиль йўлларига ёки чегара ҳудудларига яқин жойлашганлиги.
2. Туташ маҳаллаларни ҳисобга олган ҳолда аҳоли сони кўп ва зич бўлиши.
3. Аҳоли яшаши ва тадбиркорлик фаолияти учун зарур инфратузилмани яхшилашга эҳтиёжнинг юқорилиги.
4. Тадбиркорлик лойиҳаларини ўзаро уйғун ва мастер режа асосида тартибли жойлаштиришга шароит мавжудлиги.
5. Ҳудудда фаолият кўрсатаётган савдо, сервис ва кичик ишлаб чиқариш объектлари, бўш турган ер майдонлари ёки давлат мулки объектлари мавжуд бўлиши.
6. Кичик ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш фаолиятини кенгайтириш, ҳунармандчилик ва микросаноат марказларини ташкил этиш имкониятининг мавжуд бўлиши.

Изоҳ: туман марказида жойлашган маҳаллалар Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла сифатида танлаб олинмайди.

Ўзбекистон Республикаси
Президентининг 2025 йил 8 октябрдаги
ПҚ–298-сон қарорига
3-ИЛОВА

«Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар)» ва «Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла» мақоми берилган туман (шаҳар) ва маҳаллаларда «Тараққиёт ва етакчилик маскани» дастурининг асосий йўналишлари

1. Янги Ўзбекистон қиёфасидаги туман (шаҳар) бўйича:
 - (а) саноат, хизмат кўрсатиш ва қишлоқ хўжалиги корхоналарини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш;
 - (б) аҳоли уй-жойлари ҳамда ижтимоий соҳа объектларини яшил тамойиллар асосида қуриш, реконструкция қилиш ва таъмирлаш;
 - (в) ичимлик сув ва иссиқлик таъминотида ресурс тежовчи инфратузилмани жадал ривожлантириш;
 - (г) ички йўллар, пиёдалар йўлаклари ва велойўлаклар ҳамда аҳоли гавжум масканларни обод қилиш ёки ташкил этиш;
 - (д) ишсизлик ва камбағалликдан холи ҳудудга айлантириш.

2. Янги Ўзбекистон қиёфасидаги маҳалла бўйича:
 - (а) маҳалланинг марказини шакллантириш, шу жумладан, болалар ва спорт майдончалари, яшил хиёбон, пиёдалар йўлаги ва автошоҳбекат барпо этиш;
 - (б) микросаноат, ҳунармандчилик ва хизмат кўрсатиш марказлари, кичик бозор, кичик ишлаб чиқариш корхоналарини ташкил этиш;
 - (в) эски боғлар ва узумзорларни янгилаш, аҳоли томорқаларида юқори даромадли экинлар экиш;
 - (г) маҳалладаги мактаб ёки бошқа ижтимоий соҳа объектларидан фойдаланиб, касб-ҳунар ва хорижий тилларни ўргатиш бўйича ўқув курсларини ташкил этиш;
 - (д) ишсизлик ва камбағалликдан холи маҳаллага айлантириш.

УЧИНЧИ БЎЛИМ

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ ҚАРОРИ

612 Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирини ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишни ўтказиш тўғрисида» 2025 йил 19 сентябрдаги ПФ–173-сон Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Қуйидагилар:

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ;

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишни ўтказиш дастури 2-иловага мувофиқ;

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишни ўтказиш учун саволнома шакллари рўйхати 3-иловага** ҳамда мазкур шакллар 3.1 — 3.6-иловаларга** мувофиқ;

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш ҳамда натижаларини эълон қилиш бўйича чора-тадбирлар режаси 4-иловага** мувофиқ;

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш ишларида ахборот-коммуникация технологияларини самарали қўллаш ва ахборот хавфсизлигини таъминлаш бўйича ишчи гуруҳ (кейинги ўринларда — Ишчи гуруҳ) таркиби 5-иловага** мувофиқ;

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирларини ўтказишнинг аҳамияти ва мазмун-моҳияти бўйича тарғибот медиа-режаси 6-иловага** мувофиқ тасдиқлансин.

2. Ишчи гуруҳ:

бир ой муддатда Миллий статистика қўмитасининг «Аҳолини рўйхатга олиш ахборот тизими» (кейинги ўринларда — рўйхатга олиш ахборот тизими) негизида, қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш саволномаларини қўшган ҳолда мазкур тизимни такомиллаштиришни, синовдан ўтказишни ва унинг узлуксиз ишлашини;

2025 йил 15 октябрга қадар рўйхатга олиш ахборот тизими ўрнатиладиган «маҳалла еттилиги» ходимларининг планшет қурилмалари хатловдан ўтказилишини;

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 9 октябрда эълон қилинган.

** 3 — 6-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

2025 йил 1 ноябрга қадар рўйхатга олиш жараёнларини техник жиҳатдан қўллаб-қувватлаш учун «Колл-марказ» ташкил этиш ишларини;

2025 йил 1 декабрга қадар рўйхатга олиш ахборот тизимининг махсус мобил иловасини «маҳалла еттилиги» тизими ва бошқа жалб қилинадиган ходимларнинг планшет қурилмаларига ўрнатишни;

2026 йил январь-февраль ойлари давомида рўйхатга олиш ахборот тизими сервер қуввати ҳамда «OneID» тизимининг узлуксиз ишлашини таъминласин.

Бунда Миллий статистика қўмитаси Ишчи гуруҳнинг ишчи органи ҳисобланади.

3. Рақамли технологиялар вазирлиги Миллий статистика қўмитаси билан ҳамкорликда рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш даврида:

рўйхатга олиш ахборот тизими ва маълумотлар базаси учун зарур сервер қувватларини ажратиш;

«маҳалла еттилиги» ходимларининг планшет қурилмаларини ҳимояланган виртуал алоқа канали (VPN) билан таъминлаш;

респондентларга қулайлик яратиш мақсадида «OneID» тизимида рўйхатга олишнинг осонлаштирилган тартибини жорий этсин ва мазкур тизимнинг узлуксиз ишлашини таъминласин;

рўйхатга олиш жараёнида мурожаатларни қабул қилиш учун ташкил этиладиган «Колл-марказ» учун республика доирасида ишловчи ягона қисқа рақам ажратсин;

статистика органлари ҳамда туман ва шаҳар рўйхатга олиш штабларини юқори тезликдаги алоқа каналлари билан таъминлаш чораларини кўрсин.

4. Белгилансинки, рўйхатга олиш тадбирида рўйхатга олувчи сифатида иштирок этадиган «маҳалла еттилиги» тизимида ишловчи ходимлар тегишли бўлган вазирлик, идора ва фуқаролар ўзини ўзи бошқариш органлари томонидан:

Миллий статистика қўмитасига белгиланган тартибда тақдим этиладиган сўровномага асосан рўйхатга олиш тадбирида иштирок этган ходимлар учун рағбатлантириш тўловлари ажратилади;

2025 йил 1 ноябрга қадар «маҳалла еттилиги» тизимидаги мавжуд бўш иш ўринлари малакали мутахассислар билан тўлдирилади ва уларни ўқитиш жараёнларидаги иштироки таъминланади;

маҳаллаларда аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирларини ўтказишда ҳаққонийлик ва шаффофлик тамойилларига риоя қилиниши учун «маҳалла еттилиги»нинг масъулияти белгилаб қўйилсин.

5. Миллий статистика қўмитаси, Ўзбекистон Маҳаллалари уюشمаси рўйхатга олиш тадбирида тўпланган маълумотларнинг сифатини таъминлаш мақсадида:

2025 йил 1 ноябрдан бошлаб рўйхатга олиш ахборот тизимидан фойдаланиш бўйича «маҳалла еттилиги» ходимлари учун амалий ўқув-семинарларини ташкил этсин;

аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш жараёнларини рўйхатга олиш ахборот тизими орқали рўйхатдан ўтказиш чораларини кўрсин;

рўйхатга олиш ишларининг ўз муддатида ва сифатли амалга оширилиши юзасидан кунлик назорат тизими жорий этилсин.

6. Миллий статистика қўмитасига рўйхатга олиш маълумотларини йиғиш ва таҳлил қилиш жараёнида фойдаланиш учун:

2025 йилнинг 15 октябрь ва 2026 йилнинг 15 январь ҳолатига Адлия вазирлиги оила таркиби тўғрисидаги тўлиқ маълумотлар базасини ҳамда Ички ишлар вазирлиги аҳолининг доимий яшаш ва вақтинча турган жойи тўғрисидаги маълумотлар базасини электрон шаклда мазкур саналардан кейинги кунда;

2025 йил 15 октябрь ва 2026 йил 1 январь ҳолатига Кадастр агентлиги рўйхатга олиш жараёнида фойдаланиш учун маҳаллаларнинг чегаралари ҳамда ҳар бир жисмоний ва юридик шахсларга тегишли ер участкалари контурлари кўрсатилган ҳолда янгиланган электрон хариталарни, шунингдек, ушбу ер участкалари бўйича идентификаторлар, тоифалари ва бошқа зарур маълумотлар билан бирга, маълумотлар базасини мазкур саналардан кейинги кунда тақдим этсин.

7. Ички ишлар вазирлиги рўйхатга олиш даврида рўйхатга олиш жараёнига жалб этиладиган шахсларнинг хавфсизлигини таъминласин. Бу борада Тошкент, Нукус шаҳарлари ва вилоятлар марказларида Миллий гвардия ички ишлар органларига қўмаклашсин.

8. Иқтисодиёт ва молия вазирлиги рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш, уни ўтказиш, бирламчи маълумотларни қайта ишлаш ва якуний маълумотларни чоп этиш билан боғлиқ харажатларни Ўзбекистон Республикасининг 2025 — 2027 йиллар учун Давлат бюджети параметрларида назарда тутилган маблағлар ҳамда қонунчиликда тақиқланмаган бошқа маблағлар доирасида молиялаштиришни таъминласин.

9. Ташқи ишлар вазирлиги Миграция агентлиги билан ҳамкорликда Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи, аммо рўйхатга олиш даврида вақтинча хорижий давлат ҳудудида бўлиб турган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари учун хориждаги консуллик бўлимлари томонидан рўйхатга олиш бўйича тарғибот-ташвиқот ишларини амалга оширсин ва уларнинг Интернет жаҳон ахборот тармоғи (кейинги ўринларда — интернет тармоғи) орқали рўйхатдан ўтишларини таъминласин.

10. Миллий статистика қўмитаси:

Ўзбекистон Республикасининг «Шахсга доир маълумотлар тўғрисида»ги Қонуни талабларига қатъий риоя этилишини;

рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш ишларини бажариш учун ҳудудий статистика органларига фуқаролик-ҳуқуқий шартнома асосида жалб этиладиган мутахассисларнинг бир ойлик иш ҳақи миқдори меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 5 баравари миқдорда белгиланишини таъминласин;

рўйхатга олиш тадбирига тайёргарлик кўриш, уни ўтказиш ва дастлабки маълумотларни эълон қилиш даврига қадар статистика органлари ва бошқа вазирлик, идоралардан мутахассисларни жалб қилган ҳолда штаб ташкил этсин ҳамда мазкур штаб аъзоларини ҳар ой Жаҳон банки иштирокида амал-

га оширилаётган «Ўзбекистонда статистика тизими салоҳиятини мустаҳкамлаш» лойиҳаси (кейинги ўринларда — лойиҳа) доирасида меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 20 бараваригача миқдорда рағбатлантириш чораларини кўрсин.

Мақтабгача ва мактаб таълими вазирлиги билан биргаликда Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрининг иккитадан умумий ўрта таълим мактабида рўйхатга олишнинг аҳоли ўртасида тарғибот-ташвиқот ишларини оммалаштириш мақсадида «Статистика синфлари»ни ташкил қилсин ва уларни тадбир доирасида харид қилинадиган мебель жиҳозлари ва компьютер техникалари билан жиҳозлаш чораларини кўрсин;

рўйхатга олувчи ходимлар гувоҳномаси шаклини ишлаб чиқиб, вақтинча жалб қилинадиган «маҳалла еттилиги» тизими ходимларини рўйхатга олиш гувоҳномаси билан таъминласин;

2026-2027 йилларда рўйхатга олишнинг бирламчи маълумотларини қайта ишлаш мақсадида бюджет маблағлари ҳисобидан рўйхатга олиш маълумотларини қайта ишловчи мутахассисларни фуқаролик-ҳуқуқий шартнома асосида ишга жалб қилиш ҳамда якуний маълумотларни чоп этиш ишларини ташкил қилсин.

Бунда вақтинча жалб қилинадиган рўйхатга олиш маълумотларини қайта ишловчи мутахассисларнинг бир ойлик иш ҳақи миқдори меҳнатга ҳақ тўлашнинг энг кам миқдорининг 7 баравари миқдоридан этиб белгиланишини таъминласин.

11. Миллий статистика қўмитасига рўйхатга олиш жараёнларига тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш, шунингдек, кейинчалик статистика дастурида белгиланган ишларни самарали ташкил этиш мақсадида лойиҳа доирасида амалдаги меъёрлардан ташқари Миллий статистика қўмитаси марказий аппаратида 1 та электромобиль ва ҳудудий статистика органларига 14 та «Дамас» автомобили сотиб олишга рухсат берилсин.

12. Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги ва Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси рўйхатга олишни ўтказишнинг мақсад ва вазифалари оммавий ахборот воситалари ҳамда интернет тармоғида кенг ёритилишини таъминласин.

13. Вазирлар Маҳкамасининг 7-иловага мувофиқ айрим ҳужжатлари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

14. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — иқтисодиёт ва молия вазири Ж.А. Қўчқоров, Миллий статистика қўмитаси раиси Б.С. Ҳамраев ҳамда Қишлоқ хўжалиги вазири И.Ю. Абдурахмонов зиммасига юклансин.

Ўзбекистон Республикасининг

Бош вазири

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 7 октябрь,
629-сон

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 7 октябрдаги 629-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини
рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш
тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш (кейинги ўринларда — рўйхатга олиш) тартибини белгилайди.

Ушбу Низомда Ўзбекистон Республикасининг «Расмий статистика тўғрисида»ги ва «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»ги қонунларида белгиланган атамалар ва таърифлардан фойдаланилади.

2. Рўйхатга олиш Ўзбекистон Республикаси аҳолиси тўғрисидаги маълумотларни олиш, аҳоли сони ва таркибини жорий ҳисоб-китоб қилиш, меҳнат ресурсларининг жойлашуви ва фойдаланилишини ўрганиш, ҳудудларда қишлоқ хўжалигининг таркибий ҳолатини баҳолаш, қишлоқ хўжалиги фаолиятига хизмат қилувчи инфратузилмани ривожлантириш, ресурслардан самарали фойдаланиш, рўйхатга олишнинг якуний маълумотлари таҳлили натижасида қисқа, ўрта ва узоқ муддатли прогнозлар ишлаб чиқиш ва пировардида ижтимоий-иқтисодий ривожланишга оид давлат дастурларини ишлаб чиқиш ҳамда индикатив режалаштириш, шунингдек, илмий тадқиқотлар ўтказиш мақсадида ташкил этилади.

3. Рўйхатга олиш 2026 йилнинг 15 январидан 28 февралига қадар ўтказилади ва рўйхатга олиш бошланишининг аниқ пайти 2026 йил 15 январь (кейинги ўринларда — рўйхатга олиш санаси) соат 00:00 этиб белгиланади. Рўйхатга олишни ўтказиш давомийлиги — 45 кун.

Респондентларнинг шахсга ва қишлоқ хўжалиги фаолиятига доир маълумотларини тўплаш жараёнида рўйхатга олиш санасидан кейинги ўзгаришлар ҳисобга олинмайди.

Жумладан, рўйхатга олиш саволнома шакллари ва бошқа рўйхатга олиш ҳужжатлари 2026 йилнинг 15 январидан кейин туғилган болаларга нисбатан тўлдирилмайди, бироқ рўйхатга олиш санасидан кейин вафот этган шахсларга нисбатан тўлдирилади.

Худди шундай рўйхатга олиш ҳужжатлари 2026 йилнинг 15 январидан кейин хўжаликка янги чорва моллари келтирилган ёки туғилган чорва молларига нисбатан тўлдирилмайди, бироқ рўйхатга олиш санасидан кейин нобуд бўлган, сўйилган ёки сотилган ва бошқа сабабларга кўра хўжалик ҳисобидан чиқиб кетган чорва молларига нисбатан тўлдирилади.

4. Шахсга доир маълумотлар қуйидагича тўпланади:

респондентлар томонидан рўйхатга олиш саволномаларини Интернет

жаҳон ахборот тармоғи (кейинги ўринларда — интернет тармоғи) орқали махсус дастурий таъминот ёрдамида мустақил тўлдириш;

вақтинча рўйхатга олиш ходимлари томонидан респондентлар яшайдиган (бўлиб турган) турар жой ва бошқа биноларга ташриф буюрган ҳолда респондентлар билан сўров ўтказиш ва уларнинг оғзаки жавоблари асосида маълумотларни планшет қурилмалари ёрдамида рўйхатдан ўтказиш саволномаларига киритиш;

ўзи яшайдиган (бўлиб турган) турар ёки нотурар жойда рўйхатдан ўтишни истамаган респондентлар томонидан маҳалла фуқаролари йиғини биноларида ташкил этиладиган стационар рўйхатга олиш участкаларига борган ҳолда рўйхатга олиш саволномаларини тўлдириш;

рўйхатга олиш даврида яшаш (турган) жойида ҳозир бўлмаган ёки вояга етмаган шахслар (респондентлар) тўғрисидаги шахсга доир маълумотлар мазкур уй хўжалигининг вояга етган аъзолари томонидан маълум қилинади. Ўзига нисбатан васийлик ёки ҳомийлик белгиланган шахслар тўғрисидаги шахсга доир маълумотлар уларнинг васийлари ёхуд ҳомийлари томонидан маълум қилинади;

респондент рўйхатга олиш саволнома шаклларидаги саволларга жавоб беришни рад этган тақдирда, рўйхатга олиш саволнома шакллари маҳалла фуқаролари йиғинидаги ёки маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларидаги мавжуд маълумотлар асосида тўлдирилади;

гапириш ва эшитишида нуқсони бўлган фуқароларнинг шахсга доир маълумотлари тегишли ҳудуд бўйича ногиронлик жамиятларининг ходимлари ёки ушбу шахслар билан муомала қилиш имконияти мавжуд бўлган шахслар кўмагида йиғилади.

Аҳолининг айрим тоифалари бўйича шахсга доир маълумотларни тўплаш, рўйхатга олиш саволнома шакллари ва бошқа рўйхатга олиш ҳужжатларини тўлдириш Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»ги Қонуни 24-моддасига мувофиқ амалга оширилади.

Муассаса ёки ташкилотлар ҳудуди ёки уларга тегишли бўлган жойлардаги қишлоқ хўжалиги фаолиятига доир маълумотларни йиғиш уларнинг мамуриятлари томонидан интернет тармоғи орқали махсус дастурий таъминот ёрдамида юборилади.

Интернет тармоғи ва планшет қурилмалари ёрдамида рўйхатга олишда саволлар сони ва мазмунини сақлаган ҳолда таҳририй ўзгартириш ва қайта гуруҳларга ажратилиши мумкин.

5. Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»ги Қонунига мувофиқ, Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, доимий ёки вақтинча яшовчи ёхуд вақтинча Ўзбекистон Республикасида бўлиб турган чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар, шунингдек, Ўзбекистон Республикасида доимий яшовчи, аммо аҳолини рўйхатга олиш даврида вақтинча хорижий давлат ҳудудида бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари респондент сифатида рўйхатга олинади.

6. Аҳоли сони ва унинг таркибини ҳисоблашда:

бир йилдан ортиқ муддатда мамлакат ҳудудида бўлмаган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари;

Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлигида аккредитация қилинган чет давлатлар доимий ваколатхоналарининг, халқаро, ҳукуматлараро ташкилотлар ва чет давлатлар ҳукумат ташкилотлари ваколатхоналарининг ходимлари бўлган чет эл фуқаролари ҳамда уларнинг оила аъзолари;

Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномаларига мувофиқ дипломатик имтиёزلарга ва иммунитетга эга бўлган бошқа шахслар ҳисобга олинмайди.

7. Рўйхатга олишда Ўзбекистон Республикасининг дипломатик ваколатхоналари ва консуллик муассасалари, шунингдек, Ўзбекистон Республикасининг халқаро ташкилотлар ҳузуридаги ваколатхоналари ходимлари бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ҳамда уларнинг ўзи билан бирга бўлган оила аъзолари, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги томонидан халқаро ҳукуматлараро ташкилотлардаги квоталанган лавозимларга юборилган фуқаролар ва бир йилдан кўп муддатда республика ҳудудида яшаб келаётган хорижий давлатлар фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахслар ҳисобга олинади.

8. Респондентлар ўзининг (доимий ёки вақтинча) яшаш жойи бўйича рўйхатга олинади. Бунда кунлик тунги дам олишининг кўпроқ қисмини ўтказадиган уй (ҳовли), квартира, яшаш учун фойдаланилаётган бошқа турар жой ёки нотурар жой бино яшаш жойи ҳисобланади.

Бу жой респондент рўйхатдан ўтган (рўйхатга қўйилган) манзил билан мос келиши ёки мос келмаслиги ҳам мумкин.

9. Рўйхатга олиш саволнома шакллари Вазирлар Маҳкамаси қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш дастурига (кейинги ўринларда — рўйхатга олиш дастури) киритилган саволлардан иборат бўлади.

2-боб. Рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказишни амалга оширувчи давлат органлари

10. Рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш қўйидаги органлар томонидан амалга оширилади:

статистика органлари — Ўзбекистон Республикаси Миллий статистика қўмитаси (кейинги ўринларда — Миллий статистика қўмитаси), Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар статистика бошқармалари, туман (шаҳар) статистика бўлимлари (кейинги ўринларда — ҳудудий статистика органлари). Ҳудудий статистика органларида рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш рўйхатга олиш бўлимлари томонидан амалга оширилади;

Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»ги Қонуни 17-моддасига мувофиқ тегишли вазирлик ва идоралар;

рўйхатга олишни ташкил этиш ва ўтказишда вазирликлар ва идоралар, маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларининг ҳаракатларини мувофиқлаштириш Ўзбекистон Республикасида 2026 йилда аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирини ўтказишни ташкил этиш бўйича республика комиссияси (кейинги ўринларда — Республика комиссияси) ҳамда

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри ҳокимликлари ҳузуридаги Ўзбекистон Республикасида 2026 йилда аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирини ўтказишни ташкил этиш бўйича ҳудудий комиссиялар (кейинги ўринларда — ҳудудий комиссия) томонидан амалга оширилади.

11. Миллий статистика қўмитаси рўйхатга олиш соҳасидаги махсус ваколатли давлат органи сифатида қуйидагиларни амалга оширади:

рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш ишларини режалаштириш ва мувофиқлаштириш, уларнинг амалга оширилиши юзасидан назоратни олиб бориш;

рўйхатга олувчи ходимлар гувоҳномаси шаклини ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш;

рўйхатга олишни ташкил этиш ва ўтказиш бўйича услубий ҳамда йўриқнома материалларини белгиланган тартибда тайёрлаш ва тасдиқлаш;

рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш учун молиявий ҳамда моддий-техник таъминотни амалга ошириш;

рўйхатга олиш ҳужжатларини чоп этиш, моддий-техник таъминот воситаларини тайёрлаш (харид қилиш) ва уларнинг республика ҳудудларига ўз вақтида етказилишини ташкил этиш;

рўйхатга олиш ходимларини танлаб олиш ва ўқитиш тартибини белгилаш, ҳудудий статистика органлари ходимларини ўқитишни ташкил этиш;

Ўзбекистон Республикаси Миллий ахборот агентлиги, Ўзбекистон Республикаси Миллий телерадиокомпанияси ва Рақамли технологиялар вазирлиги билан ҳамкорликда 2026 йилги рўйхатга олиш тадбири тўғрисида аҳолини хабардор қилиш ишларини (жумладан, СМС-хабарнома орқали хабардор қилиш, реклама аудио ва видеоматериаллари, нашрлар ва бошқаларни тайёрлаш орқали) мувофиқлаштиради;

ҳудудий комиссиялар билан биргаликда рўйхатга олиш жараёнларининг сифатли ўтказилишини ташкил этиш;

респондентларнинг шахсга доир маълумотларини қайта ишлаш, рўйхатга олишнинг якуний маълумотларини шакллантириш дастурини ишлаб чиқиш, ушбу маълумотларни тарқатиш ва сақлаш тартибини белгилаш.

12. Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги, Мудофаа вазирлиги, Фавқулодда вазиятлар вазирлиги, Миллий гвардия, Ички ишлар вазирлиги, Давлат хавфсизлик хизмати, Ташқи ишлар вазирлиги, Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Дин ишлари бўйича қўмита ва бошқа тегишли вазирлик ҳамда идоралар Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»ги Қонуни 24-моддасида белгиланган аҳолининг айрим тоифаларини рўйхатга олиш бўйича ишларни ташкил этади.

Шунингдек, мазкур аҳолининг айрим тоифалари мавжуд муассаса ва ташкилотлар ўз ҳудудида ва унга тегишли бўлган жойларда қишлоқ хўжалиги фаолиятига доир кўрсаткичларни йиғиш ишларини ташкил этади.

13. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлар ҳокимликлари:

маъмурий-худудий бирликлар чегараларини ҳисобга олган ҳолда, доимий яшовчи аҳоли сони кўрсатилган аҳоли пунктларининг тўлиқ рўйхатини тузиш;

маъмурий-худудий бирликларда кўчалар номи, уй ва хонадон рақамлари кўрсатилган кўрсаткичларнинг мавжудлигини таъминлаш;

хар бир ҳудудда яшовчи аҳоли сонидан келиб чиқиб, республика ҳудудини рўйхатга олиш участкалари (ҳисоб участкалари)га ажратишни келишиш;

рўйхатга олишга вақтинча жалб этилган ходимлар таркибини тасдиқлаш;

рўйхатга олишга жалб этилган шахсларнинг ўқиши учун яроқли бўлган мебеллар ва алоқа воситалари билан жиҳозланган вақтинча бинолар ёки хоналар ажратиш;

рўйхатга олишга вақтинча жалб этилган ходимлар фаолиятини таъминлаш учун зарур транспорт воситаларини тақдим этиш;

рўйхатга олишнинг хавфсиз ўтказилиши бўйича ишларни мувофиқлаштиришни таъминлайди.

14. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ва Миллий гвардияси:

рўйхатга олишга жалб этилган шахсларнинг хавфсизлигини;

жиноятчилик кўп учрайдиган ҳудудлар ва тарбияси оғир оилалар (жиноятчилик ёки ҳуқуқбузарлик содир этган аъзолари бўлган оилалар, спиртли ичимликлар ва гиёҳванд моддалар истеъмоли юқори бўлган оилалар, молиявий жиҳатдан етарли даражада таъминланмаган ва ижтимоий хавф остида бўлган оилалар, оилавий низолар, зўравонлик ва ўзаро ҳурматсизлик мавжуд бўлган оилалар ва бошқалар, доимий яшаш жойисиз ёки яшаш шароити оғир бўлган оилалар) рўйхатлари шакллантирилишини;

рўйхатга олувчиларни ички ишлар органлари ходимлари ҳамроҳлигида ижтимоий хавфли оилалар яшайдиган манзиллар бўйича кузатиб борилишини ташкил этишни;

рўйхатга олиш даврида ҳудудларда тинчлик ва жамоат тартибини таъминлайди.

15. Рўйхатга олишни ўтказиш ва унинг натижаларини таҳлил ҳамда эълон қилиш билан боғлиқ харажатлар Ўзбекистон Республикасининг 2025 — 2027 йиллар Давлат бюджети параметрларида назарда тутилган, халқаро молия институтлари ва қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа маблағлар ҳисобидан амалга оширилади.

3-боб. Рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ишларини ташкил этиш

16. Рўйхатга олишнинг ташкилий режаси (кейинги ўринларда — ташкилий режа) худудий комиссиялар томонидан Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри, туманлар (шаҳарлар) бўйича алоҳида тузилади, шундан сўнг Миллий статистика қўмитаси томонидан Республика ташкилий режасини шакллантиради.

Маҳалла чегараси доирасида маҳалланинг жами аҳолиси битта рўйхатга олиш участкаси деб белгиланади. Рўйхатга олувчиларга тўғри келадиган юклама шаҳар жойларда ўртача 900 киши, қишлоқ жойлар ва бориш қийин бўлган ҳудудларда ўртача 700 киши этиб белгиланади.

Айрим ҳолларда рўйхатга олувчига тўғри келадиган ўртача юклама маҳалладаги аҳоли зичлигидан келиб чиқиб, белгиланган нормалардан кўп бўлиши, жами аҳолиси сони нормалардан кам бўлган маҳаллаларда эса кам бўлиши мумкин.

Маҳалла аҳолиси сонидан келиб чиқиб, рўйхатга олувчилар сони аниқланади ҳамда маҳалла раислари томонидан улар ўртасида рўйхатга олинадиган маҳалла аҳолиси тақсимланади.

Ташкилий режани тузишда кутилмаган ҳолатлар (касаллик, бахтсиз ҳодиса, юклатилган вазифаларни бажармаслик ва бошқалар) инобатга олинган ҳолда рўйхатга олиш ходимларининг умумий сонининг 5 фоизидан ошмаган миқдорда кадрлар захираси шакллантирилади.

Кутилмаган ҳолатлар юзага келганда, рўйхатга олиш жараёнларига захирадан ходимлар жалб этилади ва рағбатлантирилади.

Интернет тармоғи орқали рўйхатдан ўтган респондентлар рўйхати Миллий статистика қўмитаси ахборот тизимида автоматик равишда шакллантирилади. Шу асосда рўйхатга олувчилар юкламаси амалдаги тасдиқланган ташкилий режа доирасида ахборот тизими орқали автоматик тарзда қайта тақсимланади. Бунда ҳудудий комиссиялар томонидан қўшимча тасдиқ ёки алоҳида қарор қабул қилиш талаб этилмайди.

Рўйхатга олувчи сифатида иштирок этмаган «маҳалла еттилиги» ходимлари автоматик ҳисоб-китоб натижасига мувофиқ захирага ўтказилади.

17. Туман ва шаҳарлар бўйича тайёрланган ташкилий режалар туман ва шаҳар комиссиялари томонидан келишилади ва ҳудудий статистика бошқармаларига тақдим этилади.

Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳри бўйича тайёрланган ташкилий режалар ҳудудий комиссиялар томонидан келишилади ва Миллий статистика қўмитасига тақдим этилади.

Ҳудудлар бўйича тузилган, тасдиқланган ва умумлаштирилган ҳолда келишиш учун киритиладиган ташкилий режалар Республика комиссия раиси ўринбосари томонидан тасдиқланади.

18. Жойларда рўйхатга олиш ишларини ташкил этиш ва ўтказилишини мувофиқлаштириш, ҳудудлар даражасида ўзаро ҳамкорликни таъминлаш ҳудудий комиссиялар томонидан ҳудудий статистика органлари билан ҳамкорликда амалга оширилади.

19. Ички ишлар вазирлиги, Миллий гвардия ҳудудий органлари 2025 йилнинг 15 октябрга қадар ҳудудий статистика органларига рўйхатга олувчи ходимлар хавфсизлиги таъминланиши лозим бўлган манзиллар тўғрисида маълумот тақдим этади.

Олинган маълумотлар рўйхатга олиш участкалари бўйича гуруҳланади ҳамда рўйхатга олиш участкалари раҳбарларига рўйхатга олувчиларни огоҳлантириш учун етказилади.

4-боб. Рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш учун жалб қилинадиган ходимлар тоифалари

20. Рўйхатга олиш ишларига қуйидаги тоифадаги ходимлар жалб қилинади:

республика даражасида — Миллий статистика қўмитаси, вазирлик ва идоралар ходимлари, шунингдек, Республика комиссияси таркибига киритилган шахслар;

худудий даражада — худудий статистика органлари ходимлари ва худудий комиссиялар аъзолари.

21. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлар ҳокимликлари ташкилий режалар асосида рўйхатга олувчи вақтинча ходимларни танлаб олишни таъминлайди ҳамда рўйхатга олишга жалб қилинадиган ходимлар рўйхатини шакллантиради.

Ходимлар рўйхати 2025 йилнинг 1 ноябрига қадар худудий комиссиялар томонидан тасдиқланади.

22. Аҳолининг айрим тоифалари бўйича шахсга ва мазкур тоифалар мавжуд муассаса ва ташкилотлар худудида ҳамда унга тегишли бўлган жойларда қишлоқ хўжалиги соҳасига доир маълумотларни йиғишга вақтинча жалб этиладиган ходимлар рўйхати тегишли ташкилот ва идоралар раҳбарлари томонидан шакллантирилади ва статистика органларига рўйхати тақдим этилади.

23. Рўйхатга олиш участкаларининг фаолиятини ташкил этиш учун «маҳалла еттилиги» ходимлари жалб этилади.

Рўйхатга олиш участкаларида вақтинча лавозимлар қуйидагича тақсимланади:

рўйхатга олиш участкаси бошлиғи бир вақтнинг ўзида стационар рўйхатга олувчи — маҳалла раиси;

рўйхатга олиш участкаси бошлиғи ўринбосари — профилактика инспектори;

рўйхатга олувчи ходимлар (захира ходимларни қўшган ҳолда) — ҳоким ёрдамчиси, ижтимоий ходим, ёшлар етакчиси, хотин-қизлар фаоли, солиқ инспектори ва бошқа жалб қилинадиган ходимлар.

Рўйхатга олиш участкалари бошлиқлари ва уларнинг ўринбосарлари фаолиятига туман (шаҳар) статистика бўлимлари бошлиқлари раҳбарлик қилади.

24. Рўйхатга олувчи вақтинча ходимлар махсус ўқув жараёнидан ўтади ва унда қуйидагилар ўргатилади:

рўйхатга олишнинг мақсад ва вазифалари, унга тайёргарлик кўриш ва ўтказишни тартибга солувчи асосий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, рўйхатга олувчиларнинг мажбуриятлари ва ахлоқий қоидалари;

меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги бўйича йўриқнома;

планшетларга ўрнатилган рўйхатга олишнинг дастурий таъминоти билан танишиш ва амалиёт машғулотлари;

муаммоли масалалар муҳокамаси, хатолар таҳлили ва юзага келатган қийинчиликларни тушунтириш.

25. Рўйхатга олиш тадбирида рўйхатга олувчи бўлиб иштирок этган «махалла еттилиги» ходимлари, уларга бириктирилган рўйхатга олиш участкаси ҳудудида респондентларни рўйхатга олишнинг тўлиқ қамрови таъминлангандан сўнг, меҳнатга ҳақ тўлаш энг кам миқдорининг бир ярим баравари миқдорида (солиқлар ва бошқа мажбурий тўловларни инобатга олган ҳолда) бир марталик рағбатлантирилади.

Бунда захира ходимлар ҳам рўйхатга олувчи сифатида жалб этилса, улар ҳам бир марталик рағбатлантирилади.

5-боб. Рўйхатга олиш ишларини ташкил этиш

26. Рўйхатга олишда респондентлар сўрови қуйидаги муддатларда ташкил этилади:

2026 йилнинг 15 — 31 январь кунлари — интернет тармоғи орқали рўйхатга олиш (17 кун). Бунда респондентлар ташкил этилган census.stat.uz портали орқали ўзлари ихтиёрий равишда рўйхатдан ўтишлари мумкин.

Шунингдек, ташкил этилган мобил гуруҳлар ва рўйхатга олувчи ходимлар ўзларига бириктирилган ҳудудда жойлашган йирик корхона ҳамда ташкилотларга ташриф буюрган ҳолда, уларда ишловчи ходимларни электрон рўйхатдан ўтишларига амалий ёрдам кўрсатади;

2026 йилнинг 1 — 3 февраль кунлари — интернет тармоғи орқали рўйхатдан ўтган респондентлар ва уларнинг уй манзиллари рўйхати шакллантирилади (3 кун). Олинган рўйхатлар ҳудудий статистика органлари ва рўйхатга олиш участкалари бошлиқлари (уларнинг ўринбосарлари)га етказилади;

2026 йилнинг 4 — 28 февраль кунлари — рўйхатга олувчилар респондентларни уларнинг яшаш (вақтинча бўлиш) манзилида рўйхатга олади (25 кун).

Интернет тармоғи орқали рўйхатдан ўтишни хоҳламаган (ёки имконияти бўлмаган), шунингдек, рўйхатга олувчиларнинг уйига келишидан бош тортиган респондентлар рўйхатга олишдан ўтиш учун маҳалла фуқаролари йиғини биноларида жойлашган стационар участкаларга боришлари мумкин.

Фермер хўжаликлари, юридик шахс ташкил этган деҳқон хўжаликлари ва қишлоқ хўжалиги фаолиятини амалга оширувчи ташкилотлар, ҳокимлик захирасидаги ер майдонлари (асосий фаолият тури қишлоқ хўжалиги бўлмаган қишлоқ хўжалиги ерларига эга ташкилотларни қўшган ҳолда) учун 2026 йилнинг 15 январидан — 28 февралига қадар рўйхатга олишнинг тўлиқ даврида интернет тармоғи орқали рўйхатдан ўтадилар.

Рўйхатга олишнинг тўлиқ даври тугагандан сўнг 3 кун давомида ҳар бир рўйхатга олиш участкасидаги уй-жой манзилларининг 10 фоизигача танланма равишда назорат кузатуви асосида ўрганилади.

27. Вазирликлар, идоралар ва бошқа республика ижро этувчи ҳокимият органлари, хўжалик бирлашмалари ва йирик корхоналар раҳбарлари ўз ходимлари ҳамда уларнинг оила аъзолари учун интернет тармоғи орқали рўйхатдан ўтиш бўйича барча зарур шарт-шароитларни яратишлари ҳамда ходимлар ва уларнинг оила аъзоларини тўлиқ рўйхатдан ўтишлари юзасидан назорат ўрнатишлари шарт.

28. Рўйхатга олувчилар томонидан сўров ўтказиш ва хонадонларни айланиб чиқиш соат 9:00 дан 21:00 гача амалга оширилади.

Қишлоқ жойларида рўйхатга олиш участкаларининг бошлиқлари сўровни бошлаш ёки тугатиш вақтини мустақил белгилаш ҳуқуқига эга. Сўров жараёни дам олиш ва овқатланиш учун белгиланган график асосида танаффуслар билан ўтказилади. График рўйхатга олиш участкаси бошлиғи ёки унинг ўринбосари томонидан тузилади ва зарурат туғилганда ўзгартирилади.

29. Рўйхатга олиш давомида рўйхатга олувчи ходимлар қуйидагиларга амал қилиши шарт:

сўров ўтказишдан олдин ўзини таништириши, ташриф мақсадини тушунтириши, шунингдек, рўйхатга олишда иштирок этишнинг муҳимлиги, респондентларнинг шахсга ва хўжаликка доир маълумотларининг махфийлиги таъминланиши ва сўров тахминан қанча вақт давом этиши тўғрисида маълумот бериши;

шахсга ва қишлоқ хўжалиги фаолиятига доир маълумотларни йиғиш жараёнларида рўйхатга олиш дастурида белгиланган саволлар рўйхатига риоя этиши, уларнинг мазмуни бузилишига йўл қўймаслиги;

рўйхатга олиш саволнома шаклларида келтирилган кетма-кетлик бўйича саволлар бериши, рўйхатга олиш саволнома шаклларида мавжуд бўлмаган саволларни бермаслиги;

рўйхатга олиш саволнома шаклларини тўлдириш бўйича йўриқномада келтирилган тушунтиришлардан ташқари респондентга қулайлик яратиш мақсадида қўшимча равишда тушунтиришлар бериши;

шахсга доир маълумотларни аниқ ёзиб бориши ва уларни бузиб кўрсатмаслиги, респондент талаби бўйича у ҳақида тўлдирилган рўйхатга олиш варақлари билан таништириши;

сўров ўтказишда хушмуомала бўлиши, бошқа шахсларнинг ўз мажбуриятларини бажаришига тўсқинлик қилмаслиги ёки уларнинг ҳаёти, соғлиғи ва мол-мулкига хавф солмаслиги, шунингдек, ўзлари ишлайдиган идора обрўсига путур етказадиган ҳаракатлардан сақланиши;

шахсга доир маълумотларнинг махфийлигини таъминлаши ва уларнинг мазмунини ошкор қилмаслиги;

рўйхатга олиш участкаси бошлиғи ва унинг ўринбосари кўрсатмаларини ўз вақтида ва аниқ бажариши.

Белгиланган вазифаларни бажариш учун рўйхатга олувчи бошқа рўйхатга олувчилар билан ҳамкорлик қилади.

30. Рўйхатга олиш саволнома шаклларини тўлдириш уй хўжалиги таркибини аниқлашдан бошланади.

Уй хўжалиқлари шахсий ва жамоавийга бўлинади.

Шахсий уй хўжалиқлари таркибига турар жой бинолари — уйлар (ҳовлилар), квартиралар, ётоқхоналар, дала ҳовлилар ва бошқа яшаш учун фойдаланиладиган биноларда яшовчи шахслар киради.

Жамоавий уй хўжалиқлари таркибига ижтимоий ва тиббиёт муассасаларида, казармаларда, қамоқхоналарда ва диний ташкилотларда (мадрасаларда) доимий яшовчи шахслар гуруҳи киради.

Аҳолининг айрим тоифалари яшайдиган муассасалар (ташкилотлар) жамоавий уй хўжаликлари ҳисобланади.

Қуйидаги жойларда рўйхатга олиш ишлари уларнинг маъмуриятлари томонидан амалга оширилади:

болалар интернатлари, тарбия муассасалари;

ижтимоий муассасалар;

диний муассасалар;

шифохоналар ва бошқа соғлиқни сақлаш ташкилотлари;

аёлларни реабилитация қилиш ва мослаштириш марказлари;

қамоқда сақлаш жойлари, тергов изолятори, жазони ижро этиш муассасалари ва махсус муассасалар;

ҳарбий қисмлар ва курсантлар тайёрловчи таълим муассасалари жойлашган ҳудудлар.

Рўйхатга олувчилар ўзига бириктирилган ҳудудда жойлашган меҳмонхона туридаги муассасаларда рўйхатга олиш ишларини ушбу муассасанинг маъмурияти билан биргаликда амалга оширади.

31. Рўйхатдан ўтказиш даврида уй хўжалиги бошлигининг ўзи бўлмаганда, хўжаликка (томорқа хўжалиги, юридик шахс ташкил этмаган деҳқон хўжалигига) доир маълумотлар ушбу хўжаликнинг вояга етган аъзоси томонидан маълум қилинади.

Респондент рўйхатга олиш саволнома шаклларидаги саволларга жавоб беришни рад этган ёки рўйхатга олишни ўтказиш даврида яшаш жойида (бинода), квартирада ҳеч ким бўлмаган тақдирда, рўйхатга олиш саволнома шакллари маҳалла фуқаролар йиғинларидаги ёки маҳаллий ижро этувчи ҳокимият органларидаги мавжуд маълумотлар асосида тўлдирилади.

Агар рўйхатга олувчилар ўз участкасида уйсизларга дуч келса, уларни ҳам рўйхатга олади.

32. Сўров давлат тилида ўтказилади. Давлат тилини билмайдиган респондентлар она тилида ёки эркин равишда танланган мулоқот тилида сўровдан ўтказилиши мумкин. Бунда рўйхатга олувчи ходимлар ушбу ҳудудда яшовчи ёки шу ҳудуднинг аҳолиси билан эркин мулоқот қила оладиган шахслар орасидан танланади.

Респондент билан мулоқотни таъминлаш мақсадида, агар респондент гаплашадиган тилни билмаса, рўйхатга олувчи (рўйхатга олиш участкаси бошлиғи ёки унинг ўринбосари билан келишилган ҳолда) респондент гаплашадиган чет тилини биладиган шахсларни (талабалар ёки бошқа чет тилини биладиган шахслар) жалб этиши мумкин.

33. Рўйхатга олувчилар мустақил равишда иш режасини тузади, зарур ҳолларда рўйхатга олиш участкаси ходимлари билан маслаҳатлашади, ўзига бириктирилган ҳудуддаги барча биноларни ҳисобга олган ҳолда сўров ўтказиш учун қулай бўлган йўналишни кунлик белгилайди. Бу йўналиш шундай тартибда тузилиши керакки, бунда хонадонларни айланиб чиқиш ва у ерда яшовчи (вақтинча бўлиб турган) респондентлардан сўров ўтказиш имконини бериши керак.

Рўйхатга олувчилар иш режасини тузишда қуйидагиларни ҳисобга олиши зарур:

кам вақт сарф этиб ва қисқа масофани босиб, максимал миқдорда биноларни айланиб, рўйхатга олиш ишларини ўтказиш;

жиноятчилик кўп учрайдиган ҳудудлар ва тарбияси оғир оилалар бўлган хонадонларга Миллий гвардия ёки ички ишлар органлари ходимлари билан биргаликда ташриф буюрган ҳолда зарур хавфсизлик чораларини кўриш.

34. Агар рўйхатга олувчи режадан сезиларли даражада ортда қолаётган бўлса, рўйхатга олиш участкаси бошлиғи (унинг ўринбосари) ушбу ҳолатнинг сабабини аниқлаштиради ва зарур ҳолларда захира таркибидан қўшимча рўйхатга олувчилар жалб этилиши юзасидан қарор қабул қилади.

35. Рўйхатга олувчи рўйхатга олиш участкаси бошлиғи (унинг ўринбосари) кўрсатмаларини ўз вақтида ва аниқ бажариши шарт.

Рўйхатга олувчилар иш жараёнида юзага келадиган муаммолар ва уларнинг сабаблари бўйича рўйхатга олиш участкаси бошлиғи (унинг ўринбосари)га хабар беради ҳамда имкон қадар мустақил равишда ушбу муаммоларни бартараф қилиш чораларини кўради.

Шунингдек, рўйхатга олувчилар зарурат туғилганда оилавий аҳволи, соғлиғи ва бошқалар билан боғлиқ кутилмаган ҳолатлар ҳақида рўйхатга олиш участкаси бошлиғи (унинг ўринбосари)га ўз вақтида хабар бериши керак.

36. Агар респондент яшаб турган хонадонда (жойида) рўйхатдан ўтишни истамаса, рўйхатга олувчи унга маҳалла фуқаролар йиғини биноларида жойлашган рўйхатга олиш участкаларида (стационар) рўйхатдан ўтишни таклиф этади ва маҳалла манзилени беради.

37. Рўйхатга олиш даврида рўйхатга олиш участкалари бошлиқлари (уларнинг ўринбосарлари) ҳар куни рўйхатга олувчиларнинг ишини назорат қилади, шунингдек, сўров ўтказилган респондентлар сонини ва рўйхатга олувчилар томонидан иш жадвалига риоя қилинишини текшириб боради.

6-боб. Рўйхатга олишнинг шахсга доир маълумотларини ҳимоя қилиш тартиби

38. Шахсга доир маълумотлар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳимоя қилинади.

39. Рўйхатга олувчи ходимлар таркибига кирувчи шахслар шахсга доир маълумотларнинг махфийлигини таъминлаш зарурлиги тўғрисида огоҳлантирилади.

40. Рўйхатга олиш саволномалари тўлдирилгандан сўнг, улар билан танишиш ва респондент талабига биноан маълумотларни аниқлаш жараёнидан кейин шахсга доир маълумотларга фақатгина ваколатли статистика органлари ходимлари кириш ҳуқуқига эга бўладилар.

41. Миллий статистика қўмитаси шахсга доир маълумотларни қайта ишлашда қуйидагиларни таъминлайди:

шахсга доир маълумотларни ҳимоя қилиш учун масъул бўлган бўлинмаларни ёки мансабдор шахсларни белгилаш;

умумий фойдаланиладиган алоқа тармоғи орқали шахсий маълумотлар узатилаётганда уларни ҳимоя қилиш бўйича ишларни ташкил қилиш;

шахсга доир маълумотларни қайта ишлашда уларни ҳимоя қилиш;

шахсга доир маълумотлар қайта ишланаётган биноларда махсус кириш тартибини жорий этиш;

шахсга доир маълумотларга кириш ҳуқуқини уларни қайта ишлашда айрим шахслар доираси бўйича чеклаш;

шахсга доир маълумотларни қайта ишлашга мўлжалланган дастурий-техник воситаларни ёнғин ва хавфсизлик сигнализацияси билан жиҳозланган хоналарга жойлаштириш;

Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ рўйхатга олиш ахборот тизимларини ҳимоя қилиш воситаларини қўллаш;

маълумотларни ҳимоя қилиш чоралари кўрилмасдан дастурий-техник воситалардан фойдаланилишига йўл қўймаслик;

шахсга доир маълумотларни қайта ишлаш жараёнларида уларни ҳимоя қилиш бўйича бошқа чораларни кўриш.

7-боб. Респондентларнинг шахсга доир маълумотларини қайта ишлаш, рўйхатга олишнинг дастлабки маълумотларини шакллантириш

42. Ўзбекистон Республикасининг «Аҳолини рўйхатга олиш тўғрисида»-ги Қонуни 10-моддасига мувофиқ, рўйхатга олишнинг шахсга доир маълумотлари махфий ҳисобланади ва ошкор этилмаслиги ҳамда тарқатилмаслиги лозим.

Миллий статистика қўмитаси респондентларнинг шахсга доир маълумотларини «Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишда шахсга доир маълумотларни қайта ишлаш тартиби тўғрисида»ги Низом ва «Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олишнинг якуний маълумотларини шакллантириш Дастури»га мувофиқ қайта ишлайди.

Маълумотларни қайта ишлаш жараёнида шахсга доир маълумотлар шахсини аниқлаш имкони бўлмаган ҳолатга келтирилади (эгасизлантирилади).

43. Рўйхатга олишнинг дастлабки маълумотлари респондентларнинг интернет тармоғи ва планшет қурилмалари ёрдамида тўпланган шахсга доир маълумотларини қайта ишлашда олинган жамланган маълумотлари асосида шакллантирилади.

Ўзбекистон Республикаси, Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, Тошкент шаҳри, туманлар ва шаҳарлар кесимида рўйхатга олишнинг дастлабки маълумотлари 2026 йилнинг 1 июлгача тайёрланади.

44. Шахсга доир маълумотларни қайта ишлаш жараёнларида ҳамда рўйхатга олиш натижаларини таҳлил қилиш мақсадида Адлия вазирлиги, Ички ишлар вазирлиги, Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, Қишлоқ хўжалиги вазирлиги, Солиқ қўмитаси, Ўзбекистон маҳаллалари уюшмаси, Ўзбекистон фермерлар кенгаши, Кадастр агентлиги ва бошқа тегишли вазирлик ҳамда идораларнинг маъмурий маълумотлар манбаларидаги мавжуд ахборотлардан фойдаланилиши мумкин.

8-боб. Рўйхатга олишнинг якуний маълумотларини эълон қилиш ва сақлаш

45. Ўзбекистон Республикаси ва ҳудудлар бўйича рўйхатга олишнинг якуний маълумотлари 2027 йилнинг 1 июлига қадар эълон қилинади.

Якуний маълумотлар Миллий статистика қўмитаси ва ҳудудий статистика бошқармалари томонидан расмий веб-сайтларда жойлаштириш ва босма нашрларда эълон қилиш орқали маълум қилинади.

Нашр қилинган маълумотлардан ташқари қўшимча маълумотлар фойдаланувчиларнинг сўровларига биноан Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига риоя қилган ҳолда шакллантирилади.

46. Электрон маълумотлар базалари ва бошқа доимий сақлаш муддатига эга ҳужжатлар, шунингдек, рўйхатга олишнинг йиғмаҳужжатлари Ўзбекистон Республикасининг «Архив иши тўғрисида»ги Қонуни ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган тартиб ва муддатларга мувофиқ, «Ўзархив» агентлиги тизимига кирувчи тегишли вилоят, шаҳар ва туман давлат архивларига (шахсий таркиб ҳужжатлари архивларидан ташқари) сақлаш учун топширилади.

9-боб. Якуний маълумотларни тақдим этиш

47. Ўзбекистон Республикаси аҳолисининг демографик, қишлоқ хўжалиги ва ижтимоий-иқтисодий ҳолатининг асосий кўрсаткичларини тавсифловчи рўйхатга олишнинг якуний маълумотлари расмий статистика маълумотлари ҳисобланади ва расмий статистика фойдаланувчиларига белгиланган тартибда тақдим этилади.

48. Якуний маълумотлар тушунарлилик ва ошкоралик, аниқлик ва ишончлилик, ҳолислик ва объективлик, шунингдек, статистик махфийлик тамойиллари асосида фойдаланувчиларга тақдим этилади.

49. Якуний маълумотларни тақдим этиш жараёнида статистика органлари ўз фаолиятини Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги, Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан тасдиқланган расмий статистиканинг асосий тамойиллари ҳамда статистика дастурига мувофиқ амалга оширади.

50. Рўйхатга олишнинг якуний маълумотлари Миллий статистика қўмитасининг расмий веб-сайтида, статистик тўпламлар, бюллетенлар ва бошқа босма нашрлар кўринишида, оммавий ахборот воситаларида эса пресс-релизлар, хабарлар, шарҳлар ва бошқа ахборот материаллари шаклида эълон қилинади.

51. Очиқ манбаларда жойлаштирилмаган якуний маълумотларни фойдаланувчилар сўровлари асосида шакллантириш ва тақдим этиш шартнома асосида, мазкур ишларни бажариш ташаббуси билан чиққан жисмоний ва юридик шахсларнинг маблағлари ҳисобидан амалга оширилади.

52. Якуний маълумотларни тўловли шартнома асосида тақдим этиш бўйича ахборот хизмати кўрсатишнинг асоси бўлиб фойдаланувчилардан ёзма ёки электрон шаклда олинган ариза ҳисобланади. Аризада сўралган якуний

маълумотлар рўйхати, маълумотни олиш воситалари ва фойдаланиш мақсади кўрсатилиши керак.

53. Якуний маълумотларнинг ҳажми ва шакллантириш мураккаблигига қараб уларни тақдим этиш муддати узайтирилиши мумкин, ушбу ҳолатда ариза берувчи хабардор қилинади.

54. Агар сўралган маълумотлар муайян респондентнинг шахсий маълумотларининг махфийлигини таъминлашга хавф туғдирса, яъни махфийликка таъсир қилса, бу маълумотларни тақдим этиш рад этилади.

55. Рўйхатга олишнинг якуний маълумотлари Миллий статистика қўмитаси билан тузилган келишувлар ҳамда расмий статистика маълумотлари ал-машинуви асосида халқаро ташкилотларга ва хорижий давлатлар статистика органларига тақдим этилади.

10-боб. Якунловчи қоида

56. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 7 октябрдаги 629-сон қарорига
2-ИЛОВА

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш ДАСТУРИ

Ўзбекистон Республикасида аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш жараёнларида респондентларга тегишли шахсга доир маълумотларни тўплашда фойдаланиладиган саволлар рўйхати аҳолини рўйхатга олиш дастури ҳисобланади.

Рўйхатга олиш дастури қуйидаги саволларни ўз ичига олади:

1. Асосий демографик кўрсаткичларга тегишли саволлар:
фамилияси, исми, отасининг исми;
туғилган санаси, тўлиқ яшаган ёши;
жинси;
уй хўжалигида биринчи кўрсатилган шахс (оила бошлиғи) билан қариндошлик муносабати;
никоҳ ҳолати (15 ёш ва ундан катта шахслар учун);
туғилган жойи.
2. Аҳолининг механик ҳаракати ва миграциясига тегишли саволлар:
яшаб турган туман/шаҳарда яшаш муддати;
яшаб турган туман/шаҳарга қаердан кўчиб келганлиги;
яшаб турган туман/шаҳарга қачон кўчиб келганлиги;
узлуксиз бир йил давомида бошқа мамлакат ҳудудида яшаганлиги;

бошқа мамлакат ҳудудидан қачон кўчиб келганлиги;

бошқа мамлакат ҳудудига қачон кўчиб кетганлиги;

бошқа мамлакатга нима сабабдан кетганлиги.

3. Аҳолининг миллий хусусиятлари ва фуқаролигига тегишли саволлар:
фуқаролиги;

миллати (вояга етмаган болалар учун эса ота-оналари ёки вояга етган яқин қариндошлари жавоблари асосида белгиланади).

4. Аҳолининг таълим даражасига тегишли саволлар:

таълим даражаси;

ўқишни ёки ёзишни билиши;

илмий даражасининг мавжудлиги;

7 ёшгача бўлган болаларнинг мактабгача таълим ташкилотига бориши;

ҳозирги вақтда таълим олиши.

5. Уй хўжалиги аъзоларининг иқтисодий ҳолатига тегишли саволлар:

яшаш учун даромад манбаи.

6. Аҳолининг бандлигига тегишли саволлар:

асосий меҳнат фаолияти;

иш жойи жойлашган манзил;

аҳолини рўйхатга олиш бошланган кунга қадар охириги бир ҳафта ичида фаолият туридан қатъи назар, иш ҳақи тўланадиган ёки даромад келтирадиган ҳар қандай иш билан машғул бўлганлиги;

аҳолини рўйхатга олиш тадбири ўтказилаётган йилнинг январь ойида иш излаганлиги, таклиф этилган ишга икки ҳафта мобайнида жойлашиш имконияти, ишга жойламаслик сабаби.

7. Болалар сонига тегишли саволлар:

дунёга келтирган фарзандлари сони.

8. Турар жой хусусиятларига тегишли саволлар:

турар жойнинг тўлиқ манзили;

турар жойнинг мулкчилик шакли;

турар жойнинг тури;

турар жойнинг умумий майдони, шу турар жойдаги яшаш хоналари сони, яшаш хоналарининг майдони;

турар жойнинг қурилган вақти;

турар жой ташқи деворларининг асосий материаллари;

турар жойдаги мавжуд қулайликлар, санитария-гигиена шароитлари;

турар жойда яшовчи уй хўжаликлари ва оилалар сони, уларнинг таркиби (респондентнинг аҳолини рўйхатга олиш вақтида қаерда эканлиги, ушбу турар жойда доимий, вақтинча яшаши ёки вақтинча яшамаслиги, ушбу турар жойда яшамаслик сабаби ва муддатлари кўрсатилган ҳолда).

9. Ўзбекистон Республикасига вақтинча келган чет эл фуқаролари тўғрисидаги шахсга оид маълумотларни тўплаш бўйича саволлар рўйхати:

жинси;

туғилган санаси;

фуқаролиги (чет давлат фуқаролари учун);

доимий яшайдиган давлати;

Ўзбекистонга келиш санаси;

Ўзбекистонга келиш сабаби.

10. Аҳолининг айрим тоифаларига нисбатан бериладиган саволлар:

муассаса номи;

муассаса тури;

ушбу муассасада рўйхатдан ўтадиган жами респондентлар сони;

уйсизлар ва уларнинг сони;

ушбу муассасадаги респондентлар рўйхати.

11. Қишлоқ хўжалиги соҳасида рўйхатдан ўтказиш саволлари:

хўжаликнинг ҳуқуқий мақоми;

хўжаликда қишлоқ хўжалиги фаолияти билан бандларнинг бир йилда ишлаган ойлари;

хўжаликда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари етиштиришнинг асосий мақсади;

хўжаликдаги ер участкасига бўлган эгалик ҳуқуқи;

хўжалик тасарруфидаги умумий ер майдони ва улардан фойдаланиш турлари;

қишлоқ хўжалиги ерларини суғоришда фойдаланадиган сув манбалари;

қишлоқ хўжалиги ерларини суғориш усуллари;

хўжаликдаги амалда суғорилган ер майдонлари;

хўжаликда экилган бир йиллик экин майдонлари;

хўжаликдаги кўп йиллик экинлар майдонлари ва турлари;

хўжаликда экилган кўчатлар майдони;

қишлоқ хўжалигида фойдаланилган ўғит турлари;

хўжаликдаги мавжуд қишлоқ хўжалиги ҳайвонлари, паррандаларининг бош сони ва уларни сақлаш усуллари;

хўжаликнинг балиқ боқиш (аквакультура) билан шуғулланиши ва сув ҳавзаларининг тури.

Изоҳ.

Интернет жаҳон ахборот тармоғи ва планшет қурилмалари ёрдамида рўйхатга олишда саволлар сони ва мазмунини сақлаган ҳолда таҳририй ўзгартириш ва қайта гуруҳларга ажратилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасида 2026 йилда аҳоли ва қишлоқ хўжалигини рўйхатга олиш тадбирини ўтказишни ташкил этиш бўйича Республика комиссиясига рўйхатга олиш дастурига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ваколати берилади.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 7 октябрдаги 629-сон қарорига
7-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг ўз кучини
йўқотган деб ҳисобланаётган айрим ҳужжатлари
РЎЙХАТИ**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «2023 йилда Ўзбекистон Республикасида аҳолини рўйхатга олишга тайёргарлик кўриш ва уни ўтказиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2020 йил 11 ноябрдаги 710-сон қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги статистик маълумотлар базасини кенгайтириш ва такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2021 йил 26 февралдаги 104-сон қарори.

3. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Зўрлик ишлатишдан жабр кўрган хотин-қизларни реабилитация қилишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2021 йил 19 майдаги ПҚ–5116-сон қарори)» 2021 йил 6 октябрдаги 624-сон қарорига илованинг 5-банди.

4. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида» 2021 йил 20 апрелдаги ЎРҚ–682-сон Қонуни)» 2022 йил 4 апрелдаги 153-сон қарорига илованинг 940 ва 1007-бандлари.

5. Вазирлар Маҳкамасининг «Оила ва хотин-қизлар билан ишлаш, маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» 2022 йил 9 августдаги 438-сон қарорига 1-илованинг 61 ва 74-бандлари.

6. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» 2025 йил 1 мартдаги 135-сон қарорига 1-илованинг 82-банди.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ**613** Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшлар билан очиқ мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга оширишга доир чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 26 мартдаги ПФ–61-сон Фармони ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 26 мартдаги ПФ–61-сон Фармонига мувофиқ:

а) ёшларда табиатга муҳаббат ҳиссини уйғотиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш учун Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузурида юридик шахс мақомига эга бўлмаган «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси ташкил этилиши белгилангани;

б) «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма):

Давлат бюджетидан Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлигининг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ҳар йили ажратиладиган маблағлар доирасида;

халқаро молия институтлари, хорижий ҳукумат молия ташкилотлари, хорижий банклар ва бошқа халқаро молия ташкилотларининг грантлари;

жисмоний ва юридик шахсларнинг, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси норезидентларининг ҳомийлик хайриялари;

қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан шакллантирилиши назарда тутилгани маълумот учун қабул қилинсин.

2. Қуйидагиларни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси тўғрисидаги низом иловага мувофиқ тасдиқлансин:

Жамғарма маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш тартиби;

Жамғарма фаолиятини бошқариш ва унинг маблағларини тақсимлаш тартиби;

Жамғарма маблағларининг ҳисоби ва ҳисоботини юритиш тартиби.

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 9 октябрда эълон қилинган.

3. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги директори А.З. Саъдуллаев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 8 октябрь,
631-сон

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 8 октябрдаги 631-сон қарорига
ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги
ҳузуридаги «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш
жамғармаси тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги (кейинги ўринларда — Агентлик) ҳузуридаги «Яшил ташаббуслар»ни қўллаб-қувватлаш жамғармаси (кейинги ўринларда — Жамғарма) маблағларини шакллантириш ва улардан фойдаланиш, Жамғарма фаолиятини бошқариш, унинг маблағларини тақсимлаш, ҳисоби ва ҳисоботини юритиш тартибини белгилайди.

2. Жамғарма Агентликнинг юридик шахс мақомига эга бўлмаган бюджетдан ташқари жамғармаси ҳисобланади.

3. Жамғарма маблағлари Агентлик марказий аппарати учун Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ҳузуридаги Ҳазначилик хизмати қўмитасида алоҳида очиладиган шахсий ғазна ҳисобварақларида жамланади ҳамда ушбу Низомда белгиланган мақсадлар учун сарфланади.

2-боб. Жамғарма маблағларини шакллантириш тартиби

4. Жамғарма маблағлари қуйидаги манбалар ҳисобидан ҳар йили 10 млрд сўмгача миқдорда шакллантирилади:

Давлат бюджетидан Агентликнинг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ҳар йили ажратиладиган маблағлар доирасида; халқаро молия институтлари, хорижий ҳукумат молия ташкилотлари, хорижий банклар ва бошқа халқаро молия ташкилотларининг грантлари; жисмоний ва юридик шахсларнинг, шу жумладан, Ўзбекистон Республикаси норезидентларининг ҳомийлик хайриялари; қонунчилик ҳужжатлари билан тақиқланмаган бошқа манбалар.

5. Агентликнинг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармаси ҳисобидан ажратиладиган маблағлар ҳар йили 1 апрелдан кечиктирмай туширилиши лозим.

6. Жамғарманинг вақтинча бўш турган маблағлари Агентлик томонидан Ўзбекистон Республикасидаги тижорат банкларининг депозит ҳисобварақларига жойлаштирилиши мумкин ҳамда улардан олинган фоиз даромадлари ушбу Низомнинг 9-бандида назарда тутилган мақсадларга сарфлаш учун тақсимланади.

7. Жамғарманинг жорий йилда фойдаланилмаган маблағлари кейинги йилга ўтади ҳамда ундан ушбу Низомда белгиланган тартибда фойдаланилади.

8. Агентлик Жамғармага маблағлар келиб тушишининг тўлиқлигини назорат қилади.

3-боб. Жамғарма маблағларидан фойдаланиш тартиби

9. Жамғарма маблағлари қуйидаги мақсадларга йўналтирилади:

ёшларда табиатга муҳаббат ҳиссини уйғотиш, уларнинг атроф-муҳитни муҳофаза қилишга қаратилган лойиҳаларини амалга оширишга кўмаклашиш; ёшларнинг экологик тоза технологияларни жорий этиш, чиқиндиларни қайта ишлаш, яшил энергия манбаларидан фойдаланиш каби экологик лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш;

ёшларда экологик маданият даражасини юксалтириш, уларни табиат ва унинг ресурсларига эҳтиёткорона муносабатда бўлиш руҳида тарбиялашга қаратилган лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш;

мамлакатимизда экологик барқарорликни таъминлашда ёшлар иштирокчини кучайтиришга қаратилган лойиҳаларни амалга ошириш;

ёшларнинг дарахт кўчатларини экиш ва парваришлаш каби экологик лойиҳаларини қўллаб-қувватлаш;

ёшлар томонидан атроф-муҳитни асраш, иқлим ўзгариши, табиий ресурслардан унумли фойдаланиш мавзуларида видеомаҳсулотлар ва анимацион мультфильмлар яратиш;

давлат ва хусусий сектор ҳамкорлигида ёшлар ўртасида энергия тежамкорлигини оширишга қаратилган танловларни ўтказишга кўмаклашиш;

ёшларнинг атроф-муҳитни ҳимоя қилиш дастурларини, жумладан, уларнинг ўрмонларни тиклаш, экологик туризмни ривожлантириш, иқлим ўзгаришига мослашиш каби тадбирларини қўллаб-қувватлаш;

ёшлар ўртасида энергия сарфини камайитиришга қаратилган эко-чорлов (челленж)лар ташкил этиш ва ушбу йўналишда веб-иловалар яратиш.

10. Жамғарма маблағларидан унинг тасдиқланган даромадлар ва харажатлар сметаси асосида фойдаланилади.

Жамғарманинг даромадлар ва харажатлари сметаси бюджет ташкилотлари учун бюджетдан ташқари маблағлар бўйича қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда тузилади, Агентлик томонидан тасдиқланади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигида рўйхатдан ўтказилади.

11. Жамғарманинг даромадлар ва харажатлар сметасига йил давомида Агентлик томонидан белгиланган тартибда ўзгартиришлар киритилиши мумкин.

4-боб. Жамғарма фаолиятини бошқариш ва унинг маблағларини тақсимлаш тартиби

12. Ушбу Низомнинг 9-банди иккинчи — олтинчи хатбошиларида назарда тутилган лойиҳалар Агентлик, Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги ҳамда Инновацион ривожланиш агентлигининг қўшма қарори билан тасдиқланадиган тартиб асосида сараланади.

13. Ушбу Низомнинг 9-банди еттинчи — ўнинчи хатбошиларида назарда тутилган тадбирлар Агентлик ҳайъати қарорлари асосида амалга оширилади.

Агентлик ҳайъати қарорлари ижроси Агентлик директори буйруғи асосида таъминланади.

14. Агентлик ҳайъати мажлисида кўриб чиқиладиган масалаларнинг хусусиятига кўра давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг раҳбарлари ҳамда мутахассислари ҳам таклиф этилиши мумкин.

15. Агентлик ҳайъати мажлисида:

ҳисобот йили якуни бўйича Жамғарма маблағларининг даромадлари ва харажатлари тўғрисидаги ҳисоботлар кўриб чиқилади ва тасдиқланади;

Жамғарма маблағларидан мақсадли ва самарали фойдаланилиши назорат қилинади.

16. Агентликнинг молия-иқтисод бўлими Жамғарманинг ишчи органи ҳисобланади.

17. Ишчи орган қуйидаги функцияларни амалга оширади:

Жамғарманинг даромадлари ва харажатларининг йиллик молиявий режасини ишлаб чиқади;

даромадлар ва харажатлар сметаларини тайёрлайди, шунингдек, уларга қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ўзгартиришлар киритади;

Жамғарма тушумларини кўпайтириш ва унинг маблағларидан самарали фойдаланиш бўйича таклифлар тайёрлайди;

Жамғарманинг тушумлар манбалари бўйича даромадлари ҳамда асосий харажатлар йўналишларига асосан ҳисобини юритади;

ҳар чорак якуни бўйича Жамғарма маблағларидан фойдаланилиши тўғрисида ҳисобот тайёрлайди ҳамда Агентлик ҳайъатига кўриб чиқиш ва тасдиқлаш учун тақдим этади.

5-боб. Жамғарма маблағларининг ҳисоби ва ҳисоботини юритиш тартиби

18. Жамғарма маблағларининг ҳисоби ва ҳисоботини юритиш ҳамда жорий хизмат кўрсатиш ишлари Агентликнинг молия-иқтисод бўлими томонидан амалга оширилади.

19. Жамғарма маблағларидан фойдаланиш бўйича ҳисоб ва ҳисоботлар Агентликнинг бюджетдан ташқари бошқа маблағларидан алоҳида юритилади.

20. Жамғарманинг даромадлар ва харажатлар сметасининг ижроси тўғрисидаги йиллик ҳисобот ҳар йили 15 мартга қадар Агентликнинг ҳайъат мажлисида тасдиқланади.

21. Агентлик Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлигига Жамғарма маблағларининг ишлатилиши тўғрисида ҳар чоракда белгиланган тартибда тегишли ҳисоботларни тақдим этиб боради.

22. Жамғарма маблағларидан оқилона ва мақсадли фойдаланилиши қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда назорат қилинади.

23. Жамғарма маблағларидан тўғри ва мақсадли фойдаланиш юзасидан жавобгарлик Агентликка юкланади.

6-боб. Яқунловчи қоидалар

24. Ушбу Низомни қўллашда юзага келадиган низолар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда ҳал этилади.

25. Ушбу Низом талабларининг бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ

614 Ёшларнинг ўқув марказларида хорижий тилларни ўқиш харажатлари учун субсидия ажратиш ҳамда ўқув марказларини рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида*

Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Президентининг ёшлар билан очиқ мулоқотида белгиланган вазифаларни амалга оширишга доир чора-тадбирлар тўғрисида» 2025 йил 26 мартдаги ПФ–61-сон Фармони ва «Ёшларни хорижий тилларга ўқитиш тизими самардорлигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида» 2024 йил 27 июндаги ПҚ–239-сон қарори ижросини таъминлаш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Қуйидагилар:

Ёшларнинг ўқув марказларида хорижий тилларни ўқиш харажатлари бир қисми учун субсидия ажратиш тартиби тўғрисидаги низом 1-иловага мувофиқ;

Ўқув марказлари рейтингини шакллантириш ва рейтинг асосида ўқув марказларини рағбатлантириш тартиби тўғрисидаги низом 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилансинки, Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги томонидан 2025 — 2030 йилларда 100 минг нафаргача ёшларнинг ўқув марказларида хорижий тилларни ўқиш харажатлари учун субсидия ажратилади.

3. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги, «Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 та ташаббуси лойиҳа офиси» нодавлат нотижорат ташкилоти томонидан ўқув марказлари ҳақида маълумотлар юритиладиган «yonda.uz» электрон платформаси ва унинг мобил иловаси (кейинги ўринларда — электрон платформа) яратилгани маълумот учун қабул қилинсин.

4. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратилган маблағлар доирасида электрон платформа орқали қуйидаги имкониятларни яратсин ҳамда электрон платформанинг доимий иш фаолиятида бўлишини таъминласин:

ўқув марказларида ёшларнинг хорижий тилларни ўрганиш учун ўқув машғулотида қатнашишини қайд этиб бориш;

ўқиш харажати учун тўловларни онлайн тўлов тизимлари орқали амалга ошириш;

ўқув марказлари рейтингини шакллантириш ва эълон қилиш.

5. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги Рақамли технологиялар вазирлиги билан биргаликда икки ой муддатда «Рақамли ҳукумат» тизими идоралараро интеграциялашув платформаси орқали:

Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Билим ва ма-

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 9 октябрда эълон қилинган.

лакаларни баҳолаш агентлигининг «Миллий сертификатлар» электрон платформасини;

Солиқ қўмитасининг «Тадбиркорларнинг барқарорлик рейтинги» ҳамда «Ижара шартномаларини ҳисобга қўйиш» электрон платформаларини;

Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлигининг «Ягона миллий меҳнат тизими» идоралараро дастурий-аппарат комплексини;

Адлия вазирлигининг «Лицензия» ахборот тизимини белгиланган тартибда электрон платформага интеграция қилиш чораларини кўрсин.

6. Вазирлар Маҳкамасининг «Халқаро имтиҳон тизимлари бўйича юқори балл (даража) тўплаган ёшларга ўқиш ва имтиҳон топшириш харажатларини тўлиқ қоплаб бериш тартибини жорий этиш тўғрисида» 2021 йил 13 апрелдаги 209-сон қарорига 3-иловага* мувофиқ ўзгартиришлар ва қўшимча киритилсин.

7. Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги манфаатдор вазирлик ва идоралар билан биргаликда 2026 йил 1 августга қадар ушбу қарорга мувофиқ жорий этиладиган ёшларнинг хорижий тилларни ўқиш харажатлари учун субсидия ажратиш ҳамда ўқув марказларини рағбатлантириш билан боғлиқ жараёнларни пухта таҳлил қилган ҳолда, уни такомиллаштириш юзасидан асосланган таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

8. Ушбу қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги директори А.З. Саъдуллаев зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 8 октябрь,
632-сон

* 3-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 8 октябрдаги 632-сон қарорига
1-ИЛОВА

**Ёшларнинг ўқув марказларида хорижий тилларни
ўқиш харажатлари бир қисми учун субсидия ажратиш
тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом хорижий тиллар (инглиз, немис, француз, япон, корейс ва хитой тили)ни ўрганаётган ёшларнинг нодавлат таълим ташкилотларида офлайн шаклда амалга ошириладиган ўқиш харажатларининг бир қисми учун субсидия ажратиш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

ариза берувчи — хорижий тилларни ўқиш харажати учун субсидия олиш истагидаги ўн тўрт ёшга тўлган ва ўттиз ёшдан ошмаган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари ёки фуқаролиги бўлмаган шахслар;

«2+6» дастури — ушбу Низомга 1-иловада* белгиланган хорижий тилларни билиш бўйича баллнинг (даражанинг) камида минимал кўрсаткичли сертификатиغا эга бўлган ариза берувчи ўқув маркази томонидан унга хорижий тилни ўқитиш хизматини кўрсатгани учун дастлабки икки ой учун ўқиш харажатини ўз ҳисобидан тўлаганда, кейинги олти ойгача ўқиш харажати учун Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги (кейинги ўринларда — Ёшлар ишлари агентлиги)нинг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратилган маблағлар доирасида субсидия ажратилишини назарда тутувчи дастур;

давомат — ўқув марказларида таҳсил олаётган ёшларнинг дарсларга қатнашганини кунлик электрон назорат қилиш тизими;

сертификат — ушбу Низомга 1-иловадаги хорижий тилларни билиш даражасини белгиловчи, махсус серия рақамига эга ҳужжат;

ўқув маркази — Ўзбекистон Республикаси ҳудудида белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилган ҳолда хорижий тилларни ўқитиш фаолиятини амалга оширувчи нодавлат таълим ташкилоти;

ўқиш харажати — ўқув марказига ариза берувчини хорижий тилга ўқитиш хизматини кўрсатганлик учун тўланадиган тўлов;

электрон платформа — ариза берувчиларнинг ўқув марказларида хорижий тилни ўрганиш учун ўқув машғулотида қатнашишини қайд этиб боровчи, уларнинг хорижий тилни ўқиш харажати учун субсидия ажратиладиган ўқув марказлари рўйхати, шунингдек, ушбу ўқув марказлари рейтинги эълон қилиб бориладиган электрон платформа ва унинг мобил иловаси.

3. «2+6» дастурига мувофиқ ёшларга ҳар ой якуни бўйича қуйидаги миқдорда субсидия ажратилади:

Тошкент шаҳрида — базавий ҳисоблаш миқдорининг 2 бараваригача;

* 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлар марказларида — базавий ҳисоблаш миқдорининг 1,5 бараваригача;

туман (шаҳар)ларда — базавий ҳисоблаш миқдорининг 1 бараваригача.

4. Ёшлар ишлари агентлиги томонидан 2025-2026 йилларда ўқув марказларида хорижий тилларни ўрганадиган 20 минг нафаргача, 2031 йилга қадар ҳар йили 20 минг нафаргача ёшларга ўқиш харажатлари учун субсидия ажратилади.

Бунда тегишли йилда субсидия ажратилган ёшлар сони 20 минг нафардан ошган тақдирда, ўша йил учун субсидия ажратиш кейинги йилга қадар тўхтатилади.

5. Ариза берувчига қуйидаги давлат ижтимоий ёрдамлари доирасида муқаддам хорижий тилни ўрганиш учун маблағ ажратилган бўлса, ушбу ариза берувчига «2+6» дастури доирасида айнан шу хорижий тилни ўрганиш харажати учун субсидия ажратиш рад этилади:

Вазирлар Маҳкамасининг «Халқаро имтиҳон тизимлари бўйича юқори балл (даража) тўплаган ёшларга ўқиш ва имтиҳон топшириш харажатларини тўлиқ қоплаб бериш тартибини жорий этиш тўғрисида» 2021 йил 13 апрелдаги 209-сон қарорига мувофиқ ариза берувчига ушбу хорижий тил бўйича имтиҳон топшириш харажатлари қоплаб берилган бўлса;

Вазирлар Маҳкамасининг «Ёшлар муаммоларини ўрганиш ва ҳал этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2022 йил 7 июндаги 312-сон қарорига мувофиқ ариза берувчига хорижий тилни ўқиш харажати учун «Ёшлар дафтари» жамғармаси ҳисобидан субсидия ажратилган бўлса.

6. Ушбу Низомга мувофиқ ариза берувчиларга фақат битта хорижий тилни ўқиш харажати учун субсидия ажратилади.

2-боб. Ёшларнинг хорижий тилларни ўқиш харажати учун субсидия ажратиладиган ўқув марказлари рўйхатини шакллантириш

7. Ариза берувчиларнинг хорижий тилни ўқиш харажати учун:

ўқув марказларининг рейтингини шакллантириш учун белгиланган тартибда электрон платформа орқали рўйхатдан ўтган;

ариза берувчиларнинг ўқув машғулотида қатнашганини кунлик электрон назорат қилиш имконини берувчи электрон платформага интеграция қилинган ўқув марказларига «2+6» дастури доирасида субсидия ажратилади.

8. Ариза берувчиларнинг хорижий тилни ўқиш харажати учун субсидия ажратиладиган ўқув марказлари рўйхати Ёшлар ишлари агентлиги томонидан шакллантирилади ва электрон платформа орқали эълон қилиб борилади.

9. Ушбу рўйхатга киритиш учун ўқув марказлари электрон платформа орқали Ёшлар ишлари агентлигига қуйидаги ҳужжатларни юборади:

нодавлат таълим хизматларини кўрсатиш фаолияти бўйича лицензия ёки хабарнома қабул қилинган тўғрисидаги тасдиқнома (интеграциялашган ахборот тизимлари орқали);

хорижий тилни ўқитиш учун мулк ҳуқуқи ёки ижара ҳуқуқи асосида фаолият юритиши (бино ёки хонанинг кадастр рақами) тўғрисидаги маълумотлар (pdf форматда);

ўқув марказида хорижий тилни ўқитиш фаолиятини амалга оширувчи камида «B2» даражадаги ёки унга тенглаштирилган даражадаги миллий ёхуд халқаро сертификатга эга бўлган ўқитувчилар, шунингдек, таҳсил олаётган ўқувчилари ҳақидаги маълумотлар (pdf форматда);

хорижий тилни ўқитиш фаолиятини амалга оширишда фойдаланиладиган ўқув хоналари, жиҳозлари ва инвентарлар (номи ва сони) тўғрисида маълумот (pdf форматда).

10. Ўқув маркази томонидан юборилган ҳужжатлар ва маълумотлар ушбу Низомнинг 7 ва 9-бандларига мувофиқ бўлган тақдирда, Ёшлар ишлари агентлиги электрон платформа орқали ўқув марказига бу ҳақида хабарнома юборади.

11. Ўқув марказининг ўқувчилар даволатини кунлик назорат қилиш тизими электрон платформа билан интеграция қилиниб, ўқув маркази томонидан оммавий оферта шартлари қабул қилингандан сўнг ушбу ўқув маркази ариза берувчиларни хорижий тилга ўқитиш харажати учун субсидия ажратиладиган ўқув марказлари рўйхатига киритилади.

3-боб. Ёшларнинг хорижий тилларни ўқиш харажати учун субсидия ажратиш тартиби

12. Ўқув марказларида ёшларнинг хорижий тилларни ўқиш харажати учун субсидия ушбу Низомга 2-иловадаги* схемага мувофиқ ажратилади.

13. Ариза берувчи ўз хошишига кўра ягона идентификация тизими (One ID) орқали электрон платформага кириб, авторизациядан ўтади ва сертификатни юборади.

Бунда ушбу сертификатни у берилган санадан бошлаб бир календарь йил ичида юбориш талаб этилади, ушбу муддат ўтгандан сўнг юборилганда «2+6» дастури доирасида ўқиш харажати учун субсидия ажратилиши рад этилади.

14. Сертификат ушбу Низомга 1-иловадаги рўйхатга мувофиқ бўлганда, унинг ҳақиқийлиги тасдиқланганда ва ушбу Низомда белгиланган муддатда юборилганда, ариза берувчи хорижий тилни ўқитиш фаолиятини амалга оширувчи ўқув марказларидан бирини ва унда фаолият юритувчи ўқитувчини ихтиёрий равишда танлайди ва ўзи ўрганишни истаган хорижий тилнинг номи, хорижий тилни ўрганиш вақти ва умумий муддатини белгилаб, хорижий тилни ўқитиш хизматини кўрсатиш ҳақидаги шартномани (кейинги ўринларда — шартнома) бир томонлама имзолайди.

15. Ариза берувчининг таклифи ўқув маркази томонидан маъқулланганда, ўқув маркази етти кун ичида шартномани имзолайди.

16. Ариза берувчининг хорижий тилни ўрганиш учун ўқув машғулотиغا қатнашиши электрон платформада қайд этиб борилади.

Бунда ариза берувчи дастлабки икки ой давомида хорижий тилни ўқиш

* 2-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

харажатини ўз ҳисобидан электрон платформа орқали ўқув марказининг тегишли банк ҳисобварағига тўлаганда, унинг кейинги олти ойгача бўлган ўқиш харажати ўқув маркази томонидан электрон платформа орқали юборилган ҳисоб-фактурага асосан, ариза берувчининг давоматига мутаносиб равишда Ёшлар ишлари агентлигининг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратилган маблағлар доирасида ўқув марказининг тегишли банк ҳисобварағига шартномада белгиланган муддатларда ўтказиб борилади.

Ушбу тўловларнинг амалга оширилгани ҳақида ариза берувчининг электрон платформадаги шахсий кабинетига хабарнома юборилади.

4-боб. Яқунловчи қоидалар

17. Ариза берувчи ушбу Низом талаблари ижросига масъул давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг хатти-ҳаракатлари (ҳаракат-сизлиги) юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят қилиши мумкин.

18. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 8 октябрдаги 632-сон қарорига
2-ИЛОВА

Ўқув марказлари рейтингини шакллантириш ва рейтинг асосида ўқув марказларини рағбатлантириш тартиби тўғрисида НИЗОМ

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом хорижий тилларни ўқитишга ихтисослашган нодавлат таълим ташкилотлари (кейинги ўринларда — ўқув марказлари) рейтингини шакллантириш, юритиш ва ушбу рейтингда юқори ўринларни эгаллаган ўқув марказларини рағбатлантириш тартибини белгилайди.

2. Ушбу Низомда қуйидаги асосий тушунчалардан фойдаланилади:

«2+6» дастури — ўқиш харажати қопланиши учун хорижий тилларни билиш бўйича лозим бўлган баллнинг (даражанинг) минимал кўрсаткичли сертификатиغا эга бўлган ёш фуқаро ўқув маркази томонидан унга хорижий тилни ўқитиш хизматини кўрсатгани учун дастлабки икки ой учун ўқиш харажатини ўз ҳисобидан тўлаганда, кейинги олти ойгача ўқиш харажати учун Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги (кейинги ўринларда — Ёшлар ишлари агентлиги)нинг Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратилган маблағлар доирасида субсидия ажратилишини назарда тутувчи дастур;

барқарорлик рейтингини — Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмита-

сининг «Тадбиркорларнинг барқарорлик рейтинги» электрон платформаси орқали аниқланадиган ўқув марказларининг барқарорлик рейтинги;

компенсация — Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 13 апрелдаги 209-сон қарорига мувофиқ Ёшлар ишлари агентлиги томонидан халқаро имтиҳон тизимлари бўйича юқори балл (даража) тўплаган ёшларга имтиҳон топшириш харажатларини қоплаш учун тўлаб бериладиган тўлов;

олис ва чекка ҳудудлар — Вазирлар Маҳкамасининг 2025 йил 10 июлдаги 426-сон қарори билан тасдиқланган Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги Ёшлар тадбиркорлигини ривожлантириш давлат мақсадли жамғармаси маблағлари ҳисобидан бизнес лойиҳаларни молиялаштириш тартиби тўғрисидаги низомга 3-иловага мувофиқ белгиланган Қорақалпоғистон Республикаси ва вилоятлардаги олис ва чекка ҳудудлар;

электрон платформа — ариза берувчиларнинг ўқув марказларида хорижий тилни ўрганиши учун ўқув машғулотида қатнашишини қайд этиб борувчи, уларнинг хорижий тилни ўрганиш харажати учун субсидия ажратиладиган ўқув марказлари рўйхати, шунингдек, ушбу ўқув марказлари рейтинги эълон қилиб бориладиган электрон платформа ва унинг мобил иловаси;

ўқув маркази — Ўзбекистон Республикаси ҳудудида белгиланган тартибда давлат рўйхатидан ўтказилган ҳолда хорижий тилларни ўқитиш фаолиятини амалга оширувчи нодавлат таълим ташкилоти.

3. Ушбу Низомга мувофиқ Ёшлар ишлари агентлиги томонидан электрон платформа орқали ўқув марказлари рейтинги (кейинги ўринларда — рейтинг) юритилади ва эълон қилиб борилади (мактабгача, умумий ўрта, ўрта махсус, касбий, олий, олий таълимдан кейинги таълим бериш фаолиятини амалга оширувчи нодавлат таълим ташкилотлари бундан мустасно).

Бунда ушбу рейтинг республика, ҳудуд, туман (шаҳар) ҳамда олис ва чекка ҳудудлардаги ўқув марказлари кесимида шакллантирилади.

2-боб. Рейтингни шакллантириш учун ўқув марказларини электрон платформа орқали рўйхатдан ўтказиш

4. Ўқув марказларининг рейтингини шакллантириш учун уларни рўйхатдан ўтказишда барқарорлик рейтинги шкаласи бўйича камида «С» кўрсаткичга эга бўлиши талаб этилади.

Ўқув марказлари электрон платформа орқали рўйхатдан ўтказиш учун Ёшлар ишлари агентлигига қуйидаги ҳужжатларни юборди:

нодавлат таълим хизматларини кўрсатиш фаолияти бўйича лицензия ёки хабарнома қабул қилингани тўғрисидаги тасдиқнома (интеграциялашган ахборот тизимлари орқали);

хорижий тилни ўқитиш учун мулк ҳуқуқи ёки ижара ҳуқуқи асосида фаолият юритиши (бино ёки хонанинг кадастр рақами) тўғрисидаги маълумотлар (pdf форматда);

ўқув марказида хорижий тилни ўқитиш фаолиятини амалга оширувчи ўқитувчилар ҳақидаги маълумотлар (pdf форматда).

Ушбу бандда назарда тутилган ҳужжатлар ва маълумотларни юборган

Ўқув марказлари электрон платформа орқали рўйхатдан ўтказилади ва ушбу Низомда белгиланган тартибда уларнинг рейтинги шакллантириб борилади.

3-боб. Ўқув марказлари рейтингини шакллантириш тартиби

5. Ўқув марказлари рейтинги қуйидаги кўрсаткичлар асосида ҳар ой якуни бўйича балларни жамлаш орқали шакллантириб борилади:

а) «2+6» дастури доирасида хорижий тилни ўқиш харажати учун Ёшлар ишлари агентлиги томонидан субсидия ажратилган ҳар бир ёш фуқаро компенсация олганда — 3 балл;

б) «2+6» дастури доирасида хорижий тилни ўқиш харажати учун Ёшлар ишлари агентлиги томонидан субсидия ажратилган ҳар бир ёш фуқаро камида «B2» даражадаги ёки унга тенглаштирилган даражадаги миллий ёхуд халқаро сертификат олганда — 3 балл;

в) ўқув марказида ўз ҳисобидан таҳсил олган ҳар бир ёш фуқаро компенсация олганда — 2 балл;

г) ўқув марказида фаолият олиб бораётган ҳар бир ўқитувчи малака тоифаси ҳамда хорижий тилни билиш бўйича камида «B2» даражадаги ёки унга тенглаштирилган даражадаги миллий ёхуд халқаро сертификатга эга бўлганда — 1 балл;

д) барқарорлик рейтинги бўйича — жами 100 баллгача.

Бунда ушбу банднинг «а», «б», «в» ва «г» кичик бандларида назарда тутилган баллар доимий равишда ўзаро қўшиб борилади, «д» кичик бандидаги ҳар бир календарь кунда шаклланган балларнинг бир ой давомидаги ўртача кўрсаткичини «а», «б», «в» ва «г» кичик бандларидаги балларга қўшиш орқали рейтинг аниқланади ҳамда ушбу бир ойлик рейтинг баллари ой якуни бўйича электрон платформа орқали жамоатчиликка эълон қилиб борилади.

Ушбу бандда назарда тутилган балл бериш учун асос бўлган ҳолатлар юзага келганда, тегишли ахборот тизимлари билан электрон платформанинг интеграцияси орқали ўқув марказининг баллари реал вақт режимида автоматик тарзда шакллантирилади.

6. Ўқув марказларининг бир йиллик рейтинги ҳар йили 1 январь ҳолатига қўра аниқланади.

Бунда ўқув марказининг йиллик рейтинги ушбу Низомнинг 5-банди «а», «б», «в» ва «г» кичик бандларида назарда тутилган балларнинг йил давомидаги ўзаро йиғиндисига «д» кичик бандидаги ҳар ойда шаклланидиган балларнинг ўртача кўрсаткичини қўшиш орқали аниқланади.

Ушбу бир йиллик рейтинг баллари электрон платформа орқали жамоатчиликка эълон қилинади ҳамда ҳар йили 1 январдан бошлаб рейтинг баллари «0» баллдан бошлаб қайта шакллантирилади.

4-боб. Эътирозларни кўриб чиқиш

7. Рейтинг балларининг шакллантирилиши бўйича ўқув марказида эътирозлар мавжуд бўлганда, электрон платформадаги ўз шахсий кабинети орқали Ёшлар ишлари агентлигига мурожаат қилади.

8. Ушбу эътирозлар Ёшлар ишлари агентлиги томонидан ўн иш куни давомида белгиланган тартибда кўриб чиқилади ва натижаси бўйича:

эътирозлар асосли деб топилганда, электрон платформадаги маълумотларга тегишли тузатишлар киритилган ҳолда ўқув марказининг баллари қайта шакллантирилади;

эътирозлар асоссиз деб топилганда, рейтинг баллари ўзгаришсиз қолдирилиб, бу ҳақида ўқув марказининг шахсий кабинетига тегишли тушунтириш юборилади.

5-боб. Рейтингда юқори натижаларни қайд этган ўқув марказларини рағбатлантириш

9. Олис ва чекка ҳудудлардаги ўқув марказлари кесимида шакллантириладиган рейтингнинг йиллик натижалари бўйича энг юқори балл олган 100 тагача ўқув марказларига келаси олти ой давомида ўз фаолиятини амалга ошириш мақсадида ижара шартномасига асосан ҳар бир ой учун базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 бараваригача миқдорда ижара тўловлари ҳар ой якуни билан ўқув маркази томонидан тақдим этиладиган ижара тўловини тасдиқловчи ҳужжатларга мувофиқ Ёшларга оид давлат сиёсатини қўллаб-қувватлаш жамғармасига ажратилган маблағлар доирасида компенсация қилинади.

Бунда ушбу бандда назарда тутилган ижара шартномасининг ҳақиқийлиги тегишлигича Ўзбекистон Республикаси Солиқ қўмитасининг «Ижара шартномаларини ҳисобга қўйиш» электрон тизими маълумотлари асосида тасдиқланган бўлиши лозим.

6-боб. Якунловчи қоидалар

10. Ўқув марказлари ушбу Низом талаблари ижросига масъул давлат органлари ва бошқа ташкилотлар ходимларининг хатти-ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) юзасидан қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда шикоят қилиши мумкин.

11. Ушбу Низом талаблари бузилишида айбдор бўлган шахслар қонунчилик ҳужжатларида белгиланган тартибда жавоб берадилар.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ВАЗИРЛАР МАҲКАМАСИНИНГ
ҚАРОРИ

615 Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатини ҳамда ушбу рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида*

Ўзбекистон Республикасининг «Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисида»ги Қонуни 9-моддасига мувофиқ, Вазирлар Маҳкамаси **қарор қилади:**

1. Қуйидагилар:

Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхати 1-иловага** мувофиқ;

Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тартиби тўғрисидаги низом 2-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилаб қўйилсинки:

ушбу қарорга 1-илованинг 2-сон рўйхати I қисми ва 3-сон рўйхати I қисмида кўзда тутилган ишлар, касблар ва лавозимлар бўйича имтиёзли шартларда ёшга доир пенсияга чиқиш ҳуқуқи қонунчиликда белгиланган тартибда иш ўринларини меҳнат шароитлари ва асбоб-ускуналарнинг жароҳатлаш хавфлилиги юзасидан аттестациядан ўтказиш натижаларига кўра тасдиқланади;

Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлиги ташкилий-ҳуқуқий шаклидан қатъи назар, ташкилотларда Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхатининг тўғри қўлланишини назорат қилади ҳамда тушунтиришлар беради.

3. Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг 3-иловага мувофиқ айрим қарорлари ўз кучини йўқотган деб ҳисоблансин.

4. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги, манфаатдор вазирлик ва идоралар ўзлари қабул қилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни икки ой муддатда ушбу қарорга мувофиқлаштирсин.

5. Мазкур қарорнинг бажарилишини назорат қилиш Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосари — иқтисодиёт ва молия вазири

* Ушбу қарор «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 13 октябрда эълон қилинган.

** 1-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Ж.А. Қўчқоров ҳамда Ўзбекистон Республикаси камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазири Б.Э. Захидов зиммасига юклансин.

**Ўзбекистон Республикасининг
Бош вазири**

А. АРИПОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 10 октябрь,
637-сон

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 10 октябрдаги 637-сон қарорига
2-ИЛОВА

**Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб
чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва
кўрсаткичларнинг рўйхатига ўзгартириш ва қўшимчалар
киритиш тартиби тўғрисида
НИЗОМ**

1-боб. Умумий қоидалар

1. Ушбу Низом Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатига (кейинги ўринларда — Рўйхат) ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича ҳужжатларни тақдим этишда ягона талабларни белгилайди.

2. Рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича корхоналарнинг таклифлари иш ўринларини меҳнат шароитлари ва асбоб-ускуналарнинг жаҳолатлаш хавфлилиги юзасидан аттестациядан ўтказиш (кейинги ўринларда — аттестация) натижаларига кўра тасдиқланади.

**2-боб. Рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчаларни киритиш ва
касбларнинг бирхиллигини белгилаш учун ҳужжатларни
тайёрлаш тартиби**

3. Зарарли ва (ёки) хавфли ишлаб чиқариш омилларига эга бўлган ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларни Рўйхатга киритиш зарурати ҳақидаги ходимларнинг таклифлари икки нусхада тайёрланиб, иш берувчи ҳамда корхона касаба уюшмаси қўмитаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органига юборилади.

4. Иш берувчи томонидан меҳнат шароитларини ўрганиш комиссияси (кейинги ўринларда — Комиссия) ташкил қилиниб, унинг таркиби иш берувчининг буйруғи билан тасдиқланади. Комиссия таркибига иш берувчининг ишлаб чиқариш бўйича ўринбосари, кадрлар бўлими бошлиғи ёки ходими, меҳнатни муҳофаза қилиш хизматининг бошлиғи ва ходимлари, бош муҳан-

дис (мавжуд бўлса), корхона касаба уюшмаси қўмитаси вакили ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи вакили киритилади.

5. Рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича таклифларни тайёрлаш ва иш берувчига тақдим қилиш учун Комиссия қўйидагиларни текширади:

иш жойининг режаси ишлаб чиқаришлар, ишлар ва ускуналар жойлашган корхонанинг бош лойиҳасига мослигини;

технологик жараёнга, ускуналарни ишлатиш бўйича қоидаларга риоя этилганини, жиҳозлар, асбоблар ва ускуналар созлигини;

жамоа ва шахсий ҳимоя воситаларининг мавжудлиги ва яроқлилиги, ҳимоя кийимининг мавжудлиги ва мослигини;

меҳнат шароитларини яхшилаш бўйича корхонанинг (жамоа шартнома-сида назарда тутилган) ташкилий-техник тадбирлар режасининг бажарилганини, технологик жараён, технологик тартибнинг мукамаллигини, иш ўринлари автоматлаштирилганини, жиҳозланганлик даражаси, меҳнат шароитларини, хавфсизлик техникаси ва меҳнат гигиенасига риоя этилганини.

6. Текшириш вақтида аниқланган меҳнат шароитларининг белгиланган меъёрларга нисбатан бузилиши ҳолатлари ва камчиликлар аттестация ўтказилишига қадар бартараф этилади.

7. Текшириш натижалари далолатнома билан расмийлаштирилиб, Комиссия аъзолари томонидан имзоланади ва иш берувчига юборилади.

8. Аниқланган хато ва камчиликларни бартараф этиш юзасидан чора-тадбирлар белгиланиб, тегишли чоралар амалга оширилади.

Текширишда аниқланган хато ва камчиликлар бартараф этилганидан сўнг, аттестациядан ўтказилиши керак бўлган ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхати тузилади ҳамда аттестациядан ўтказилади.

9. Аттестация Вазирлар Маҳкамасининг 2014 йил 15 сентябрдаги 263-сон қарори билан тасдиқланган Иш ўринларини меҳнат шароитлари ва асбоб-ускуналарнинг жароҳатлаш хавфлилиги юзасидан аттестация ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомга мувофиқ ўтказилади.

10. Аттестация натижалари бўйича меҳнат шароитларининг амалдаги ҳолати, яъни аниқланган зарарли ва (ёки) хавфли ишлаб чиқариш омиллари ҳажми, уларнинг белгиланган меъёрларидан оғиш даражаси аниқланади.

11. Аттестация натижалари Комиссия томонидан корхонанинг касаба уюшмаси қўмитаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи билан бирга-ликда аттестация ўтказган корхона вакиллари иштирокида муҳокама қилинади.

12. Муҳокама натижаси бўйича баённома ва Рўйхатга киритилиши таклиф этилаётган меҳнат шароитлари ноқулай бўлган ишлаб чиқаришлар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхати тузилади.

13. Аттестациядан ўтказиш ишлари тугаши билан иш берувчи касаба уюшмаси қўмитаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи билан бирга-ликда ўзларининг юқори турувчи органига (вазирликлар, идоралар, хўжалик бирлашмалари, корпорациялар, уюшмалар, концернлар) (кейинги ўринларда — Ташкилот) қўйидагиларни тақдим этади:

Рўйхатга киритиш учун аттестация натижалари бўйича таклиф қилинган ишлаб чиқаришлар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичлар рўйхатини; аттестация ҳужжатлари давлат экспертизасидан ўтказилгани тўғрисидаги хулосасини;

аттестация натижаларига асосан иш ўринларида аниқланган зарарли ва (ёки) хавфли ишлаб чиқариш омилларини бартараф этиш имкони мавжуд эмаслиги юзасидан Комиссиянинг хулосаси ва қисқача молиявий-иқтисодий асосларни.

14. Ташкилот тегишли касаба уюшмаси қўмитаси ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органи билан биргаликда:

тақдим этилган ҳужжатларни кўриб чиқади ва ўз корхоналарининг 30 фоизидан кам бўлмаган аналогик (ўхшаш) иш ўринларида аттестация ўтказилишини таъминлайди;

зарурат бўлганда ҳужжатларни тақдим қилган тизимидаги корхонада назорат ўлчовларини ташкил қилади.

15. Ташкилот томонидан тизимидаги мурожаат қилувчи корхонанинг таклифи қаноатлантирилиши бўйича ижобий қарор қабул қилинса, шунга ўхшаш корхоналарнинг камида 30 фоизида аналогик (ўхшаш) иш ўринларида қўшимча аттестация ўтказилишини инobatга олган ҳолда, тегишли касаба уюшмаси қўмиталари ёки ходимларнинг бошқа вакиллик органлари билан биргаликда Рўйхатнинг тегишли қисмига (бўлимига) қўшимчалар киритиш ёки айрим касблар, ишлар, лавозимлар ва кўрсаткичларни чиқариш юзасидан таклифларни тайёрлайди ҳамда Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Иқтисодиёт ва молия вазирлигига юборади.

16. Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан биргаликда Ташкилотнинг таклифларини қабул қилиш тўғрисида ёки рад этиш сабабларини ёзма равишда аниқ кўрсатган ҳолда 15 кун муддатда қарор қабул қилади.

17. Рўйхатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш бўйича Ташкилотнинг таклифлари қабул қилинганда, Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги бу юзасидан тегишли Ҳукумат қарори лойиҳасини тайёрлайди ҳамда Соғлиқни сақлаш вазирлиги, Иқтисодиёт ва молия вазирлиги, Ўзбекистон касаба уюшмалари Федерацияси, шунингдек, таклифларни тақдим қилган Ташкилот билан белгиланган тартибда келишади.

Келишилган Ҳукумат қарори лойиҳаси қонунчиликда белгиланган тартибда Вазирлар Маҳкамасига киритилади.

Вазирлар Маҳкамасининг
2025 йил 10 октябрдаги 637-сон қарорига
3-ИЛОВА

**Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг ўз кучини йўқотган
деб ҳисобланаётган айрим қарорлари
РЎЙХАТИ**

1. Вазирлар Маҳкамасининг «Имтиёзли шартларда пенсияга чиқиш ҳуқуқини берувчи ишлаб чиқаришлар, муассасалар, ишлар, касблар, лавозимлар ва кўрсаткичларнинг рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида» 1994 йил 12 майдаги 250-сон қарори.

2. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ва айримларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» 1999 йил 30 апрелдаги 202-сон қарорига 1-илованинг 5-банди.

3. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек уларнинг баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» 2001 йил 1 мартдаги 103-сон қарорига илованинг 7-банди.

4. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек баъзиларини ўз кучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Фуқароларнинг пенсия таъминоти тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2009 йил 30 декабрдаги ПФ–4161-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги тузилмасини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2009 йил 30 декабрдаги ПҚ–1251-сон ҳамда «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги ҳузуридаги бюджетдан ташқари пенсия жамғармасининг ташкилий тузилмасини шакллантириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2009 йил 30 декабрдаги ПҚ–1252-сон қарорлари)» 2010 йил 24 мартдаги 52-сон қарорига 1-илованинг 6-банди.

5. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Аҳолининг ҳожатманд қатламларини ижтимоий қўллаб-қувватлаш ҳамда тиббий-ижтимоий ёрдам кўрсатиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 22 февралдаги ПФ–4782-сон Фармони ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Меҳнат вазирлиги фаолиятини ташкил этишни такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2016 йил 24 февралдаги ПҚ–2498-сон қарори)» 2017 йил 13 мартдаги 130-сон қарорига 1-илованинг 2-банди.

6. Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида (Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Бандлик соҳасида давлат сиёсатини

янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 24 майдаги ПФ–5052-сон Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида» 2017 йил 24 майдаги ПҚ–3001-сон қарори)» 2017 йил 8 сентябрдаги 703-сон қарорига илованинг 4-банди.

7. Вазирлар Маҳкамасининг «Фуқароларни ижтимоий ҳимоя қилиш соҳасидаги қонунчилик ҳужжатлари такомиллаштирилганлиги муносабати билан Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек, баъзиларини ўз қучини йўқотган деб ҳисоблаш тўғрисида» 2024 йил 29 октябрдаги 714-сон қарорига 1-илованинг 1-банди.

БЕШИНЧИ БЎЛИМ

О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
О‘ЗБЕКISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGINING
QARORI

616 Xorijiy tillar va umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 6-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3515-1

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son “2022 — 2026-yillarda maktab ta‘limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ–200-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-apreldagi 4-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligining 2024-yil 2-apreldagi 3-mh-son qarori (ro‘yxat raqami 3515, 2024-yil 29-may) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.05.2024-y., 10/24/3515/0376-son) bilan tasdiqlangan Xorijiy tillar va umumta‘lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatiga ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan.

3. Ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

**Oliy ta‘lim, fan va
innovatsiyalar vaziri**

K. SHARIPOV

Toshkent sh.,
2025-yil 2-sentabr,
48-Q/Q-son

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 8-oktabrda e‘lon qilingan.

** Ilova «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da e‘lon qilingan.

**Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri**

Toshkent sh.,
2025-yil 29-avgust,
8-mh-son

E. KARIMOVA

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

2025-yil 19-avgust

D. KUCHKAROV

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO'MITASINING
QARORI

617 Atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan asosiy talablarni tasdiqlash to'g'risida*

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3684*

O'zbekiston Respublikasining "Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda PF-224-son "Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi **qaror qiladi:**

1. Atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan asosiy talablar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

A. RAFIQOV

Toshkent sh.,
2025-yil 2-sentabr,
23-son

Kelishildi:

Sog'liqni saqlash vaziri

A. XUDAYAROV

2025-yil 11-avgust

Atom energiyasi agentligi direktori

A. AXMEDXADJAYEV

2025-yil 12-avgust

Fanlar akademiyasi prezidenti

Sh. AYUPOV

2025-yil 14-avgust

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 8-oktabrda e'lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 2-sentabrdagi 23-son qaroriga
ILOVA

Atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan ASOSIY TALABLAR

Mazkur asosiy talablar loyihalashtirilayotgan, barpo etilayotgan va foydalanilayotgan atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan talablarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu asosiy talablarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

atom energiyasi — atom yadrolarida mavjud bo'lgan va yadroviy reaksiyalar hamda radioaktiv parchalanish chog'ida ajralib chiqadigan energiya;

atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahlili (bundan buyon matnda ehtimoliy xavfsizlik tahlili deb yuritiladi) — sodir bo'lishi mumkin bo'lgan avariya va ularning oqibatlarini kompleks baholash usuli bo'lib, u texnik va statistik ma'lumotlar asosida turli avariya holatlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi;

avariya tashlanmalar — avariya, texnologik nosozlik, operator xatosi yoki favqulodda vaziyatlar natijasida nazoratdan tashqari va rejada ko'zda tutilmagan holda atrof-muhitga chiqib ketadigan radioaktiv moddalar;

ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i — yadroviy reaktorning faol zonasidan butunlay chiqarib tashlangan va texnik xususiyatlariga ko'ra yadroviy qurilmada foydalanish uchun mo'ljallanmagan yadroviy material;

himoya qobig'i (konteynment) — yadroviy reaktorni va undagi radiatsiyaviy xavf manbalarini tashqi muhitdan izolyatsiya qilish hamda favqulodda vaziyatlarda radiatsiya tarqalishining oldini olish, shuningdek tashqi ta'sirlardan (tabiiy ofatlar, portlash, samolyot qulashi va boshqalar) himoya qilish uchun mo'ljallangan maxsus inshoot;

radioaktiv moddalar — ionlashtiruvchi nurlanishni tarqatadigan, yadroviy materiallar jumlasiga kirmaydigan moddalar;

referent atom elektr stansiyasi — texnologik, konstruktiv va foydalanish xususiyatlari bo'yicha loyihalashtirilayotgan obyektga o'xshash bo'lgan, faoliyat yuritayotgan atom elektr stansiyasi;

yadroviy yoqilg'i — nazorat qilinadigan yadroviy bo'linish reaksiyasini amalga oshirish hisobiga yadroviy qurilmada issiqlik energiyasi va (yoki) nurlanish oqimlarini olish uchun mo'ljallangan yadroviy material;

1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlili — yadroviy reaktor shikastlanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan texnik va inson omillarini tahlil qilish hamda ushbu hodisaning ehtimolini baholash;

2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlili — yadroviy reaktor shikastlanganidan so'ng radioaktiv moddalarning himoya qobig'idan (konteynmentdan) tashqariga chiqib ketish ehtimolini va ushbu moddalarning tarkibini baholash.

2. Ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o'tkazish muddati va ko'lami O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi va atom elektr stansiyasini ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot o'rtasida tuziladigan litsenziya shartnomasiga muvofiq belgilanadi.

3. Ehtimoliy xavfsizlik tahlili quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligining ehtimoliy ko'rsatkichlarini (bundan buyon matnda xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlari deb yuritiladi) hisoblash;

og'ir avariya va katta avariya tashlanmalar ehtimolini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarda belgilangan normativ chegaralar bilan taqqoslash;

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligi uchun muhim bo'lgan boshlang'ich hodisalarni (bundan buyon matnda boshlang'ich hodisalar deb yuritiladi), ehtimoliy avariya holatlar ketma-ketligini, atom elektr stansiyasi bloki tizimlarini (elementlarini), xodimlarning (personalning) xatti-harakatlarini aniqlash;

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda ustuvorliklarni belgilash;

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarini (elementlarini) modernizatsiya qilish tadbirlarining atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligiga ta'sirini baholash.

4. Ehtimoliy xavfsizlik tahlili natijalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanilishi mumkin:

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) ishonchliligini baholash;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda atom energiyasidan foydalanish sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablaridan chetga chiqish holatlarining atom elektr stansiyasi xavfsizligiga ta'sirini tahlil qilish;

xavfsizlikka ta'siri bo'yicha atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) tasniflanishini asoslash;

nazorat va tekshiruv ishlarini rejalashtirish va baholash;

loyiha avariya uchun boshlang'ich hodisalar ro'yxatini asoslash;

loyiha avariya ro'yxatini asoslash;

loyiha avariya ro'yxatini boshqarish bo'yicha qo'llanmalarni asoslash.

5. Ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o'tkazish uchun atom elektr stansiyasini ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot mas'ul hisoblanadi.

2-bob. Ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan talablar

6. Ehtimoliy xavfsizlik tahlili atom elektr stansiyasining har bir bloki uchun alohida o'tkaziladi.

7. Ehtimoliy xavfsizlik tahlili quyidagi holatlarda o'tkazilishi lozim:

atom elektr stansiyasi blokini barpo etish va foydalanishda uning xavfsizligini asoslash yuzasidan hisobot tayyorlashda;

atom elektr stansiyasi blokining xavfsizligini davriy baholashda;
atom energiyasidan foydalanish obyektlarining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishni asoslashda;

atom elektr stansiyasi blokidan xavfsiz foydalanish chegaralari va shartlarini o'zgartirishni asoslashda;

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlariga o'zgartirishlar kiritishni asoslashda;

loyiha va ekspluatatsiya hujjatlariga o'zgartirishlar kiritishni asoslashda.

8. Xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlariga quyidagi holatlarning ta'sir qilmasligi tahlil natijalariga ko'ra asoslantirilgan va hujjatlashtirilgan bo'lsa, ehtimoliy xavfsizlik tahlili o'tkazilmasligi mumkin:

atom elektr stansiyasi blokidan xavfsiz foydalanish chegaralari va shartlarini o'zgartirish;

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlariga o'zgartirishlar kiritish;

loyiha va ekspluatatsiya hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish.

9. Ehtimoliy xavfsizlik tahlili quyidagi ikki darajada o'tkaziladi:

1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlili;

2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlili.

10. 1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o'tkazishda barcha boshlang'ich hodisalar, normal ekspluatatsiyaning barcha rejimlari hamda atom elektr stansiyasi blokidagi yadroviy materiallar (shu jumladan, yadroviy yoqilg'i va ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i) joylashgan barcha hududlar bo'yicha bir yil davomida atom elektr stansiyasining bitta bloki uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan og'ir avariyaalarning umumiy ehtimoli hisoblanishi lozim.

11. 1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilida har bir tahlil qilinayotgan ekspluatatsiya holati uchun atom elektr stansiyasi blokidagi yadroviy materiallar (shu jumladan, yadroviy yoqilg'i va ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i) joylashgan barcha hududlarni hisobga olgan holda ichki boshlang'ich hodisalar bo'yicha atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy modeli ishlab chiqiladi.

Bunda, atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy modelini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar bajarilishi shart:

atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya holatlarini tanlash va guruhlash;

boshlang'ich hodisalarni tanlash va guruhlash;

avariyaviy holatlar ketma-ketligini modellashtirish;

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) mantiqiy modellarini ishlab chiqish (tizimlarning ishonchlilik tahlili);

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) ishonchlilik ko'rsatkichlari va boshlang'ich hodisalar ehtimoligini (chastotalarini) aniqlash;

xodimlar (personal) tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatoliklar ehtimolini aniqlash (xodimlarning (personalning) ishonchlilik tahlili);

o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va hisobga olish (o'zaro bog'liqliklar tahlili);

ichki boshlang'ich hodisalarda og'ir avariyaal yuz berishi ehtimolini aniqlash.

12. 1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilida atom elektr stansiyasi blokining

ehtimoliy modelini ishlab chiqishda tizimlararo bog‘liqliklar, xodimlarning (personalning) harakatlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar, xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatuvchi atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) va bir maydonchada joylashgan boshqa atom elektr stansiyasi bloklarining ishlashi hisobga olinishi lozim.

13. 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o‘tkazishda barcha boshlang‘ich hodisalar, normal ekspluatatsiyaning barcha rejimlari hamda atom elektr stansiyasi blokidagi yadroviy materiallar (shu jumladan, yadroviy yoqilg‘i va ishlatib bo‘lingan yadroviy yoqilg‘i), radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar joylashgan barcha hududlar bo‘yicha bir yil davomida atom elektr stansiyasining bitta bloki uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan katta avariyaaviy tashlanmalarning umumiy ehtimoli hisoblanishi lozim.

14. 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilida ichki boshlang‘ich hodisalar, shuningdek ichki va tashqi ta’sir tufayli yuzaga keladigan boshlang‘ich hodisalar uchun atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy modellari ishlab chiqilishi lozim. Bu modellar ehtimoliy xavfsizlik tahlilida o‘rganilayotgan har bir ekspluatatsiya holati uchun tuzilishi kerak.

Bunda, atom elektr stansiyasi blokidagi barcha yadroviy materiallar (shu jumladan, yadroviy yoqilg‘i va ishlatib bo‘lingan yadroviy yoqilg‘i), radioaktiv moddalar va radioaktiv chiqindilar joylashgan hududlar inobatga olinishi shart.

15. 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilida atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy modellarini ishlab chiqishda quyidagi vazifalar bajarilishi lozim:

1-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlili natijalarini 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilining boshlang‘ich ma’lumotlari sifatida qabul qilish;

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) ehtimoliy modellarini ishlab chiqish (tizimlarning tahlili);

himoya qobig‘iga (konteynmentga) tushadigan yuklamalarni aniqlash;

avariyaaviy holatlar ketma-ketligini modellashtirish;

radiatsiyaaviy tashlanmalar miqdorini aniqlash;

avariya oqibatlarini aniqlash;

katta avariyaaviy tashlanmalar ehtimoligini aniqlash.

16. 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlilida atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy modelini ishlab chiqishda og‘ir avariyaaviy paytida sodir bo‘ladigan fizik hodisalar hamda fizik hodisalar bilan atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlari holati o‘rtasidagi bog‘liqlik hisobga olinishi kerak.

17. Atom elektr stansiyasi blokini jisman va (yoki) energetik ishga tushirish hamda atom elektr stansiyasi blokining sanoat sinovlari natijalari bo‘yicha xavfsizlikni asoslash yuzasidan hisobotga kiritilgan o‘zgartirishlar xavfsizlikning ehtimoliy ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatsa, 1 va 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlillari mazkur o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda qayta ishlanishi kerak.

18. Xavfsizlikning ehtimoliy ko‘rsatkichlarini aniqlashda quyidagi omillar inobatga olinishi kerak:

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) ishonchlilik ko‘rsatkichlarining ehtimoliy xususiyatlari;

boshlang‘ich hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli;

xodimlar (personal) tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar;
tahlil natijasiga ta'sir qiluvchi noaniqliklar.

Xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlari uchun ularning o'rtacha qiymatlari hamda 90 foiz ishonchli oraliqning yuqori va pastki chegara qiymatlari hisoblanishi shart.

19. Xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlarini hisoblashda quyidagilarni inobatga olish zarur:

atom elektr stansiyasi bloki tizimlaridagi (elementlaridagi) nosozliklar va xodimlarning (personalning) xatolari bilan bog'liq ichki boshlang'ich hodisalar;
ichki ta'sirlardan kelib chiqadigan boshlang'ich hodisalar;

tabiiy va texnogen xususiyatli tashqi ta'sirlardan kelib chiqadigan boshlang'ich hodisalar.

20. Xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlarini hisoblashda atom elektr stansiyasi blokining barcha normal ekspluatatsiya rejimlari (bundan buyon matnda ekspluatatsiya holatlari deb yuritiladi), jumladan quyidagilar inobatga olinishi shart:

quvvatda ishlash;
to'xtash rejimlari;
sovutish jarayonlari;
yoqilg'i yuklash;
texnik xizmat ko'rsatish;

atom elektr stansiyasi bloki tizimlarini (elementlarini) ta'mirlash va qayta ishga tushirish.

21. Atom elektr stansiyasi blokini barpo etishda va undan foydalanishda 1 va 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlillarini o'tkazish uchun soddalashtirilgan (baholovchi) hisob-kitoblar va usullardan foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Bunda, mazkur hisob-kitoblar va usullar atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda xalqaro standartlar talablariga muvofiq ilmiy-texnik jihatdan asoslantirilgan bo'lishi shart.

22. Barpo etilayotgan atom elektr stansiyasi bloklarining ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o'tkazish uchun boshlang'ich ma'lumotlar sifatida ularning loyiha hujjatlari hamda referent atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya hujjatlaridan foydalaniladi.

23. Foydalanilayotgan atom elektr stansiyasi bloklarining ehtimoliy xavfsizlik tahlilini o'tkazish uchun boshlang'ich ma'lumotlar sifatida ularning loyiha va ekspluatatsiya hujjatlari, shuningdek ulardan foydalanish tajribasi (boshlang'ich hodisalar, atom elektr stansiyasi bloki tizimlarining (elementlarining) ishdan chiqishi, ishlash rejimlari) hamda referent atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya ma'lumotlaridan foydalaniladi.

24. 1 va 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlillarining natijalari quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- a) atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligining ehtimoliy bahosi;
- b) ehtimoliy xavfsizlik tahlili asosida ishlab chiqilgan atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar;
- v) quyidagilarga nisbatan noaniqlik, sezgirlik va ahamiyatlilik tahlili natijalari:

xavfsizlikning ehtimoliy ko'rsatkichlari;
atom elektr stansiyasi bloki ehtimoliy modelining taxminlari;
boshlang'ich hodisalar;
avariyaviy holatlarning ketma-ketliklari;
atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahlilida ko'rib chiqiladigan tizimlar (elementlar) nosozliklari, shu jumladan umumiy sababga ko'ra yuz beradigan nosozliklar;

xodimlarning (personalning) xatolari;
ehtimoliy xavfsizlik tahlili asosida ishlab chiqilgan atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar.

25. 1 va 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlillarining natijalari atom elektr stansiyasi blokining haqiqiy holatiga mos bo'lishi shart.

26. Avariyaaviy holatlarning ketma-ketligi modellari, xavfsizlik funksiyalarini ta'minlaydigan tizimlarning (elementlarning) minimal to'plamiga qo'yiladigan talablar hamda 1 va 2-darajali ehtimoliy xavfsizlik tahlillarida modellashtiriladigan va qo'llaniladigan avariyaaviyalarining fizik parametrlari deterministik hisob-kitoblar bilan asoslantirilishi lozim.

3-bob. Yakuniy qoidalar

27. Ushbu asosiy talablarga rioya etilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi hamda atom energiyasidan foydalanish xavfsizligini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha alohida vakolatlariga ega bo'lgan davlat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

28. Mazkur asosiy talablarning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI SANOAT,
RADIATSIYA VA YADRO XAVFSIZLIGI QO‘MITASINING
QARORI

618 **Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo‘yicha asosiy talablarni tasdiqlash to‘g‘risida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3685*

O‘zbekiston Respublikasining “Atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-dekabrda PF–224-son “Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasi **qaror qiladi:**

1. Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo‘yicha asosiy talablar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligi va Fanlar akademiyasi bilan kelishilgan.

3. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Rais

Toshkent sh.,
2025-yil 2-sentabr,
22-son

A. RAFIQOV

Kelishildi:

Atom energiyasi agentligi direktori

2025-yil 12-avgust

A. AXMEDXADJAYEV

Fanlar akademiyasi prezidenti

2025-yil 14-avgust

Sh. AYUPOV

* Ushbu qaror «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 8-oktabrda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat,
radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining
2025-yil 2-sentabrdagi 22-son qaroriga
ILOVA

Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo'yicha ASOSIY TALABLAR

Mazkur asosiy talablar loyihalashtirilayotgan, barpo etilayotgan va foydalanilayotgan atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo'yicha talablarni belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu asosiy talablarda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

atom elektr stansiyasi bloki elementining qoldiq resursi — atom elektr stansiyasi bloki elementi resursining ekspluatatsiya boshlangan davrdagi holati bilan amalda foydalanilgan holati o'rtasidagi farq;

atom elektr stansiyasi bloki elementining resursi — atom elektr stansiyasi bloki elementining ekspluatatsiya boshlangan davrdan to atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda belgilangan mustahkamligi yoki ishlash qobiliyati qaytarib bo'lmaydigan tarzda buzilishi yuzaga keladigan vaqtgacha bo'lgan jami ishlash vaqti;

atom elektr stansiyasi bloki elementlari resursini boshqarish dasturi — atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarda nazarda tutilgan atom elektr stansiyasi bloki elementlari resursini boshqarish bo'yicha hujjatlar to'plami;

atom elektr stansiyasi blokining belgilangan ekspluatatsiya muddati (bundan buyon matnda belgilangan ekspluatatsiya muddati deb yuritiladi) — atom elektr stansiyasi blokining atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasining loyihalarida belgilangan va asoslangan ekspluatatsiya muddati;

atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish — atom elektr stansiyasi blokini qo'shimcha yoki takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokini ekspluatatsiyaga tayyorlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

atom elektr stansiyasi blokining qo'shimcha ekspluatatsiya muddati (bundan buyon matnda qo'shimcha ekspluatatsiya muddati deb yuritiladi) — atom elektr stansiyasi blokining belgilangan ekspluatatsiya muddatidan ortiqcha ekspluatatsiya muddati;

atom elektr stansiyasi blokining takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddati (bundan buyon matnda takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddati deb yuritiladi) — atom elektr stansiyasi blokining avval uzaytirilgan ekspluatatsiya muddatidan keyingi qo'shimcha ekspluatatsiya davri;

atom elektr stansiyasi blokining texnik holati — atom elektr stansiyasi

bloki elementlarining atom elektr stansiyasi loyihalarida belgilangan funksiyalarini bajara olish yoki bajara olmasligini tavsiflovchi xususiyatlari yig'indisi;

himoya xususiyatlari — kabellar, elektrotexnik uskunalar va asboblarning funksional sifatlarini yo'qotmagan holda mexanik, issiqlik va (yoki) radiatsiyaviy ta'sirlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini tavsiflovchi parametrlar.

2. Atom elektr stansiyasini ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot (bundan buyon matnda ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot deb yuritiladi) belgilangan yoki qo'shimcha ekspluatatsiya muddati tugashidan kamida 5 yil oldin uning xavfsizligini baholashi, baholash natijalari bo'yicha atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishni davom ettirish yoki uni foydalanishdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishi lozim.

Atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishni davom ettirish yoki uni foydalanishdan chiqarish to'g'risidagi qaror atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasi loyihalarini ishlab chiquvchilar ishtirokida qabul qilinishi kerak.

3. Belgilangan yoki qo'shimcha ekspluatatsiya muddati tugagandan so'ng atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishni davom ettirish to'g'risidagi qaror ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan quyidagilar asosida qabul qilinishi lozim:

atom elektr stansiyasi blokining almashtirilmaydigan elementlari, shuningdek, qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ularning asoslari holatining qoldiq resursini baholash natijalari;

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini baholash natijalari, shu jumladan xavfsizlikni davriy baholash natijalari;

atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish natijalari;

avvalgi ekspluatatsiya davrida atom elektr stansiyasi joylashgan maydoncha tavsiflarining o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar (shu jumladan, seysmiklikning o'zgarishi to'g'risidagi ma'lumotlar);

ekspluatatsiya tajribasi tahlili;

atom elektr stansiyasi blokining atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalariga, shuningdek, xavfsizlikni baholash paytida amalda bo'lgan xavfsizlikni ta'minlashni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligi;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida hosil bo'ladigan ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'ini vaqtincha saqlashda xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati;

atom elektr stansiyasi blokini foydalanishdan chiqarishda uning xavfsizligini ta'minlash imkoniyati.

4. Atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishni davom ettirish to'g'risidagi qaror qabul qilingandan so'ng ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot kompleks tekshirish natijalari asosida quyidagilarni nazarda tutuvchi atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishga tayyorlash dasturini ishlab chiqishi lozim:

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligining atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini tahlil qilish;

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolar va inshootlarning qoldiq resursini asoslash hamda ularning asoslari holatini baholash;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi bloki elementlarining qoldiq resursini asoslash va baholash;

resurslari ishlatib bo'lingan yoki qoldiq resurslarini aniqlash imkoniyati mavjud bo'lmagan elementlarni almashtirish;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga zid keluvchi nomuvofiqliklarni bartaraf etish (yoki atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligiga salbiy ta'sirni kompensatsiya qilish);

atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish xavfsizligini ta'minlash maqsadida uni modernizatsiya qilish;

xonalar, asbob-uskunalar va quvurlarni radiatsiyaviy tekshirish;

atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlarini sinovdan o'tkazish;

atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlarini almashtirish va (yoki) modernizatsiya qilish bo'yicha rejalashtirilgan tadbirlarni hisobga olgan holda qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokining qurilish konstruksiyalari, binolari, inshootlari, tizimlari va elementlari resursini boshqarish dasturini ishlab chiqish;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ularning asoslari, shuningdek atom elektr stansiyasi bloki tizimlari va elementlari holatini monitoring qilish tadbirlarini ishlab chiqish;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokining asbob-uskunalari, quvurlari va boshqa elementlaridan foydalanishda asosiy metall, payvandlangan birikmalar va payvandlangan yuzalarni nazorat qilish bo'yicha talablarni belgilovchi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarni hisobga olgan holda metall, quvurlar va boshqa elementlarni ekspluatatsiya davomida putur yetkazmasdan nazorat qilishning alohida namunaviy dasturini ishlab chiqish;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatining butun davri uchun atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini asoslash bo'yicha hisobotni ishlab chiqish;

ekspluatatsiya hujjatlariga tuzatishlar kiritish.

5. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan atom elektr stansiyasi xavfsizligini tahlil qilish va baholash natijasida qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida uning xavfsiz ishlashiga to'sqinlik qiluvchi va bartaraf etib bo'lmaydigan omillar aniqlangan hollarda atom elektr stansiyasi blokini foydalanishdan chiqarishga tayyorlash ishlari bajarilishi lozim.

2-bob. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish

6. Atom elektr stansiyasi blokining haqiqiy holatini baholash, uning elementlarining qoldiq resursini aniqlash, shuningdek atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishga tayyorlash dasturini ishlab

chiqish maqsadida ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshiruvdan o'tkazish tashkil etilishi lozim.

7. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish ishlari ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasi loyihalarini ishlab chiquvchilar ishtirokida belgilangan tartibda va muddatlarda bajarilishi kerak.

8. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirishdan oldin butun atom elektr stansiyasi blokini, shuningdek uning tizimlari va elementlari, qurilish konstruksiyalari, binolari, inshootlari va ularning asoslarini kompleks tekshirish dasturi ishlab chiqilishi shart.

9. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish dasturi quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan tekshirilishi lozim bo'lgan tizimlar va elementlar, qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ularning asoslari ro'yxati;

kompleks tekshiruvni o'tkazish bosqichlari;

kompleks tekshiruvni o'tkazish usullari va shakllari;

tayyorgarlik ishlari tarkibi.

10. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish dasturi ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan tasdiqlanishi hamda atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasi loyihalarini ishlab chiquvchilar bilan kelishilishi kerak.

11. Atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshiruvdan o'tkazish jarayonida quyidagilar aniqlanishi kerak:

atom elektr stansiyasi blokining xavfsizligi uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolari, inshootlari, tizimlari va elementlarining texnik holati;

resursi ishlatib bo'lingan va almashtirilishi kerak bo'lgan elementlar;

resursi tugamagan va muayyan vaqt davomida foydalanishni davom ettirish mumkin bo'lgan elementlar;

resursi tugamagan, lekin almashtirish jadvaliga muvofiq belgilangan yoki qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida almashtirilishi talab etiladigan elementlar;

qoldiq resursi aniqlanmagan va qoldiq resursini aniqlash zarur bo'lgan yoki almashtirilishi talab etiladigan elementlar;

atom elektr stansiyasi bloki xonalarida, uning maydonchasida va sanitariya-muhofaza zonasidagi radiatsiyaviy vaziyat;

dezaktivatsiya qilinishi lozim bo'lgan xonalar, asbob-uskunalar va quvurlar;

ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i va qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilarni saqlash xavfsizligi;

radioaktiv chiqindilarning xavfsiz muomalasi.

12. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan tasdiqlangan atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish natijalari bo'yicha hisobot quyidagilarni o'z ichiga olishi kerak:

tekshirilgan tizimlar va elementlar, qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ularning asoslari ro'yxati, shuningdek ular haqida qisqacha ma'lumotlar;

atom elektr stansiyasi blokining almashtiriladigan tizimlari va (yoki) elementlari ro'yxati;

atom elektr stansiyasi blokining texnik holati va qoldiq resursini aniqlash hamda xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar zarur bo'lgan tizimlar va (yoki) elementlar, qurilish konstruksiyalari, binolari, inshootlari ro'yxati;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida foydalanishni davom ettirish mumkin bo'lgan atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va (yoki) elementlari ro'yxati;

atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish ishlarining tarkibi, usullari va hajmlari, shu jumladan atom elektr stansiyasi bloki elementlari holatini nazorat qilishni tashkil etish, nazorat qilish usullari va hajmlari (ekspluatatsiya rejimlarini va elementlar resurslarini nazorat qilish, metall holatini nazorat qilish, texnik ko'rikdan o'tkazish, tekshirish, sinash, namunalar olish, qiyoslash, kalibrlash);

o'tkazilgan nazorat natijalari;

qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ular asoslarining texnik holatini baholash natijalari;

atom elektr stansiyasi bloki elementini almashtirish yoki undan foydalanishni davom ettirish to'g'risida qaror qabul qilish mezonlari;

atom elektr stansiyasi blokining haqiqiy texnik holati to'g'risida umumiy xulosalar.

3-bob. Qo'shimcha yoki takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish

13. Qo'shimcha yoki takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida quyidagi talablar to'liq bajarilgan taqdirda atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishni davom ettirishga yo'l qo'yiladi:

atom elektr stansiyasi bloki atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiq bo'lsa yoki atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etishga yoki kompensatsiya qilishga qaratilgan zarur texnik va (yoki) tashkiliy choralar ko'rilganda;

ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot tomonidan atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligi uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar, tizimlar va elementlarning resurslarini boshqarish dasturlari ishlab chiqilganda;

atom elektr stansiyasi blokining almashtirilmaydigan elementlarining resursi tugamagan hamda qo'shimcha yoki takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddati uchun yetarli bo'lganda;

atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligi uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar, tizimlar va elementlarning resurslarini boshqarish dasturlarida ularning qoldiq resursini monitoring qilishning texnik vositalari va usullari nazarda tutilganda;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasining uskunalari, quvurlari va boshqa elementlarining metalini putur yetkazmasdan nazorat qilishning alohida namunaviy dasturi ishlab chiqilganda;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokining texnik holati atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasi loyihalariga mos kelganda;

atom elektr stansiyasi bloki xonalarida, uning maydonchasida va sanitariya-muhofaza zonasida radiatsiyaviy vaziyat normativ talablarga javob berganda;

ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'ini vaqtincha xavfsiz saqlash va qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilar bilan ishlashda xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati nazarda tutilganda;

qo'shimcha ekspluatatsiya muddati uchun atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini asoslash bo'yicha hisobot ishlab chiqilganda.

14. Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishda (takroriy uzaytirishda) hamda atom elektr stansiyasi elementlarining qoldiq resursini asoslashda quyidagilarni hisobga olish kerak:

almashtirib bo'lmaydigan tizimlar va elementlardagi metall qismlarining, qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlardagi beton hamda armaturalarning, shu jumladan, atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmasi loyihalarida hisobga olinmagan yemirilish xususiyatlari;

almashtirilmaydigan kabellar, elektrotexnika uskunalari, nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika uskunalarining statsionar qurilmalari, radiatsiyaviy nazorat tizimlarining izolyatsiyaviy va himoya xususiyatlarining yemirilishi;

reaktorlar korpuslari, asbob-uskunalar va quvurlarning korroziyaga qarshi qoplamalari metalning yemirilishi;

xavfsizlik uchun muhim bo'lgan uskunar va quvurlar devorlarining korroziya va eroziya hisobiga yemirilishi.

15. Ushbu asosiy talablarning 14-bandida sanab o'tilgan materiallar yemirilishini hisobga olgan holda atom elektr stansiyasi elementlarining qoldiq resursini asoslash natijalari atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini asoslash bo'yicha hisobotga kiritilishi shart.

16. Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishda atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish natijalariga ko'ra nazorat hududlari ko'rsatilgan holda konstruksiya materiallarining holati va texnik holatni qo'shimcha nazorat qilishni tashkil etish uchun atom elektr stansiyasi blokining xavfsizlik uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolari, inshootlari, tizimlari hamda elementlarining ro'yxati aniqlanishi va asoslanishi lozim.

Takroriy qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida mazkur bandning birinchi xatboshisida ko'rsatilgan ro'yxat atom elektr stansiyasi blokini kompleks tekshirish natijasida aniqlangan elementlarning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda yangilab borilishi shart.

17. Xavfsizlik uchun muhim bo'lgan qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ular asoslarining texnik holatini tekshirish va monitoring qilish, shuningdek atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlaridagi metall holatini putur yetkazmasdan nazorat qilish hajmi va davriyligi ularning haqiqiy holati va qoldiq resursidan kelib chiqqan holda belgilanishi lozim. Nazoratning hajmi va davriyligi asoslantirilgan bo'lishi kerak.

18. Atom elektr stansiyasining 1 va 2-xavfsizlik sinflariga kiritilgan elementlari uchun qurilish konstruksiyalari, binolar, inshootlar va ular asoslarining texnik holatini tekshirish va monitoring qilish, shuningdek atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlaridagi metall holatini putur yetkazmasdan nazorat

qilish davriyligi ularning haqiqiy holatidan kelib chiqqan holda belgilanishi va to'rt yilda kamida bir marta o'tkazilishi kerak.

4-bob. Atom elektr stansiyasi blokining xavfsizlik uchun muhim bo'lgan elementlarining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishga qo'yiladigan talablar

19. Atom elektr stansiyasi blokining xavfsizlik uchun muhim bo'lgan elementlarining qoldiq resursini aniqlash atom elektr stansiyasi blokidan foydalanishning haqiqiy sharoitlarini va tekshirish sanasidagi atom elektr stansiyasi bloki elementlarining haqiqiy texnik holatini hisobga olgan holda bajarilishi kerak.

20. Atom elektr stansiyasi blokining 1, 2 va 3-xavfsizlik sinflariga kiritilgan elementlarining qoldiq resursi quyidagilar asosida tasdiqlanishi kerak:

atom elektr stansiyasi uskunalari va quvurlarining mustahkamligini asoslash va resursini boshqarishga qo'yiladigan talablarni belgilovchi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar;

atom elektr stansiyasi uskunalari va quvurlarining mustahkamligi va resursini asoslashga qo'yiladigan talablarni belgilovchi atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga rioya etish maqsadida qo'llanilishi majburiy bo'lgan milliy standartlar;

atom elektr stansiyasi blokining tizimlari va elementlari resurslarini boshqarish dasturlarida qo'llaniladigan standartlar (qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida ularni qo'llash imkoniyati asoslantirilgan holda).

21. Atom elektr stansiyasi va reaktor qurilmalari korpusi (reaktorning faol zonasi) uchun qo'shimcha ekspluatatsiya muddatining davomiyligi asosiy metall va nurlanish zonasida joylashgan payvand choklari holati, yemirilishi, qovushqoqligi qiymatlari hamda reaktor korpusi ichiga sovuq suv kirishi bilan bog'liq barcha ekspluatatsiya va avariya holat yuklamalari, shuningdek gidravlik sinovlar paytidagi yuklamalarga bardosh berish imkonini berishini asoslash bilan tasdiqlanishi lozim. Asosiy metall va payvand choklaridagi metalning buzilishi, qovushqoqligining minimal qiymatlarini tasdiqlash kuzatuv namunalari yoki templetlarda olingan ma'lumotlar bilan asoslantirilgan bo'lishi kerak.

22. Radiatsiya va issiqlik ta'sirida reaktor korpusining mo'rtlashish jarayoniga qarshilik ko'rsatishni ta'minlash imkoniyati bo'lmaganda, ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot asosiy metall va reaktor korpuslari payvand choklari metalning mexanik xossalari qiymatlarini tiklashni tashkil etishi yoki qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatini reaktor korpusining mo'rtlashish jarayoniga qarshilik ko'rsatish ta'minlanadigan vaqt bilan cheklashi shart.

23. Reaktor korpusining asosiy metall va payvand choklari metalning mexanik xususiyatlari qiymatlarini tiklash bo'yicha tadbirlarning samaradorligi atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilingunga qadar asoslantirilgan bo'lishi lozim.

24. Reaktor korpusining mo'rtlashishga qarshiligini asoslashda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

ekspluatatsiyaning butun davrida, shu jumladan qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida asosiy metall va payvand choklar metalining radiatsiyaviy va issiqlik ta'sirida mo'rtlashishi;

reaktorning faol zonasining avariya viy sovitish tizimini modernizatsiya qilishning asosiy metall va payvand choklar metalining kritik mo'rtlik haroratining ruxsat etilgan qiymatiga ta'siri;

asosiy metall va payvand choklar metalining kuzatuv namunalarini yoki templetlarini nazorat qilish natijalari;

kompleks tekshiruv o'tkazishda reaktor korpusi metalini nazorat qilish natijalari;

qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida aniqlangan nuqsonlarning ortishi;

reaktor korpusi metalining korroziyaviy shikastlanishi (korroziyaga qarshi qoplama bilan himoyalangan yuzalar uchun).

25. Reaktorlar metall konstruksiyalarining qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddati davomiyligi qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatining oxiriga kelib ekspluatatsiyaviy va seysmik yuklamalarning eng noqulay kombinatsiyasida metall konstruksiyalarning yemirilishga chidamliligini tasdiqlovchi natijalar bilan asoslantirilgan bo'lishi kerak.

26. Reaktor metall konstruksiyalarining yemirilishga qarshiligini asoslashda quyidagilarni hisobga olish zarur:

asosiy metallning va metall konstruksiyalarning payvand choklari metalining mavjud kuzatuv namunalarini, shuningdek atom elektr stansiyasi bloki yoki uning analogining metall konstruksiyalaridan bevosita kesib olingan metall namunalarini nazorat qilish natijalari;

kompleks tekshiruvni o'tkazishda metall konstruksiyalarni nazorat qilish natijalari;

qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida aniqlangan nuqsonlarning ortishi;

ekspluatatsiyaning butun davrida, shu jumladan qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida asosiy metall va metall konstruksiyalarning payvand choklarining radiatsiyaviy va issiqlik ta'sirida mo'rtlashuvi;

ekspluatatsiyaning butun davrida, shu jumladan qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida metall konstruksiyalar devorlarining korroziyaviy yuqqalashuvi.

27. Nazorat o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lgan joylarda reaktor korpusi va himoya korpusining asosiy metali hamda payvand birikmalarining holati tekshirilishi, nazorat o'tkaziladigan joylar va hajmlar asoslantirilgan bo'lishi, reaktor korpusi va himoya korpusini nazorat qilish natijalari qo'shimcha ekspluatatsiya muddatini asoslashda hisobga olinishi kerak.

28. Reaktorlarning xavfsizlik uchun muhim bo'lgan tizimlari va elementlarining qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddati davomiyligi ekspluatatsiyaviy va seysmik yuklamalarning eng noqulay kombinatsiyasida qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddati davrining oxiriga kelib

ushbu tizimlar va elementlarning mustahkamligi va uzoq muddatli mustahkamligi ta'minlanishini asoslash bilan tasdiqlanishi kerak. Bunda, quyidagilarni hisobga olish lozim:

neytron nurlanish, yuqori harorat va sirpanuvchanlik jarayonlarining kompleks ta'sirida reaktor metali va reaktor ichidagi konstruksiyalar xossalari buzilishi;

reaktor metali va reaktor ichidagi konstruksiyalarning deformatsiyalanish qobiliyatining yo'qolishi;

reaktor qurilmasi uskunalari va quvurlari metalining uzoq muddatli mustahkamligi va uzoq muddatli plastiklik xususiyatlarining asoslangan prognoz qiymatlari.

29. Atom elektr stansiyasi blokining qurilish konstruksiyalari, binolari va inshootlarining, shuningdek ular asoslarining qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddati ularning mexanik xavfsizligi ta'minlanishi kerak bo'lgan binolar yoki inshootlarning funksional vazifasi va konstruktiv yechimiga mos keladigan barcha turdagi yuklamalarning eng noqulay kombinatsiyasini hisobga olgan holda quyidagilar bilan tasdiqlanishi kerak:

konstruksiyalarning geometrik o'lchamlari va ularning kesimlari, cho'kishi, egilishlarining haqiqiy qiymatlari;

konstruksiyaning dastlabki taranglash tizimining haqiqiy holati (mavjud bo'lganda);

yoriqlar, sinishlar va mahalliy buzilishlar mavjudligi;

monitoring natijalariga ko'ra yoriqlarning joylashuvi, tabiati va ularning ochilish kengligi;

himoya qoplamalarining holati;

konstruksiyalar va ularning poydevorlari egilishlari va deformatsiyalari;

armaturaning beton bilan ilashishining buzilish belgilari;

armatura uzilishining mavjudligi;

bo'ylama va ko'ndalang armaturalarning ankerlanish holati;

beton va armaturaning korroziya darajasi.

30. Atom elektr stansiyasi bloki elementlarining qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddati ushbu asosiy talablarning 20-bandiga muvofiq aniqlangan elementlarning qoldiq resursidan oshmasligi kerak.

31. Qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatining davomiyligi quyidagilarga asoslangan bo'lishi kerak:

atom elektr stansiyasi blokining atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga muvofiqligini va (yoki) atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklarni bartaraf etishga yoki kompensatsiya qilishga qaratilgan texnik va tashkiliy chora-tadbirlarning yetarililigini tasdiqlash;

atom elektr stansiyasi blokining xavfsizlik uchun muhim bo'lgan tizimlari va elementlari joylashgan binolar, inshootlarning yuk ko'taruvchi konstruksiyalarining qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida texnik holatini baholash, shuningdek, ushbu binolar va inshootlar asoslarining texnik holatini baholash;

atom elektr stansiyasi blokining almashtirilmaydigan elementlari qoldiq resursining qiymatlari;

kompleks tekshiruv davrida resursi aniqlanmagan, atom elektr stansiyasi blokining xavfsizlik uchun muhim bo'lgan almashtiriladigan elementlarining qoldiq resursi qiymatlari;

amalga oshirilgan modernizatsiya va (yoki) tizimlar va elementlarni almashtirishni hisobga olgan holda reaktor qurilmasi va atom elektr stansiyasi loyihalarida asoslangan foydalanish chegaralari va xavfsiz foydalanish shartlariga rioya qilish;

ishlatib bo'lingan yadroviy yoqilg'i va qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida hosil bo'ladigan radioaktiv chiqindilarni xavfsiz saqlash imkoniyatini tasdiqlash.

5-bob. Qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokini ekspluatatsiyaga tayyorlash bo'yicha talablar

32. Qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokini ekspluatatsiyaga tayyorlash jarayonida ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot quyidagilarni bajarishi shart:

ushbu asosiy talablarning 4-bandida ko'rsatilgan atom elektr stansiyasi blokini qo'shimcha muddat davrida ekspluatatsiyaga tayyorlash dasturida nazarda tutilgan tadbirlarni to'liq hajmda amalga oshirish;

amalga oshirilgan modernizatsiya yoki tizimlar va elementlarning bir qismini almashtirishni hisobga olgan holda atom elektr stansiyasi bloki tizimlari va elementlari resursini boshqarish dasturi va ekspluatatsiya hujjatlariga zarur o'zgartirishlar kiritish;

atom elektr stansiyasi bloki xodimlarini qo'shimcha (takroriy qo'shimcha) ekspluatatsiya muddatida blokdan foydalanishning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun qayta tayyorlash.

33. Atom elektr stansiyasi bloki tizimlari va elementlarini almashtirish yoki modernizatsiya qilish loyiha va konstruktorlik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

34. Ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot atom elektr stansiyasi bloki xavfsizligini asoslashni atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalarga muvofiq, tizimlar va elementlarning bir qismini modernizatsiya qilish yoki almashtirishni hisobga olgan holda bajarishi kerak.

35. Qo'shimcha ekspluatatsiya muddatida atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish boshlanishidan oldin ekspluatatsiya qiluvchi tashkilot atom elektr stansiyasi blokining almashtirilgan va modernizatsiya qilingan tizimlari va elementlarining loyiha mezonlari va xususiyatlariga muvofiq ishlashini tasdiqlash uchun zarur ishga tushirish-sozlash ishlarini va sinovlarni o'tkazishi shart.

36. Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirishga tayyorlash bo'yicha ishlarni bajarish atom elektr stansiyasi bloki tizimlari va elementlarining shikastlanishiga yoki ishlash qobiliyati yo'qolishiga, ularning resurslari kamayishiga yoki atom elektr stansiyasi blokidan foydalanish xavfsizligi darajasi pasayishiga olib kelmasligi lozim.

37. Eksploatatsiya qiluvchi tashkilot atom elektr stansiyasi bloki va reaktor qurilmasi loyihalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish asosida atom elektr stansiyasi blokidan xavfsiz foydalanishning atom energiyasidan foydalanish sohasidagi normalar va qoidalar talablariga, tizimlardan (elementlardan) foydalanish bo'yicha qo'llanmalarga (yo'riqnomalarga), loyihaviy va loyihadan tashqari avariyalarda xodimlar (personal)ning harakatlarini belgilovchi yo'riqnomalar va qo'llanmalarga tuzatishlar kiritishi, shuningdek tizimlar va elementlarning pasportlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishi shart.

38. Atom elektr stansiyasi blokini qo'shimcha eksploatatsiya muddatida eksploatatsiyaga tayyorlash ishlari tugallangandan keyin eksploatatsiya qiluvchi tashkilot atom elektr stansiyasi blokining eksploatatsiya muddatini uzaytirishga tayyorligi to'g'risidagi dalolatnomani tuzadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi bilan kelishadi.

6-bob. Yakuniy qoidalar

39. Ushbu asosiy talablarga rioya etilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi.

40. Mazkur asosiy talablarning buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG‘I

619 Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2667-4

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi PF–27-son “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-sentabrdagi 587-son “Nogironlikni belgilash tizimi raqamlashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining 2015-yil 20-martdagi 25-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2667, 2015-yil 17-aprel) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-yil, 15-son, 194-modda) bilan tasdiqlangan Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. XUDAYAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 15-sentabr,
9-son

Kelishildi:

**Ijtimoiy himoya milliy
agentligi direktori**

M. OLLOYOROV

2025-yil 2-sentabr

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 8-oktabrda e‘lon qilingan.

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2025-yil 4-sentabr

*Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri*

B. ZAXIDOV

2025-yil 2-sentabr

O'zbekiston Respublikasi
sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil
15-sentabrdagi 9-son buyrug'iga
ILOVA

Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:
“Mazkur Yo'riqnoma mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomalarini berish tartibini belgilaydi.”.
2. 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:
“4. Mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomalari, qoida tariqasida, davlat sog'liqni saqlash tizimi, shu jumladan, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat tashkilotlariga qarashli davolash-profilaktika muassasalarining davolovchi shifokorlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Yagona tibbiy axborot tizimida (bundan buyon matnda tibbiy axborot tizimi deb yuritiladi) rasmiylashtiriladi.”.
3. 5-banddagi “ma'lumotnomalari berishga” degan so'zlar “ma'lumotnomalarini tibbiy axborot tizimida rasmiylashtirishga” degan so'zlar bilan almashtirilsin.
4. Quyidagi mazmundagi 5¹ va 5²-bandlar bilan to'ldirilsin:
“5¹. Rasmiylashtirilgan mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomalari real vaqt rejimida O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga uzatiladi.
5². Fuqaro mehnatga layoqatsizlik varaqasini yoki mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasini O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabineti orqali yuklab olish imkoniyatiga ega.
Voyaga yetmagan shaxslarga beriladigan mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki mehnatga layoqatsizlik ma'lumotnomasi rasmiylashtirilgan kunning o'zida davolash-profilaktika muassasalari tomonidan ushbu shaxslarga yoki ota-onasi yoxud oilasining boshqa a'zolaridan biriga hamda o'qish (ish) joyiga beriladi.”.
5. 7-bandda:
“Toshkent shahar Sog'liqni saqlash bosh boshqarmasi” va “ma'lumotnomasi berishi” degan so'zlar tegishli ravishda “Toshkent shahar sog'liqni saqlash boshqarmasi” hamda “ma'lumotnomasini elektron axborot dasturida rasmiylashtirishi” degan so'zlar bilan almashtirilsin;
quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to'ldirilsin:

“Kasallik bir oydan oshiq davom etgan holatlarda, olis hududlardagi davolash profilaktika muassasasining davolovchi shifokori bemorni tuman ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasidagi tor soha mutaxassisi ko‘rigi yoki statsionar davolanish uchun yo‘naltiradi.”.

6. 8-bandning ikkinchi xatboshisidagi “67-moddasida” degan so‘zlar “100-moddasida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

7. 12-banddagi “doimiy yashash joyiga” degan so‘zlar “yashash joyiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. 16-bandning birinchi xatboshisidan “yozma ravishda” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

9. 18-bandning ikkinchi xatboshisidan “(095\ x shakl)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

10. 19, 52-bandlar va 10-bob o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

11. 20-bandning birinchi, ikkinchi va uchinchi xatboshilaridan “(094\ x shakl)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

12. 21 va 22-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“21. Alkogol mahsulotlarini iste‘mol qilish mehnatga vaqtincha layoqatsizlikning davom etishiga sabab bo‘layotganligi aniqlanganda, mehnatga layoqatsizlik varaqasining “Tartib buzilganligi to‘g‘risida qaydlar” satriga tegishli yozuv kiritilgan holda uning muddati shu kundan boshlab to‘xtatiladi va bemorga mastlik holati bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasi rasmiylashtiriladi.

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-fevraldagi 62-son qarori bilan tasdiqlangan Tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari to‘g‘risidagi nizomning 1¹-ilovasidagi Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalariga yo‘llashdan oldin davolanish lozim bo‘lgan muddatlar, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro‘yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni elektron belgilash mezonlari asosida bemor tegishli tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga (bundan buyon matnda TIEK deb yuritiladi) yuboriladi.

Nogironlik belgilari aniq ko‘rinib turgan shaxslar, anatomik nuqsonlari bo‘lgan, shuningdek noxush klinik prognozli bemorlar yuqoridagi Fuqarolarni tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalariga yo‘llashdan oldin davolanish lozim bo‘lgan muddatlar, nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar ro‘yxati va ushbu kasalliklarda nogironlikni elektron belgilash mezonlarida ko‘rsatib o‘tilgan muddatlar o‘tmasdan turib ham tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyasiga yuborilishi mumkin. Ushbu shaxslarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazishga qabul qilish to‘g‘risidagi qaror TIEK raisi tomonidan qabul qilinadi.”.

13. 24-bandning birinchi xatboshisidagi “ikki hafta muddatda” degan so‘zlar “yigirma kalendar kun muddat ichida” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

14. 33, 34, 35-bandlardan “(138\ x shakl)” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

15. Quyidagi mazmundagi 34¹-band bilan to‘ldirilsin:

“34¹. Statsionar sharoitda faoliyat yuritayotgan davolash-profilaktika muassasalarida nogironligi bo‘lgan bolani parvarishlayotgan uning otasi yoki onasiga (ularning o‘rnini bosuvchi shaxsga) yoxud oilaning boshqa a‘zosiga mazkur davr uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi beriladi.”.

16. 36-banddan “yoki o‘n olti yoshga to‘lmagan nogironligi bo‘lgan bolani” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

17. 37-band va 46-bandning ikkinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatining” degan so‘zlar “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

18. 43-banddagi “218-moddasiga” degan so‘zlar “364-moddasiga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

19. 48-bandning ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mastlik holati bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasi mazkur Yo‘riqnomaning 2-ilovasiga, ta‘lim olayotgan shaxslar uchun mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasi 3-ilovasiga, bemor bolani parvarishlash uchun mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasi 4-ilovasiga muvofiq shaklda rasmiylashtiriladi. Ushbu Yo‘riqnomaning 2-bandida nazarda tutilgan boshqa holatlar bo‘yicha mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomalari tibbiy hujjatlar asosida erkin shaklda beriladi”.

20. 49-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“49. Mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomalari pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi, tug‘ilganlik guvoohnomasi (voyaga yetmagan shaxslar uchun) asosida qisqartirishlarsiz rasmiylashtiriladi.”.

21. 50-bandda:

birinchi xatboshidagi “Yakuniy tashxis” degan so‘zlar “Yakuniy tashxis (Nomi va KXT-10 kodi)” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

ikkinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mehnatga layoqatsizlik varaqasi va mehnatga layoqatsizlik ma‘lumotnomasining shifr raqamining ketma-ketligi har yili yangidan boshlanadi va Tibbiy axborot tizimiga quyidagi ko‘rinishda kiritiladi:

1) Toshkent shahri — 01TSN XXXXXX25 (shrift oxiridagi ikkita son mehnatga layoqatsizlik varaqasi rasmiylashtirilgan yil);

2) Qoraqalpog‘iston Respublikasi — 02QR XXXXXX25;

3) Andijon viloyati — 03AV XXXXXX25;

4) Buxoro viloyati — 04BV XXXXXX25;

5) Jizzax viloyati — 05JV XXXXXX25;

6) Qashqadaryo viloyati — 06QV XXXXXX25;

7) Navoiy viloyati — 07NvV XXXXXX25;

8) Namangan viloyati — 08NmV XXXXXX25;

9) Samarqand viloyati — 09SaV XXXXXX25;

10) Sirdaryo viloyati — 10SiV XXXXXX25;

11) Surxondaryo viloyati — 11SuV XXXXXX25;

12) Toshkent viloyati — 12TV XXXXXX25;

13) Farg‘ona viloyati — 13FV XXXXXX25;

14) Xorazm viloyati — 14XV XXXXXX25 .”;

to‘rtinchi xatboshidagi “Tartibning buzilishi” degan so‘zlar “Tartib buzilganligi to‘g‘risidagi qaydlar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

22. 51-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“51. Mehnatga layoqatsizlik varaqasi va mehnatga layoqatsizlik ma’lumotnomasi davolovchi shifokor tomonidan rasmiylashtirilganidan so’ng, davolash-profilaktika muassasasining vakolatli shaxsi (bosh shifokor, bosh shifokor o’rinbosari yoki mudir) tomonidan elektron imzo bilan tasdiqlanadi.

Mehnatga vaqtincha layoqatsizlik davri uzaytirilganda tibbiy axborot tizimi orqali mehnatga vaqtincha layoqatsizlik davri ham uzaytiriladi hamda uzaytirishning sabablari ko’rsatiladi.

Fuqaro shaxsiy ma’lumotlar yoki unga qo’yilgan tashxisdagi texnik xatolik yuzasidan mazkur mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma’lumotnomalari rasmiylashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yozma yoki elektron tarzda murojaat qilganda, mazkur murojaat davolash-profilaktika muassasasiga kelib tushgan kundan e’tiboran bir ish kuni ichida tibbiy axborot tizimi orqali mehnatga layoqatsizlik varaqalari va mehnatga layoqatsizlik ma’lumotnomalariga tuzatishlar kiritiladi hamda bu haqda tibbiy axborot tizimiga tegishli ma’lumotlar kiritiladi.”.

23. 1 — 4-ilovalar mazkur o’zgartirish va qo’shimchalarning 1 — 4-ilovalariga* muvofiq tahrirda bayon etilsin.

* Ilovalar «Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi»da e’lon qilingan.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI IJTIMOYIY HIMOYA MILLIY
AGENTLIGI DIREKTORINING
BUYRUG‘I

620 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 19-bandiga o‘zgartirish kiritish haqida*

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3360-2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF–17-son “Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini moliyalashtirish tartib-taomillarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2025-yil 8-maydagi PF–84-son “Kambag‘al oilalarni davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlariga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi direktorining 2022-yil 31-martdagi 52-ICH-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3360, 2022-yil 1-aprel) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 01.04.2022-y., 10/22/3360/0260-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 19-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-martdagi PF–6195-son “Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash markazlari va “Muruvvat” internat uylari tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmonining 12¹-bandiga muvofiq, pullik xizmatlar uchun to‘langan mablag‘larning 2 foizi Agentlikning byudjetdan tashqari hisobvarag‘iga yo‘naltiriladi hamda Agentlik direktori ushbu mablag‘larni Agentlik tizimidagi tashkilotlar o‘rtasida taqsimlash huquqiga ega.

Pullik xizmatlar uchun to‘langan mablag‘larning 2 foizini Agentlikka yo‘naltiruvchi tibbiy-ijtimoiy muassasalar ro‘yxati Agentlik direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Pullik xizmatlar uchun to‘langan mablag‘larning 2 foizi Agentlikning byudjetdan tashqari hisobvarag‘iga yo‘naltirilishi har oy uchun keyingi oyning 5-sanasiga qadar amalga oshiriladi.”.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishilgan.

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 8-oktabrda e‘lon qilingan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Direktor

M. OLLOYOROV

Toshkent sh.,
2025-yil 4-oktabr,
2025/1-son

Kelishildi:

Iqtisodiyot va moliya vaziri

D. KUCHKAROV

2025-yil 8-sentabr

Sog'liqni saqlash vaziri

A. XUDAYAROV

2025-yil 4-sentabr

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRINING
BUYRUG‘I**621** **Avtomototransport vositalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazishni (qayd etishni) tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish haqida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2050-5*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 31-avgustdagi 683-son “Avtomototransport vositalarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va ularga ro‘yxatdan o‘tkazish davlat raqami belgilarini berish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2009-yil 13-oktabrdagi 107-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2050, 2009-yil 30-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2009-y., 50-51-son, 545-modda) bilan tasdiqlangan Avtomototransport vositalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazishni (qayd etishni) tashkil etish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHPULATOV

Toshkent sh.,
2025-yil 5-sentabr,
445-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 10-oktabrda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vazirining 2025-yil 5-sentabrdagi
445-son buyrug'iga
ILOVA

**Avtomototransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazishni
(qayd etishni) tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi
yo'riqnomaga kiritilayotgan o'zgartirishlar va qo'shimcha**

1. Muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Ushbu Yo'riqнома avtomototransport vositalarini (tirkamalarini, yarim tirkamalarini) (bundan buyon matnda transport vositasi deb yuritiladi) qayta ro'yxatdan o'tkazish (qayd etish), shuningdek, ularning yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini qayta tiklash va almashtirish tartibini belgilaydi.”.

2. 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Transport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazish (qayd etish) Qoraqalpog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Toshkent shahar va Toshkent viloyati ichki ishlar bosh boshqarmalari va viloyatlar ichki ishlar boshqarmalari Jamoat xavfsizligi xizmati yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalarining ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish bo'limlari, tumanlararo ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish bo'linmalari yoki tumanlararo ro'yxatdan o'tkazish va imtihon olish guruhlarini (bundan buyon matnda RO'vaIOB deb yuritiladi) tomonidan amalga oshiriladi.”.

3. 5, 8 va 13-bandlardagi “RIB (TRIB)larga” degan so'z “RO'vaIOBlarga” degan so'z bilan almashtirilsin.

4. 6-banddagi “RIB (TRIB)lar” degan so'z “RO'vaIOBlar” degan so'z bilan almashtirilsin.

5. 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. RO'vaIOB tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini qayta tiklash bo'yicha murojaatlari umumlashtiriladi hamda bir oyda bir marta O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo'l harakati xavfsizligi xizmatiga (bundan buyon matnda IIV JXD YHXX deb yuritiladi) buyurtma rasmiylashtiriladi.

Bunda, RO'vaIOB tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini qayta tiklash uchun ariza berganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar IIV JXD YHXXning Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritiladi.”.

6. 10-bandda:

ikkinchi va uchinchi xatboshilar chiqarib tashlansin;

to'rtinchi va beshinchi xatboshilar tegishli ravishda ikkinchi va uchinchi xatboshilar deb hisoblansin.

7. 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Buyurtmalar asosida yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari IIV JXD YHXX qoshidagi “O'zavtomotobelgi” davlat unitar korxonasida (bundan buyon matnda Davlat

unitar korxonada deb yuritiladi) qayta ishlab chiqariladi. Buyurtmalar Davlat unitar korxonasiga kelib tushgandan keyin mazkur Yo'riqnomaning 10-bandida ko'rsatilgan hujjatlar tekshiriladi.”.

8. 14-banddagi “IIV YHXBB” degan so'zlar “IIV JXD YHXX” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

9. Quyidagi mazmundagi 14¹ va 14²-bandlar bilan to'ldirilsin:

“14¹. Qayta tiklangan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari transport vositalarining egalariga topshirilayotganda yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari RO'vaIOBlarga qaytariladi hamda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuziladi.

14². RO'vaIOBlar qabul qilib olingan yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari va qabul qilish-topshirish dalolatnomasini Davlat unitar korxonasiga yuboradi.

Davlat unitar korxonasida yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining haqiqiy holati ko'rib chiqiladi.

Yaroqsiz holga kelib qolgan, shikastlangan yoki buzilgan ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari yo'q qilinadi va bu haqda tegishli dalolatnoma tuziladi.”.

10. 15-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“15. Yangi ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari topshirilgan kundan boshlab o'ttiz kun ichida mexanik ravishdagi deformatsiya ta'siri natijasida yuzaga kelmagan ishlab chiqarish kamchiliklari oqibatida quyidagi yaroqsiz holatlarga kelsa, bunday ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini qayta tiklash bepul amalga oshiriladi:

ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilari ko'rinmaydigan darajaga kelib qolganda;

himoya elementlari va yorug'lik qaytaruvchi qoplamalari o'z xususiyatini yo'qotganda;

ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarining joylashuvidagi o'zgarishlar (siljishlar) kuzatilganda.

Boshqa holatlarda ro'yxatdan o'tkazish davlat raqami belgilarini qayta tiklash to'lov asosida amalga oshiriladi.”.

11. 16 va 17-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

12. 17¹-bandning birinchi xatboshisidagi “IIV YHXBBga” degan so'zlar “IIV JXD YHXXga” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

13. 17²-bandning birinchi xatboshidagi “IIV YHXBB” degan so'zlar “IIV JXD YHXX” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRINING
BUYRUG‘I

622 “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2730-1*

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 16-yanvardagi O‘RQ–896-son “O‘zbekiston Respublikasi adliya organlari tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi, 2025-yil 7-fevraldagi O‘RQ–1025-son “Korporativ munosabatlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi va 2025-yil 10-iyuldagi O‘RQ–1074-son “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qonunlariga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015-yil 19-oktabrdagi 92-son “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 2730, 2015-yil 19-noyabr) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 46-son, 589-modda) ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Markaziy bank, Soliq qo‘mitasi va O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

D. KUCHKAROV

Toshkent sh.,
2025-yil 19-sentabr,
289-son

Kelishildi:

Tashqi ishlar vaziri

B. SAIDOV

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 13-oktabrda e‘lon qilingan.

2025-yil 18-sentabr

**Kambag'allikni qisqartirish
va bandlik vaziri**

B. ZAXIDOV

2025-yil 8-sentabr

Markaziy bank raisi

T. ISHMETOV

2025-yil 29-avgust

Soliq qo'mitasi raisi

Sh. KUDBIYEV

2025-yil 3-sentabr

**O'zbekiston Kasaba uyushmalari
Federatsiyasi Kengashi raisi**

K. RAFIKOV

2025-yil 6-sentabr

O'zbekiston Respublikasi
iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil
19-sentabrdagi 289-son buyrug'iga
ILOVA

**“Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari
O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda
xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lar berish tartibi
to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa kiritilayotgan
o'zgartirishlar**

1. Buyruqda:

nomidagi va 1-banddagi “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar” degan so'zlar “Davlat organlari va tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin; muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 5-martdagi PQ–2142-son “Mansabdor shaxslarning xorijiy mamlakatlarga chiqish tartibini takomillashtirish choralari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**”.

2. Nizomda:

1) nomidagi “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar” degan so'zlar “Davlat organlari va tashkilotlari” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

2) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Nizom davlat organlari va tashkilotlari (bundan buyon matnda tashkilot deb yuritiladi) xodimlari O'zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag'lar berish tartibini belgilaydi.”;

- 3) 19-band o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;
- 4) 20-bandning birinchi xatboshisidagi “Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining” degan so‘zlar “tashkilotlarning” degan so‘z bilan almashtirilsin;
- 5) 29-bandning uchinchi xatboshisidagi “vaqtinchalik propiska (ro‘yxat olinganlik)” degan so‘zlar “turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatga olinganlik” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;
- 6) 35-bandning birinchi xatboshisidagi “Prezidenti Devoni” degan so‘zlar “Prezidenti Administratsiyasi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;
- 7) 1-ilovaning ilova belgisi va nomidagi “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar” degan so‘zlar “Davlat organlari va tashkilotlari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;
- 8) 2-ilova mazkur o‘zgartirishlarning ilovasiga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

“Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa kiritilayotgan o‘zgartirishlarga
ILOVA

“Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safarlarida xorijiy valyutadagi sutkalik xarajatlar me‘yorlariga belgilanadigan USTAMALAR

T/r	Xizmat safariga yuboriladigan mansabdor shaxslar toifasi	Ustama miqdori (foizda)
1.	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri, O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari	30

2.	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Raisi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yordamchisi, maslahatchisi, vakili, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari kotibiyati mudiri, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari va maslahatchisi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti protokoli rahbari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departament boshlig'i	25
3.	Vazir hamda maqomi, tibbiy va transport xizmat ko'rsatish shartlari bo'yicha unga tenglashtirilgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalarining raislari, O'zbekiston Respublikasining Favqulodda va Muxtor Elchisi, O'zbekiston Respublikasi vakili, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti protokoli rahbari o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi departament boshlig'ining o'rinbosari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi ishlar boshqaruvchisi, Komplayens xizmati boshlig'i, Kanselyariya mudiri hamda sho'ba mudiri, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyati rahbari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari	20
4.	Vazir o'rinbosari hamda maqomi, tibbiy va transport xizmat ko'rsatish shartlari bo'yicha unga tenglashtirilgan shaxs, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi muxbir a'zosi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi qo'mitalari va komissiyalari raisi o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va Vazirlar Kengashi raisining o'rinbosari, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi bosh inspektori	15

”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TRANSPORT VAZIRINING
BUYRUG‘I**623 O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk tashish qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3457-1*

O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 31-iyuldagi 480-son “Temir yo‘l transporti infratuzilmasi xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi qaroriga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi transport vazirining 2023-yil 5-avgustdagi 22-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3457, 2023-yil 21-sentabr) (Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 23.09.2023-y., 10/23/3457/0724-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk tashish qoidalariga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Mazkur buyruq ilovasining 1-bandi 2026-yil 2-fevraldan boshlab kuchga kiradi.

Vazir

I. MAXKAMOV

Toshkent sh.,
2025-yil 22-sentabr,
13-son

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 9-oktabrda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
transport vazirining 2025-yil 22-sentabrdagi
13-son buyrug'iga
ILOVA

O'zbekiston Respublikasi temir yo'l transportida yuk tashish qoidalariga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. 1-bandda:

sakkizinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“temir yo'l transporti infratuzilmasi — texnologik majmua bo'lib, ushbu majmua faoliyatini ta'minlovchi temir yo'llarni, temir yo'l stansiyalarini, elektr ta'minoti qurilmalarini, aloqa tarmoqlarini, signalizatsiya, markazlashtirish va bloklash tizimlarini, axborot majmualarini, harakatni boshqarish tizimini, binolar, inshootlar, qurilmalar, jihozlar va uskunalarni o'z ichiga oladi;”;

o'ninchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“temir yo'l stansiyasi — poyezdlarni qabul qilish, jo'natish, kesishtirish va quvib o'tish operatsiyalarini, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini qabul qilish, berish hamda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish operatsiyalarini, poyezdlarni tarqatish va tuzish bo'yicha manyovr ishlarini hamda poyezdlar bilan texnik operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradigan, asosiy temir yo'llardan tashqari temir yo'llarning qo'shimcha guruhlariga ega bo'lgan alohida punkt;”.

2. 11-bandning beshinchi xatboshisidagi “, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, texnik ekspluatatsiya norma va qoidalari)” degan so'zlar “ va standartlar) hamda temir yo'l transportidan texnik jihatdan foydalanish qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

3. 40-bandning 4-kichik bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4) fitosanitariya talablari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari, ekologik normalar va qoidalar, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalariga rioya qilishni talab qiladigan yuklarni ushbu norma va qoidalarga rioya qilishni talab qilmaydigan yuklar bilan birga tashish;”.

4. 340-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“340. Go'sht va go'sht mahsulotlarini tashish oziq-ovqat xavfsizligiga doir qonunchilik hujjatlari hamda amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.”.

5. 486-bandning birinchi xatboshisidagi “, standartlashtirishga doir normativ hujjatlar, texnik foydalanish (norma va qoidalari)” degan so'zlar “va standartlar) hamda temir yo'l transportidan texnik jihatdan foydalanish qoidalari” degan so'zlar bilan almashtirilsin.

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ АДЛИЯ ВАЗИРИНИНГ
БУЙРУҒИ**624** Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш,
қабул қилиш, ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан
ўтказиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил
9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3686*

Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 8 сентябрдаги ПФ–161-сон «Ислохотларни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш самарадорлигини ошириш ҳамда ижтимоий муносабатларни тартибга солишда вазирлик ва идораларнинг масъулияти ва ташаббускорлигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2018 йил 13 апрелдаги ПҚ–3666-сон «Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 9 октябрдаги 469-сон «Вазирликлар ва идоралар меъёрий ҳужжатларининг қонунийлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорига мувофиқ **буюраман:**

1. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш, қабул қилиш, ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш қоидалари 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар 2-иловага мувофиқ ўз кучини йўқотган деб топилсин.

3. Мазкур буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

Вазир

А. ТАШКУЛОВ

Тошкент ш.,
2025 йил 9 октябрь,
23-мҳ-сон

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 9 октябрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг 2025 йил 9 октябрдаги
23-мх-сон буйруғига
1-ИЛОВА

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш, қабул қилиш, ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш ҚОИДАЛАРИ

Мазкур Қоидалар вазирликлар ва идоралар томонидан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш, расмийлаштириш, келишиш, қабул қилиш, шунингдек қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш ҳамда уларнинг кучга кириш тартибини белгилайди.

1-боб. Умумий қоидалар

1-§. Асосий тушунчалар

1. Мазкур Қоидаларда қуйидаги тушунчалар қўлланилади:

қонунчилик техникаси — ҳуқуқ ижодкорлиги фаолиятини ташкил қилиш ва амалга ошириш учун фойдаланиладиган қоидалар, методлар, воситалар ва усуллар (инструментлар) мажмуи;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат — қонунчиликка мувофиқ вазирлик ва идора томонидан қабул қилинган, умуммажбурий давлат кўрсатмалари сифатида ҳуқуқий нормаларни белгилашга, ўзгартиришга ёки бекор қилишга қаратилган расмий ҳужжат;

Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва келишишнинг ягона электрон тизими (бундан буён матнда электрон тизим деб юритилади) — идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш, келишиш, қабул қилиш, шунингдек қабул қилинган ҳужжатларни ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказишни таъминловчи электрон тизим;

ҳуқуқий экспертиза — идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга, мамлакатда амалга ошириладиган ислохотларнинг мақсад ва вазифаларига, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқлиги, шунингдек ҳавола қилувчи нормалар қўлланилишининг асослилиги ва мақсадга мувофиқлигини текширишни амалга ошириш.

2. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини ишлаб чиқиш, келишиш, қабул қилиш, шунингдек қабул қилинган ҳужжатларни ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш фақат электрон тизим орқали амалга оширилади, бундан қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ давлат сир

ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мустасно.

3. Вазирлик ва идоралар Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2025 йил 8 сентябрдаги ПФ–161-сон «Ислохотларни ҳуқуқий жиҳатдан таъминлаш самарадорлигини ошириш ҳамда ижтимоий муносабатларни тартибга солишда вазирлик ва идораларнинг масъулияти ва ташаббускорлигини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 9 октябрдаги 469-сон «Вазирликлар ва идоралар меъёрий ҳужжатларининг қонунийлигини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори, шунингдек бошқа қонунчилик ҳужжатлари, шу жумладан мазкур Қоидаларга мувофиқ идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қиладилар.

Мазкур Қоидаларда идоралар деганда тегишли соҳада давлат сиёсатини амалга ошириш бўйича ваколатлар берилган республика ижро этувчи ҳокимият органлари, шу жумладан вазирлик ва идоралар бўйсунувидаги тегишли соҳада давлат сиёсатини юритиш ваколати юклатилган қўмита, агентлик ва инспекциялар ёхуд махсус ваколатли давлат органлари тушунилади.

2-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш бўйича ваколатлар

4. Вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари асосида ва уларни ижро этиш учун қабул қилади.

Вазирлик ва идоралар, агар уларга қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари билан тегишли соҳада давлат сиёсатини амалга ошириш бўйича ваколатлар берилган бўлса, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиши мумкин.

Вазирлик ва идоралар бўйсунувидаги қўмита, агентлик ва инспекциялар, агар уларга қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари билан тегишли соҳада давлат сиёсатини юритиш ваколати юклатилган бўлса, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиши мумкин. Бунда зарур ҳолларда, вазирлик ва идоралар бўйсунувидаги қўмита, агентлик ва инспекциялар ушбу ҳужжатлар лойиҳаларини юқори турувчи вазирлик ёки идора билан ҳам келишади.

Вазирлик ва идораларнинг таркибий бўлинмалари ва ҳудудий органлари идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилишга ҳақли эмас. Вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш бўйича ваколатни бошқа органларга, шунингдек ўзларининг тизими ёки ташкилий бўйсунувига кирадиган ижро этувчи ҳокимият органлари, таркибий бўлинмалари ҳамда ҳудудий органларига беришга ҳақли эмас.

5. Вазирлик ва идоралар давлат сиёсатини амалга ошириш ваколати доирасида ҳуқуқий тартибга солишни талаб қиладиган масалалар келиб чиққан тақдирда, тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ўз вақтида қабул қилишлари керак.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги вазирлик ва идораларга тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш зарурлиги тўғрисида, уни қабул қилиш муддатини кўрсатган ҳолда тақдимнома киритишга ҳақлидир.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш муддати, агар қонун ҳужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамасининг қарорларида бундан кўп муддат белгиланмаган бўлса, икки ойдан ошмаслиги лозим.

6. Ҳуқуқий нормаларни идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат бўлмаган ҳужжатларга (шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария ҳамда ветеринария-санитария қоидалари ва нормалари, хатлар, телефонограммалар, хусусий масалалар бўйича тушунтиришлар, яқка тартибдаги хусусиятга эга ҳужжатлар ва бошқаларга) киритилишига йўл қўйилмайди (бундан ушбу банднинг иккинчи хатбошисида назарда тутилган ҳолатлар мустасно). Умуммажбурий тусга эга бўлмаган, лекин умуммажбурий давлат кўрсатмалари сифатида ҳуқуқий нормаларни ўз ичига олган ҳужжатлар бекор қилиниши лозим ва қўлланилмайди.

Бунда санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, фито-санитария талаблари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария ҳамда ветеринария-санитария қоидалари ва нормаларини халқаро стандартларга мослаштириш жараёнида уларга ҳуқуқий нормаларни киритишга йўл қўйилади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги вазирлик ва идоралар томонидан қабул қилинган давлат рўйхатидан ўтмаган норматив-ҳуқуқий тусга эга бўлган ҳужжатларни бекор қилиш ва ижродан чақириб олиш тўғрисида тақдимнома киритишга ҳақли.

Вазирликлар ва идоралар ўн кун муддатда давлат рўйхатидан ўтмаган норматив-ҳуқуқий тусга эга бўлган ҳужжатларни бекор қилиш ва ижродан чақириб олиши ҳамда бу ҳақда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига ахборот бериши шарт.

3-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг турлари ва амал қилиш муддатлари

7. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазкур Қоидаларнинг 1 — 14-иловаларига* мувофиқ буйруқ ва қарорлар тарзида қабул қилинади.

8. Буйруқлар вазирлик ва идора номидан қарор қабул қилиш яқка тартибда амалга ошириладиган вазирлик ёки идоралар раҳбарлари томонидан қабул қилинади.

* 1 — 14-иловалар «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

9. Қарорлар идоралар номидан қарор қабул қилиш коллегиял органлари томонидан амалга ошириладиган идоралар томонидан қабул қилинади.

Икки ёки ундан ортиқ вазирлик ва идораларнинг идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари қарорлар тарзида қабул қилинади.

10. Буйруқ ва қарорлар бошқа ташкилотлар билан келишилган ҳолда қабул қилиниши мумкин.

11. Буйруқлар ва қарорлар билан мазкур Қоидаларнинг 1 — 5-иловаларига мувофиқ ушбу буйруқ ёки қарорнинг таркибий қисми бўлган низомлар, қоидалар, йўриқномалар ва бошқа ҳужжатлар тасдиқланиши мумкин.

Битта буйруқ ёки қарор билан бир нечта низомлар, қоидалар, йўриқномалар тасдиқланишига йўл қўйилмайди.

12. Низомларнинг асосий мазмуни умумий белгилар асосида бирлаштирилган муносабатлар мажмуини тартибга солишга қаратилган ўзаро тизимли боғланган қоидаларни белгилашни назарда тутати.

13. Қоидаларнинг асосий мазмуни аниқ муносабатларни тартибга солишга қаратилган алоҳида ҳуқуқий нормаларни белгилашни назарда тутати.

14. Йўриқномаларнинг асосий мазмуни қонунчилик ҳужжатлари қоидаларини қўллашнинг аниқлаштирувчи жиҳатларини белгилашни назарда тутати.

15. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар муайян муддатга (вақтинчалик) ёки номуайян муддатга қабул қилиниши мумкин.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг амал қилиш муддати бутун ҳужжат ёки унинг бир қисми учун белгиланиши мумкин. Бундай ҳолда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёхуд унинг бир қисми қайси муддатга ёки қандай ҳодиса юз бергунига қадар ўз кучини сақлаб қолиши кўрсатилиши керак.

16. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг амал қилиш муддати:

а) аниқ сана билан;

б) муайян ҳодисанинг юз бериши ёхуд идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг қабул қилинишидан кўзланган мақсадга эришилганлиги билан чегараланиши мумкин.

2-боб. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш

1-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг тайёрланишини ташкил этиш

17. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлаш вазирлик ва идораларнинг бир ёки бир нечта таркибий бўлинмаларига, уларнинг вазибалари ва ваколатларини ҳисобга олган ҳолда, юклатилади. Бунда кўрсатилган лойиҳанинг тайёрланиши учун масъул бўлган мансабдор шахслар доираси, уни тайёрлаш муддати, зарурат бўлган тақдирда эса, мазкур ишга жалб қилинадиган ташкилотлар аниқланади.

18. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини тайёрлаш учун ишчи гуруҳлар тузилиши мумкин.

19. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси вазирлик ва идораларнинг юридик хизмати томонидан ҳуқуқий экспертизадан ўтказилиши шарт.

20. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси устидаги иш жараёнида лойиҳа мавзусига оид Ўзбекистон Республикасининг қонунчилик ҳужжатлари, бошқа давлатларнинг қонунчилик йўли билан тартибга солиш тажрибаси ва қонунчилик ҳужжатлари, халқаро шартномалар ва бошқа ҳужжатлар ўрганилади, тегишли қонунчилик ҳужжатларини қўллаш амалиёти, кўриб чиқиладиган масала бўйича илмий адабиётлар ва оммавий ахборот воситаларининг материаллари, шунингдек агар ўтказилган бўлса, ижтимоий ва бошқа тадқиқотлар маълумотлари таҳлил қилинади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси мазкур Қоидаларнинг 22-бандида назарда тутилган ҳуқуқий нормалар мавжудлиги бўйича ҳам ўрганилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси ишлаб чиқилишидан олдин, унинг тартибга солиш таъсирини баҳолашдан ўтказиш доирасида ҳужжатни қабул қилишнинг яққол зарурати ва уни қабул қилмасдан бошқа муқобил ечимлар орқали муаммони ҳал қилишнинг имкониятлари ўрганилиши шарт.

21. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, мамлакатда амалга ошириладиган ислохотларнинг мақсад ва вазифаларига, шунингдек қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқ бўлиши шарт.

22. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда:

коррупция кўринишлари ва бошқа ҳуқуқбузарликлар содир этилиши учун шароит яратадиган;

жинси бўйича бевосита ёки билвосита камситиш имконини яратадиган;

ҳўжалик бошқаруви органлари ваколатига кирувчи масалалар ва корпоратив муносабатларни тартибга соладиган;

амалдаги тартиб-таомилларни, шу жумладан тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш тартиб-таомилларини мураккаблаштирадиган;

фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини чеклайдиган;

жисмоний ва юридик шахсларга янги имтиёз ва жавобгарлик чораларини ҳамда асосланмаган қўшимча харажат ва тўловларни белгилайдиган;

янги турдаги солиқ ва йиғимларни, лицензиялаш, рухсат бериш ва хабардор қилиш тартиб-таомилларини жорий этадиган;

ортиқча маъмурий ва бошқа чеклашларни назарда тутадиган ҳуқуқий нормалар киритилиши тақиқланади.

2-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тузилиши

23. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тузилиши ҳуқуқий тартибга солиш предметининг изчил, мантиқан ривожланиб бориши ва ёритилишини, шунингдек бўлажак ҳужжат бир хилда тушунилиши ва қўлланилишини таъминлаши лозим.

24. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат унинг мазмунига мувофиқ бўлган ҳамда тартибга солиш предметини акс эттирувчи қисқа номга эга бўли-

ши лозим. Хужжат номи аниқ, равон ва имкон қадар ахборотга бой бўлиши лозим.

Агар буйруқ ёки қарор билан низом, қоидалар, йўриқнома ёки бошқа хужжат тасдиқланадиган бўлса, мазкур Қоидаларнинг 1 — 5-иловаларига мувофиқ шакл бўйича буйруқ ёки қарорнинг номида ушбу хужжатларнинг тасдиқлангани кўрсатилиши лозим.

25. Идоравий норматив-ҳуқуқий хужжатни қабул қилишдан кўзланган мақсад ва сабабларни тушунтириш учун лойиҳада кириш қисми — муқаддима берилиши мумкин.

Муқаддимада идоравий норматив-ҳуқуқий хужжатни қабул қилишнинг сабаблари, мақсадлари ва вазифалари кўрсатилади, шунингдек қонун хужжатлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини (уларнинг моддалари ёки бандларини) бажариш юзасидан ёки улар асосида қабул қилинаётганлиги кўрсатилиши шарт. Бунда норматив-ҳуқуқий хужжатлар турлари уларнинг юридик кучига нисбатан кўрсатилиши керак.

Муқаддима ҳуқуқий нормаларни ўз ичига олмаслиги, бандларга бўлинмаслиги ва рақамланмаслиги керак.

26. Ҳуқуқий нормалар араб рақамларида белгиланиб, нуқта қўйилган бандлар кўринишида баён қилинади ва сарлавҳага эга бўлмайди. Идоравий норматив-ҳуқуқий хужжат бандлари изчил кетма-кетликда рақамланиши керак. Бандлар доирасимон қавслар билан беркитиладиган кичик ҳарфлар ёки рақамлар кўринишидаги кичик бандларга ҳамда хатбошиларга бўлиниши мумкин.

27. Идоравий норматив-ҳуқуқий хужжатда қўйидагиларга:

иккитали рақамлар ва (ёки) ҳарфларни ишлатишга (масалан, «1.1», «5.1.1», «1.а», «а.а» ва ҳ.к.);

бир вақтнинг ўзида кичик бандларни ва мустақил (кичик бандлар билан боғланмаган) хатбошиларни баён этишга;

хатбошилар бошланишида дефис ёки бошқа белгилар ишлатишга йўл қўйилмайди.

28. Ҳажмига кўра идоравий норматив-ҳуқуқий хужжат камайиб борувчи қўйидагича тузилмавий бирликларга бўлинади:

бўлимлар;

боблар;

параграфлар;

бандлар;

кичик бандлар;

хатбошилар. Иккинчи ва кейинги хатбошиларни бўлишга йўл қўйилмайди.

Бўлимлар рим, боблар эса араб рақамлари билан рақамланади ва сарлавҳаларга эга бўлади. Параграфлар «§» белгиси билан белгиланади, араб рақамлари билан рақамланади ва сарлавҳаларга эга бўлади.

29. Қўйидаги тузилмавий бирликлар:

агар идоравий норматив-ҳуқуқий хужжатда боблар бўлмаса, бўлим;

агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда банд бўлмаса, кичик банд ва хатбоши киритилишига йўл қўйилмайди.

3-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг мазмунини баён этиш

30. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ҳар бир банди, қоида тариқасида, битта ҳуқуқий нормани ўз ичига олиши ҳамда тўлиқ ва тугалланган мазмунга эга бўлиши керак.

31. Зарур ҳолда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда юқори юридик кучга эга бўлган қонунчилик ҳужжатининг айрим қоидалари мазкур ҳужжатга ҳавола қилинган ҳолда айнан такрорланади.

Юқори юридик кучга эга бўлган қонунчилик ҳужжатларининг айрим қоидаларини такрорлашга ушбу ҳужжатларга ҳаволалар қўллаш билан масалани тўлароқ баён этиш учунгина йўл қўйилиши мумкин.

32. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда, қоида тариқасида, бошқа идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ҳуқуқий нормалари қайта айнан такрорланмайди.

33. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда унинг бошқа бандларига, шунингдек бошқа қонунчилик ҳужжатларига ҳавола қилиш уларнинг ўзаро алоқасини кўрсатиш ёки такрорланишларнинг олдини олиш учунгина йўл қўйилади.

34. Қонунчилик ҳужжатида ҳавола қилинган ҳолларда мазкур Қоидаларнинг 1 — 14-иловаларига мувофиқ унинг тури, реквизитлари ва номи ҳам кўрсатилиши шарт. Бунда бошқа идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ҳавола қилинганда, унинг номи, давлат рўйхатидан ўтказишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан берилган рўйхатдан ўтказиш рақами, давлат рўйхатидан ўтказиш санаси кўрсатилади.

35. Давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этилган ҳужжатда мавжуд бўлмаган қонунчилик ҳужжатларига, Ўзбекистон Республикаси учун кучга кирмаган халқаро шартномаларга, давлат рўйхатидан ўтмаган умуммажбурий тусдаги ҳужжатга, шунингдек ўз кучини йўқотган деб топилган ҳужжатга ҳавола қилишга йўл қўйилмайди.

Вазирлик ва идораларнинг давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим бўлмаган, шу жумладан тавсия хусусиятига эга ҳужжатларига ҳавола қилишга уларнинг қоидаларига умуммажбурий тус бермаслик шarti билан йўл қўйилади (шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария, ветеринария-санитария қоидалари ва нормалари, техник жиҳатдан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларга ҳаволалар бундан мустасно).

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан вазирлик ва идораларга идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ваколатини беришга йўл қўйилмайди.

Қонунчилик ҳужжатлари мажмуига ёки ўрнатилган тартибга ҳавола қи-

линган ҳолда юридик хизмат хулосасига тегишли қонунчилик ҳужжатлари рўйхати илова қилинади.

36. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг матни лўнда, оддий ва ра-
вон тилда баён этилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда фойдаланиладиган тушунчалар
ва атамалар турлича изоҳлаш имкониятини истисно этадиган, уларнинг қо-
нунчилик ҳужжатларида қабул қилинган маъносига мувофиқ ягона шаклда
қўлланилади.

37. Лойиҳада қўйидагиларнинг қўлланилишига йўл қўйилмайди:

оғзаки нутқ шакллари;

хорижий тилларнинг атамалари, давлат тилида тенг маъноли сўзлар ва
тушунчалар бўлган тақдирда;

эскирган ҳамда кўп маънони англатадиган сўзлар ва иборалар, мажозий
таққослашлар, сифатлашлар, киноялар.

38. Лойиҳанинг жумлалари расмий тил услубидан ва юридик атамашу-
носликдан фойдаланилган ҳолда умумэътироф этилган грамматик, орфогра-
фик ва пунктуация қоидалари асосида тузилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда қонунчилик ҳужжатларида мав-
жуд бўлмаган тушунчалар, шунингдек техник ва бошқа махсус тушунча-
лардан фойдаланилган ҳолларда, ҳужжатда уларнинг таърифлари берилади.
Лойиҳада кўп маротаба қўлланилган бир ёки бир нечта тушунчага таъриф
бериш зарур бўлган ҳолларда улар мазкур Қоидаларнинг 1, 3 ва 4-иловалари-
га мувофиқ идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг бошланишида алоҳида
бандда кўрсатилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда умум қабул қилинган қисқартма-
лар қўлланилиши ва бошқа қисқартмаларга тушунчалар берилиши мумкин.

39. Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда рўйхатлар, жадваллар,
графиклар, хариталар, схемалар, ҳужжатлар ва бланкалар намуналари, ус-
лубиётлар берилса, унда улар иловалар кўринишида, ҳужжатнинг тегишли
бандларида ушбу иловаларга ҳаволалар қўллаган ҳолда расмийлаштирилиши
лозим.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга, шунингдек тавсия хусусиятида-
ги ҳужжатлар (намунавий низомлар, уставлар, услубий тавсиялар ва бошқа-
лар) ҳам, уларнинг қоидаларига умуммажбурий тус бермаслик шарти билан
илова қилиниши мумкин. Ушбу ҳужжатлар Ўзбекистон Республикаси Адлия
вазирлиги томонидан ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш предмети ҳисоблан-
майди.

Иловалар тегишли тартибда араб рақамлари билан рақамланади ва маз-
кур Қоидаларнинг 4-иловасига мувофиқ шаклда расмийлаштирилади.

4-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш, шунингдек уларни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги лойиҳани тайёрлаш

40. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар
ёхуд уни ўз кучини йўқотган деб топиш тегишлича буйруқлар ёки қарор-

лар билан расмийлаштирилади. Муқаддам қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёхуд уларни ёки уларнинг тузилмавий бирликларини ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги қоидалар мазкур Қоидаларнинг 6 — 14-иловаларига мувофиқ буйруқ ёки қарор лойиҳасининг матнига киритилади (ўз кучини йўқотаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, бўлимлар, боблар, параграфлар, бандлар, кичик бандлар, чиқариб ташланаётган хатбошилар кўрсатилган ҳолда).

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар ёхуд уни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги ҳужжат ўзгартириш ва қўшимчалар киритилаётган ёки ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қайси тилда қабул қилинган бўлса, шу тилда қабул қилинади.

Ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёки ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасининг матнида ўзгартириш ва қўшимчалар киритилаётган ёки ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат номидан кейин мазкур Қоидаларнинг 6 — 14-иловаларига мувофиқ шакл бўйича унга Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан давлат рўйхатидан ўтказишда берилган рўйхатдан ўтказиш рақами ва давлат рўйхатидан ўтказиш санаси, шунингдек эълон қилишнинг расмий манбаси кўрсатилади.

41. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг лойиҳаси билан киритилаётган ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар икки ёки ундан ортиқ бандни ташкил этса, бундай ўзгартириш ва қўшимчалар мазкур Қоидаларнинг 10 ва 11-иловаларига мувофиқ буйруқ ёки қарорга илова кўринишида расмийлаштирилади.

42. Бир вақтнинг ўзида икки ёки ундан ортиқ идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар киритилаётган ёхуд ўз кучини йўқотган деб топилаётган бўлса, ушбу ҳужжатлар тегишли равишда мазкур Қоидаларнинг 8, 12, 13 ва 14-иловаларига мувофиқ буйруқ ёки қарорга илова кўринишида расмийлаштирилади.

Бир вақтнинг ўзида икки ёки ундан ортиқ идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар киритилаётган ёхуд ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар давлат рўйхатидан ўтказишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан берилган рўйхатдан ўтказиш рақамларининг ўсиб бориши бўйича жойлаштирилади.

43. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг кичик бандигача бўлган (кичик бандни ҳам қўшган ҳолда) тузилмавий бирлигининг амал қилишининг тугатилиши ўз кучини йўқотган деб топиш, хатбоши кўринишидаги тузилмавий бирликнинг амал қилишининг тугатилиши эса чиқариб ташлаш деб кўрсатилади.

44. Ўзгартиришларга қуйидагилар киради:

рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар ва позицияларни алмаштириш;

кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар, иловаларни ўз

кучини йўқотган деб топиш ёки рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар ва хатбошиларни чиқариб ташлаш;

хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар, иловаларни, шунингдек параграфлар, боблар, бўлимлар, иловалар ва идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар номларини янги таҳрирда баён қилиш.

45. Жумланинг, илованинг, бўлимнинг, бобнинг, банднинг, кичик банднинг, хатбошининг ва бошқаларнинг матнини сезиларли ўзгартириш талаб этилса, уларни янги таҳрирда баён этиш лозим.

46. Қўшимчаларга идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни янги рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар, хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар ва иловалар билан тўлдириш киради.

47. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутувчи ҳужжат қўйидагиларга бўлиниши мумкин:

нуктали араб рақамлари билан рақамланадиган бандлар;

доирасимон қавс билан беркитиладиган кичик ҳарфлар ёки араб рақамлари билан белгиланадиган кичик бандлар;

хатбошилар.

48. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишда унинг иловалари, бўлимлари, боблари, параграфлари, бандлари ва кичик бандларининг рақамланиши ўзгармайди.

Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат янги тузилмавий бирликлар билан тўлдириладиган бўлса (мазкур Қоидаларнинг 49-бандида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно), унда уларни асосий рақам ёки ҳарф белгилари тепасига қўйиладиган қўшимча рақамлар билан белгилаш лозим (масалан, 2¹-банд, «в¹»-кичик банди ва ҳоказо).

49. Агар тегишли қўшимчалар тузилмавий бирликнинг (бўлим, боб, параграф, банд ёки кичик банднинг) охирига киритиладиган бўлса, унда мавжуд рақамланиш давом эттирилади (масалан, агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг охириги банди 50-банд бўлса, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат 51-банд билан тўлдирилади, агар банднинг охириги банди «в» кичик банд ҳисобланса, унда «г» кичик банд билан тўлдирилади ва ҳоказо).

50. Банд ёки кичик бандга янги хатбоши қўшиладиганда, мазкур банд ёки кичик банднинг кейинги хатбошилари кетма-кетлиги ўзгаради. Масалан:

«4-бандда:

қўйидаги мазмундаги иккинчи хатбоши билан тўлдирилсин:

«ўн саккиз ёшдан ўттиз ёшгача бўлган Ўзбекистон Республикаси фуқаролари»;»;

иккинчи — бешинчи хатбошилар тегишли равишда учинчи — олтинчи хатбошилар деб ҳисоблансин.».

51. Киритиладиган ўзгартириш ва қўшимчалар матнига, уларнинг мазмунига қараб, тиниш белгилари ҳам қўшилади (масалан, «ва йўриқномалар» деган сўзлар «, йўриқномалар ва бошқа ҳужжатлар» деган сўзлар билан алмаштирилсин; «, шунингдек ҳужжатлар» деган сўзлар билан тўлдирилсин; «сув билан таъминловчи корхоналар —» деган сўзлар чиқариб ташлансин).

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг номига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилаётганда иловаларнинг номи ва илова белгилари қайта кўриб чиқилади.

52. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг банди ёки кичик банди хатбошилардан иборат бўлса, хатбошиларни ҳисоблаш кириш хатбошисидан бошланади. Масалан:

«(биринчи хатбоши) 2. Ер ости ишлари қуйидаги ҳужжатлар билан тасдиқланиши мумкин:

(иккинчи хатбоши) шахта ёки рудникка тушиш ва ер устига чиқиш журналлари (табели);

(учинчи хатбоши) маркшейдерлик ҳужжатлари билан;

(тўртинчи хатбоши) ишчи номига (шахталарда, рудникларда) аккумуляторлик рақамларини бириктириш журналлари билан.

(бешинчи хатбоши) Ер ости ишларини тасдиқлаш учун қонунчилик ҳужжатларида назарда тутилган бошқа ҳужжатлар ҳам қўлланилиши мумкин.».

53. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тегишли тузилмавий бирликлари ўз кучини йўқотган деб топилганда, кейинги тузилмавий бирликларнинг рақамланиши ўзгармайди.

54. Хатбоши чиқариб ташланганда кейинги хатбошиларнинг кетма-кетлиги қайта кўриб чиқилади. Масалан:

«2-банднинг «а» кичик бандида:

бешинчи хатбоши чиқариб ташлансин;

олтинчи — ўн иккинчи хатбошилар тегишли равишда бешинчи — ўн биринчи хатбошилар деб ҳисоблансин.».

55. Асосий идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ўз кучини йўқотган деб топилаётганда, ушбу ҳужжатга ўзгартириш ва (ёки) қўшимчалар киритиш тўғрисидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (уларнинг тегишли тузилмавий бирликлари) ҳам ўз кучини йўқотган деб топилиши керак.

56. Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга муҳим аҳамиятга эга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш зарурати ёки айнан бир масала бўйича бир нечта ҳужжатларнинг мавжудлиги аниқланса, шунингдек идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат бир тилда қабул қилинган бўлса ва уни бошқа тилда ҳам қабул қилиш зарурияти бўлса, у ҳолда уларни тартибга солиш мақсадида ягона янги ҳужжат (бундан буён матнда ягона янги ҳужжат деб юритилади) ишлаб чиқилади.

57. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишда киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчаларнинг аниқлилигини лозим даражада назорат қилишни таъминлаш учун, шунингдек ягона янги ҳужжат ишлаб чиқилганида вазирлик ёки идора раҳбари (унинг ўринбосари) томонидан имзоланадиган қиёсий жадвал тайёрланиши ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан бирга киритилиши лозим.

58. Қиёсий жадвал учта графадан иборат бўлади:

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш таклиф этилаётган тузилмавий бирлигининг амалдаги таҳрири;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ўзгартириш ва қўшимчалар киритилган тегишли тузилмавий бирлигининг таклиф этилаётган таҳрири;

киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчаларни асослантириш.

59. Тегишли тузилмавий birlikнинг амалдаги ва таклиф этилаётган таҳриридаги графалари қиёсий жадвалда қуйидаги кўринишда баён этилади:

амалдаги ва таклиф этилаётган таҳрирлар графаларида ўзгараётган рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар, хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар ва иловалар «ярим қора» шрифти билан ажратиб кўрсатилади;

таклиф этилаётган таҳрир графасида тўлдирилаётган рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар, хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар ва иловалар «ярим қора» шрифти билан ажратиб кўрсатилади;

амалдаги таҳрир графасида ўз кучини йўқотган деб топилаётган кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар, иловалар ёки чиқариб ташланаётган рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар ва хатбошилар «ярим қора курсив» шрифти билан ажратиб кўрсатилади.

Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг тузилмавий бирлиги янги таҳрирда баён этилаётган бўлса, қиёсий жадвалда фақат тегишлича ўзгараётган, тўлдирилаётган, ўз кучини йўқотган деб топилаётган ёки чиқариб ташланаётган рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар, хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар ва иловалар ажратиб кўрсатилади.

Амалдаги ва таклиф этилаётган таҳрирлар графаларида ўзгармаган тегишли рақамлар, сўзлар, гаплар, графалар, блоклар, позициялар, хатбошилар, кичик бандлар, бандлар, параграфлар, боблар, бўлимлар ва иловалар, киритилган ўзгартиришлар оддий шрифтда берилади.

3-боб. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни расмийлаштириш, келишиш ва қабул қилиш

1-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни расмийлаштириш

60. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг матни А4 форматдаги қоғоз варағининг бир томонида масштаб кичрайтирилмаган ҳолда жойлашиши лозим.

61. Буйруқлар ва қарорлар матнлари Ўзбекистон Республикаси Давлат герби тасвирланган тегишли бланкаларда ёзилиши ва уларни қабул қилган органнинг (органларнинг) номи бўлиши лозим.

62. Иловалари бўлган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг бетлари изчил кетма-кетликда рақамланиши лозим, бунда буйруқ ёки қарор унинг иловаларидан алоҳида рақамланади.

Бетнинг тартиб рақами варақнинг юқорисида ўртада 2 рақамидан бошлаб ёзилади. Биринчи бетиде 1 рақами қўйилмайди.

63. Қоида тарикасида, стандарт варақ 1 қатор оралиғида («множитель»)

ёзилиши лозим, ҳар бир бет: юқоридан ва пастдан 2 см, чапдан 3 см, ўнгдан 2 см ҳошияга эга, матнда биринчи қаторнинг сатр боҳиси 1,27 см бўлиши лозим.

Матнни компьютер воситасида ёзишда «Times New Roman» 12 ўлчамли шрифтида ёки шунга ўхшаш шрифтни қўллаган ҳолда Microsoft Word матн редакторидан фойдаланиш тавсия қилинади.

64. Лойиҳа матнининг ҳар бир қаторида сўзлар кўчирилмасдан тугалланган бўлиши лозим. Лойиҳанинг ҳар бир қатори охирида, олд кўмакчилар, боғловчилар, «№» белгиси, сонлар қисми, аббревиатуралар ва бошқаларнинг қолдирилиши тавсия этилмайди.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат матнида ўчириш ва тузатишларга йўл қўйилмайди, бундан мазкур Қоидаларнинг 99-бандида кўрсатилган ҳолатлар мустасно.

65. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси грамматик, орфографик ва пунктуация қоидаларига мувофиқлиги юзасидан текшириб чиқилганидан сўнг вазирлик ва идораларнинг юридик хизмати лойиҳанинг Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқлигини, шунингдек ҳавола қилувчи нормалар қўлланилишининг асослилиги ҳамда мақсадга мувофиқлигини текширади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқ, шунингдек ҳавола қилувчи нормалар қўлланилиши асосланган ҳамда мақсадга мувофиқ бўлса, лойиҳа юридик хизмат раҳбари томонидан имзоланади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқ, шунингдек ҳавола қилувчи нормалар қўлланилиши асосланган ҳамда мақсадга мувофиқ бўлмаса, юридик хизмат лойиҳани тегишли хулоса билан лойиҳани тайёрлаш учун масъул бўлган таркибий бўлинмага қайтаради.

66. Лойиҳа қонунчиликка, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқ, шунингдек ҳаволаки нормаларнинг қўлланилиши асосланган ва мақсадга мувофиқ бўлган тақдирда ушбу лойиҳа бўйича юридик хизмат раҳбари томонидан имзоланадиган хулоса тайёрланади.

67. Юридик хизмат хулосасида қўйидагилар акс эттирилиши лозим:

а) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш учун асос (вазирлик ва идора ваколати, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга кирган масалаларни ҳал этишни топшириш ёки бундай ҳуқуқ бериш юзасидан юқори органнинг қарори, ҳужжат қабул қилиниши учун асос бўлиб хизмат қилган бошқа ҳолатлар);

б) мазкур орган томонидан ушбу масала бўйича муқаддам қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги маълумотлар;

в) ушбу масала бўйича муқаддам бошқа органлар томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва мазкур ҳужжат қабул қилиниши муносабати билан уларни ўзгартириш ёки ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисида таклифлар тайёрлаш ҳақидаги маълумотлар;

г) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасининг коррупцияга қарши ҳамда гендер-ҳуқуқий экспертизадан ўтказилганлиги ва унинг натижаси тўғрисидаги маълумотлар.

68. Юридик хизмат мавжуд бўлмаган тақдирда, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси бўйича ҳулоса идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тайёрлаш учун масъул бўлган таркибий бўлинма томонидан тайёрланиши ва вазирлик ёки идора раҳбари ёхуд унинг ўринбосари томонидан имзоланиши мумкин.

69. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга унинг қабул қилиниши мақсадга мувофиқлигини асослашдан иборат бўлган тушунтириш хати илова қилинади.

Тушунтириш хати вазирлик ёки идора раҳбари (истисно ҳолларда — унинг биринчи ўринбосари) томонидан имзоланади.

Тушунтириш хатида қуйидагилар акс этирилади:

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тайёрлаш учун асос ва уни қабул қилиш зарурлигини асослаш, шу жумладан ҳужжатни ишлаб чиқиш ва тасдиқлаш топширилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисидаги маълумотлар;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан белгиланадиган асосий қоидалар, уларни қисқача асослаш, шунингдек ҳужжатни қабул қилишдан кутилаётган натижалар. Бунда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши муносабати билан ҳуқуқий жиҳатдан тартибга солишда юз бериши мумкин бўлган ижобий ўзгаришлар келтирилади. Кутилаётган натижалар миқдорий кўрсаткичлар кўрсатилган ҳолда баён қилиниши ҳам мумкин;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда фойдаланиладиган бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ҳаволанинг ҳар бирини асослаш. Бунда унга ҳавола қилинадиган норматив-ҳуқуқий ҳужжат нормасининг мазмуни қисқача очиб берилади;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан тартибга солинаётган масала юзасидан бошқа давлатларнинг қонунчилик йўли билан тартибга солиш тажрибаси ва қонунчилик ҳужжатлари, халқаро шартномалар ва бошқа ҳужжатлар, тегишли қонунчилик ҳужжатларини қўллаш амалиёти, кўриб чиқиладиган масала бўйича илмий адабиётлар ва оммавий ахборот воситаларининг материаллари, шунингдек агар ўтказилган бўлса, ижтимоий ва бошқа тадқиқотлар маълумотлари;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси келишилган манфаатдор вазирликлар ва идоралар;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталига жамоатчилик муҳокамаси ўтказилиши учун жойлаштирилганлиги ва унинг натижалари ҳақидаги маълумотлар, бунда жамоатчилик муҳокамаси натижалари, қоида тариқасида,

келиб тушган фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифларни кўриб чиқиш натижалари баён этилган ҳолда мазкур Қоидаларнинг 15-иловасига* мувофиқ шаклдаги жадвалда кўрсатилади;

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни асослаш учун зарур бўлган бошқа маълумотлар.

70. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси натижалари юзасидан Ўзбекистон Республикасининг «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ва улар лойиҳаларининг коррупцияга қарши экспертизаси тўғрисида»ги Қонуни ва Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва улар лойиҳаларида коррупцияни келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш услугиётида (рўйхат рақами 3470, 2023 йил 31 октябрь) белгиланган тартибда коррупцияни келтириб чиқарувчи омилларни аниқлаш бўйича чеклист тўлдирилади ва лойиҳани ишлаб чиқувчининг биринчи раҳбари (истисно ҳолларда — унинг биринчи ўринбосари) имзоси билан расмийлаштирилади ҳамда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан бирга тақдим қилинади.

2-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини келишиш ва унинг жамоатчилик муҳокамаси

71. Қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ келишилиши мажбурий бўлган ҳолларда, шунингдек идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасида бошқа вазирлик ва идоралар манфаатларига ёки ваколатларига дахл қилувчи нормалар мавжуд бўлса, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси электрон тизим орқали манфаатдор вазирлик ва идоралар билан келишилиши лозим.

Бунда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси вазирлик ва идоралар томонидан у тақдим этилган кундан бошлаб беш иш куни ичида эътирозларсиз келишилиши ёки асослантилган эътирозлар билан қайтарилиши керак.

72. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси вазирлик ёки идора раҳбари томонидан электрон рақамли имзо билан тасдиқлаш йўли билан келишилади ҳамда буйруқ ёки қарор қисмида унинг келишилганини кўрсатувчи қоидаларни ўз ичига олиши лозим. Бунда мазкур Қоидаларнинг 4, 5, 6, 8, 10 ва 11-иловаларига мувофиқ шакл бўйича лавозим номи, фамилия, исмининг бош ҳарфи, шунингдек келишилиш санаси кўрсатилади.

73. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари:

Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Иқтисодиёт ва молия вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Инвестициялар, саноат ва савдо вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги фаолияти соҳасига

* 15-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Ташқи ишлар вазирлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги билан;

фуқароларнинг меҳнат ҳуқуқларига тааллуқли масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши билан;

Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Рақобатни ривожлантириш ва истеъмолчилар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш қўмитаси билан;

Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги фаолияти соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Истиқболли лойиҳалар миллий агентлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Ижтимоий ҳимоя миллий агентлиги билан;

Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Бошқарув самарадорлиги агентлиги соҳасига кирувчи масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Бошқарув самарадорлиги агентлиги билан;

адвокатлик фаолияти ва суд ишини юритиш билан боғлиқ масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси билан;

тадбиркорлик фаолиятини амалга оширишга бевосита ёки билвосита таъсир қиладиган масалалар бўйича — Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакили ва Ўзбекистон Республикаси Савдо-саноат палатаси билан;

нодавлат нотижорат ташкилотларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор масалалар бўйича — Ўзбекистон нодавлат нотижорат ташкилотлари миллий ассоциацияси билан;

фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгаларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига тааллуқли масалалар бўйича — Ўзбекистон фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгаши билан келишилиши лозим.

74. Атроф-табiiй муҳитга, шу жумладан табiiй ресурслардан фойдаланиш ва атроф-табiiй муҳитни муҳофаза қилишга таъсир кўрсатиши мумкин бўлган хўжалик ва бошқа фаолиятни тартибга солувчи идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари Ўзбекистон Республикаси Экология, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва иқлим ўзгариши вазирлиги томонидан мажбурий давлат экологик экспертизасидан ўтказилади.

75. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни келишиш давомида вазирлик ва идоралар ўртасида келишмовчиликлар юзага келган тақдирда, бундай ҳужжат келишмовчиликлар бартараф қилингунига қадар қабул қилиниши мумкин эмас. Агар келишмовчиликларни бартараф қилишнинг имкони бўлмаса,

идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тайёрлашга масъул бўлган вазирлик ёки идора бу масалани батамом ҳал қилиш учун Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасига ёхуд бошқа юқори турувчи органга мурожаат қилиши лозим.

76. Лойиҳани ишлаб чиқувчи томонидан барча идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари мажбурий тартибда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталида жамоатчилик муҳокамасидан ўтказилади, бундан янги қабул қилинган қонунчилик ҳужжатлари талабларига мувофиқлаштиришни назарда тутувчи ҳамда давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари мустасно.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳалари муҳокамаси порталига жойлаштириш идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинишидан олдин амалга оширилади.

77. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш муддати ўн кунни ташкил этади.

Бунда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш бошланган кундан эътиборан беш кун ичида лойиҳа юзасидан фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифлар келиб тушмаса, вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун белгиланган тартибда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига киритиши мумкин.

78. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳаси бўйича жамоатчилик муҳокамаси иштирокчиларидан келиб тушган фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифларни ҳисобга олиш лойиҳани қабул қилинган фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифларга мувофиқ маромига етказиш йўли билан амалга оширилади.

Келиб тушган фикр-мулоҳазалар ва (ёки) таклифлар рад этилган тақдирда, лойиҳани ишлаб чиқувчи уларни рад этиш сабабини асослаши шарт.

3-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилиш

79. Вазирлик ва идора томонидан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат вазирлик ёки идора раҳбари ёхуд унинг вазифасини бажарувчи шахс томонидан буйруқ ёки қарорни электрон рақамли имзо билан тасдиқлаш йўли билан қабул қилинади.

Давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар вазирлик ва идора раҳбари ёхуд унинг вазифасини бажарувчи шахс томонидан имзоланганда, имзолар тегишли вазирлик ва идоранинг муҳри билан тасдиқланади.

Қўшма қарорлар қабул қилишда вазирлик ва идораларнинг номи ҳар бир вазирлик ва идора учун тартибга солинаётган масаланинг аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда кетма-кет жойлаштирилади. Тартибга солинаётган масала бир нечта вазирлик ва идоралар учун тенг аҳамиятга эга бўлган тақдирда, уларнинг номлари алфавит тартибда жойлаштирилади.

80. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат давлат тилида қабул қилинади. Зарур бўлганда, ҳужжат бошқа тилларга таржима қилиниши мумкин.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг таржималари унинг давлат тилидаги таҳририга мувофиқ бўлиши лозим.

81. Низомлар, қоидалар, йўриқномалар ва бошқа ҳужжатлар уларни тасдиқлаётган буйруқлар ёки қарорларга илова кўринишида расмийлаштирилади, буйруқ ёки қарорнинг тегишли бандида эса уларга мазкур Қоидаларнинг 1 — 5-иловаларига мувофиқ ҳаволалар бўлиши лозим. Бунда илова белгисида буйруқ ёки қарорнинг тасдиқланган санаси ҳамда норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳисобини юритиш журнаliga мувофиқ берилган рақами кўрсатилиши керак.

82. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қуйидаги реквизитларга эга бўлиши лозим:

а) ҳужжатнинг тури ва номи;

б) вазирлик ёки идора раҳбарининг ёхуд унинг вазифасини бажарувчи шахснинг лавозими, электрон рақамли имзоси (давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда тегишли вазирлик ёки идоранинг муҳри билан тасдиқланган имзоси), исмининг бош ҳарфи ва фамилияси;

в) қабул қилинган санаси, рақами ва жойи.

83. Бир нечта вазирлик ва идоралар томонидан қўшма ҳолда қабул қилинадиган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат у биринчи бўлиб қабул қилаётган вазирлик ёки идора томонидан имзоланган санадан бошлаб ўн беш кун ичида қабул қилиниши лозим.

Агар вазирлик ёки идора раҳбарига икки ёки ундан ортиқ лавозимдаги вазифаларни бажариш юклатилган бўлса, у ҳолда ҳужжатнинг реквизитларида унга ушбу вазирлик ёки идора номидан имзолаш ҳуқуқини берувчи лавозими кўрсатилади.

Вазирлик ёки идора раҳбари вақтинчалик меҳнатга лаёқатсизлиги, таътилдалиги ёки бошқа сабабга кўра бўлмаганида унинг вазифасини бажаришни юклаш тегишли вазирлик ёки идора раҳбари томонидан имзоланган ташкилий-бошқарув ҳужжатида назарда тутилган бўлиши лозим.

84. Вазирлик ва идоралар ўзлари қабул қилаётган ҳужжатлар ҳисобини юритиш учун электрон ёки қоғоз шаклдаги алоҳида журнал юритишади ва унга идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳақида қуйидаги маълумотлар киритилади:

а) ҳужжатнинг тури ва номи;

б) ҳужжат қабул қилинган сана ва жой;

в) ҳужжат келишилган органлар (улар мавжуд бўлса);

г) ҳужжатни имзолаган шахс исмининг бош ҳарфи ва фамилияси, шунингдек лавозими;

д) ҳужжатни тайёрлаш учун масъул бўлган таркибий бўлинманинг номи, шунингдек масъул ходим исмининг бош ҳарфи, фамилияси ва лавозими.

85. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга норматив-ҳуқуқий ҳужжат-

лар ҳисобини юритиш журналидаги тартиб рақамига мутаносиб рақам берилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳисобини юритиш журналидаги маълумотларни ўзгартириш ёки уларни бошқача тарзда бузиб тўғрилашга йўл қўйилмайди. Агар маълумотларни идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳисобини юритиш журналига киритишда жиддий хатоларга йўл қўйилса, нотўғри киритилган маълумот тўлиқлигича ўчирилади ва маълумотлар қайтадан киритилади.

86. Давлат сирини ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар иккита асл нусхада қабул қилинади. Қўшма қарорнинг асл нусхалари сони ҳужжатни тасдиқлаган органлар сонига мутаносиб равишда ҳамда битта асл нусхаси Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги учун қабул қилинади.

4-боб. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ҳуқуқий экспертизаси, давлат рўйхатидан ўтказилиши ва кучга кириши

1-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этиш

87. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат тасдиқланган ҳолда уни қабул қилган орган томонидан ушбу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилинган кундан бошлаб ўн кун ичида электрон тизим орқали тақдим этилади (бундан давлат сирини ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мустасно). Агар кўрсатилган муддатнинг тугаши иш куни бўлмаган кунга тўғри келса, у ҳолда ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим қилиш муддати кейинги иш кунига қадар узайтирилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни белгиланган муддат давомида ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим қилиш факти электрон тизим орқали келиб тушган ва Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги девонхонаси томонидан рўйхатдан ўтказилган санадан қайд қилинади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим этилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳуқуқий экспертизадан ўтказилиб, уни давлат рўйхатидан ўтказиш ҳақида хулоса ёки давлат рўйхатидан ўтказишни рад этиш тўғрисидаги хат расмийлаштирилгунга қадар ушбу ҳужжатни ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун такроран киритишга йўл қўйилмайди.

Мазкур банднинг учинчи хатбошисида кўрсатилган талабга риоя қилинмасдан такроран тақдим этилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказилмасдан, ҳужжатни тақдим этган органга қайтарилади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун битта кузатув хати билан фақатгина битта идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат тақдим этилади.

88. Кузатув хатида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат лойиҳасини тайёрлашга масъул бўлган ходимнинг фамилияси, исми, отасининг исми ва алоқа телефон рақамлари кўрсатилиши лозим.

89. Бир нечта вазирлик ва идораларнинг қўшма ҳолда қабул қилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатини ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказишга тақдим этиш, қоида тариқасида, ҳужжатни қабул қилувчилар орасида номи биринчи бўлиб кўрсатилган вазирлик ёки идорага юклатилади.

90. Давлат сирини ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига вазирлик ва идора раҳбари (раҳбар ўринбосари) томонидан имзоланган кузатув хати билан мазкур Қоидаларнинг 86-бандига мувофиқ асл нусхаларда тақдим қилинади. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат давлат рўйхатидан ўтказилгандан сўнг унинг битта асл нусхаси Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида қолади.

91. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни тақдим этган органнинг юридик хизмати раҳбари (вазирлик ёки идоранинг раҳбари ёки тегишли ўринбосари) томонидан имзоланган юридик хулоса илова қилинади. Юридик хулосада уни имзолаган шахснинг фамилияси, исми, отасининг исми, лавозими, алоқа телефон рақамлари кўрсатилиши лозим.

92. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат вазирлик ёки идора раҳбари вазифасини бажарувчи шахс томонидан имзоланган тақдирда, юридик хулосада вазирлик ёки идора раҳбари вазифасини бажаришни юклаш, шунингдек мазкур вазифаларни бажариш муддати кўрсатилган тегишли ташкилий-бошқарув ҳужжатнинг (мазкур ҳужжатнинг нусхасини илова қилган ҳолда) реқвизитлари бўлиши лозим.

93. Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун такроран жўнатилаётган бўлса, шунингдек у давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилган ҳужжат ўрнига қабул қилинган бўлса, юридик хулосада Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилганлиги ёхуд идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказмасдан қайтарилганлиги тўғрисидаги хатининг (хулосасининг) санаси ва рақами кўрсатилиши лозим.

94. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида қуйидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказилади:

а) Ўзбекистон Республикаси фуқаролари, чет эл фуқаролари ва фуқаролиги бўлмаган шахсларнинг фуқаролик, сиёсий, ижтимоий-иқтисодий ва бошқа ҳуқуқлари, эркинликлари, қонуний манфаатлари ва мажбуриятлари, уларни амалга ошириш кафолатларига, кўрсатилган ҳуқуқ, эркинлик ва мажбуриятларни амалга ошириш механизмларига дахл қилувчи;

б) идоралараро тусдаги (умуммажбурий тусдаги);

в) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилган вазирлик ёки идора (қўшма ҳолда қабул қилган икки ёки ундан ортиқ идора) тизимига кирмайдиган ташкилотлар учун мажбурий кучга эга бўлган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар. Агар ташкилотлар вазирлик ёки идораларнинг тўлиқ бўйсунувида бўлсалар, мазкур органларнинг тизимига кирувчи ташкилотлар ҳисобланадилар. Бўйсунув тўғридан-тўғри (мазкур тизимнинг барча юқори бўғинларига вертикал равишда) ёки бевосита (бевосита юқори турувчи органга) бўлиши мумкин. Ташкилотлар, агар вазирлик ёки идорага қайсидир алоҳида муносабатлар юзасидан (масалан, ҳисоб юритиш қоидалари, маблағ билан таъминлаш, услубий раҳбарлик масалалари бўйича ва ҳоказо) бўйсунувда бўлсалар, уларнинг назорати остида бўлсалар ёхуд вазирлик ёки идора ташкилотлар фаолиятини мувофиқлаштириш вазифасини бажарса, вазирлик ёки идоралар тизимига кирувчи ҳисобланмайдилар.

95. Мазкур Қоидаларнинг 94-бандида кўрсатиб ўтилган белгилардан бири ёки бир нечтасига эга бўлган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар уларнинг амал қилиш муддатидан (доимий амал қилувчи, вақтинчалик (маълум бир муддатга қабул қилинган), шунингдек улардаги ҳуқуқий нормаларнинг қандай хусусиятда бўлишидан, шу жумладан давлат сирини ташкил этувчи маълумотларга ёки махфий маълумотларга эга бўлишидан қатъи назар, ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим.

96. Қуйидагилар давлат рўйхатидан ўтказилмайди:

а) якка тартибдаги ҳужжатлар:

шахсий тусдаги (лавозимга тайинлаш, бошқа лавозимга ўтказиш ёки лавозимидан озод қилиш, комиссия ва бошқа коллегиял органлар таркибини тасдиқлаш, фахрий ёки ҳарбий унвонлар бериш, муайян шахсларга имтиёзлар бериш ва бошқа шу кабилар);

амал қилиши бир марта қўллаш билан тамом бўлувчи;

тезкор-фармойишли тусдаги (бир марталик топшириқлар);

б) муқаддам белгиланган тартибни ижро этишни ташкил этишга йўналтирилган ҳамда янги ҳуқуқий нормаларни ўз ичига олмаган ҳужжатлар (шу жумладан, бутун мазмуни бошқа органлар ва мансабдор шахсларнинг ҳужжатлари тўғрисида хабардор қилишдан иборат бўлган ҳужжатлар);

в) техник регламентлар;

г) стандартлаштириш бўйича норматив ҳужжатлар (стандартлар, стандартлаштириш бўйича қоидалар ва нормалар, техник-иқтисодий маълумотлар классификаторлари);

д) санитария, ветеринария-санитария, фитосанитария қоидалари ва нормалари;

е) шахарсозлик, экологик нормалар ва қоидалар;

ж) ушбу банднинг «в» — «е» кичик бандларида назарда тутилмаган ҳужжатлар. Ушбу кичик бандда назарда тутилган ҳужжатларни техник жиҳат-

дан тартибга солиш соҳасидаги норматив ҳужжатларга тегишли деб топиш Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан амалга оширилади;

з) тавсия хусусиятига эга ҳужжатлар;

и) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга расмий шарҳ бериш тўғрисидаги ҳужжатлар;

к) умуммажбурий тусга эга бўлмаган бошқа ҳужжатлар.

Мазкур банднинг «д» ва «е» кичик бандларида назарда тутилган шаҳар-созлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария ҳамда ветеринария-санитария қоидалари ва нормалари Шаҳарсозлик нормалари ва қоидалари, фитосанитария талаблари, санитария қоидалари, нормалари ва гигиена нормативлари, экологик нормалар ва қоидалар, ветеринария, ветеринария-санитария қоидалари ва нормаларини тайёрлаш, ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш ва ҳисобга олиш қоидаларига (рўйхат рақами 3545, 2024 йил 6 август) мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида мажбурий тартибда ҳуқуқий экспертизадан ўтказилади ва ҳисобга қўйилади.

2-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш

97. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан ҳужжат келиб тушган кундан бошлаб йигирма кун ичида амалга оширилади. Агар кўрсатилган муддатнинг тугаши иш куни бўлмаган кунга тўғри келса, унда давлат рўйхатидан ўтказиш муддати ундан кейинги биринчи иш кунига қадар узайтирилади.

Агар тақдим этилган ҳужжат, шу жумладан малакали мутахассисларни жалб этиш йўли билан қўшимча ўрганилиши талаб этиладиган бўлса, ҳужжатни кўриб чиқиш муддати ўн кунгача узайтирилиши мумкин.

Давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этиш тартибини бузган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказишни рад этиш ушбу ҳужжат келиб тушган кундан бошлаб ўн беш кун ичида амалга оширилади.

98. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш:

а) ҳуқуқий экспертизани;

б) ушбу ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида хулоса расмийлаштиришни;

в) Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг давлат реестрига (бундан буён матнда Давлат реестри деб юритилади) рўйхатдан ўтказиш рақами берилган ҳолда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисида маълумот киритишни ва уни Давлат реестрига киритишни;

г) Давлат реестрига идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ўз кучини йўқотганлиги тўғрисида маълумот киритишни ва уни Давлат реестридан чиқаришни ўз ичига олади.

99. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида ҳуқуқий экспертизадан ўтказилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, юқорироқ юридик кучга эга бўлган бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга, қонунчилик техникаси қоидаларига мувофиқлаштириш, шунингдек ҳавола қилувчи нормалар қўлланишининг асослилиги ва мақсадга мувофиқлигини таъминлаш юзасидан қайта ишлаш (тахрирлаш) орқали давлат рўйхатидан ўтказилиши мумкин.

Қайта ишланган (тахрирланган) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказишга ушбу ҳужжатни қабул қилган вазирлик ёки идоранинг биринчи раҳбари томонидан ёзма ёки электрон тизим орқали розилик берилган тақдирда йўл қўйилади.

Бунда қайта ишланган (тахрирланган) идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат уни қабул қилган вазирлик ёки идора биринчи раҳбарининг розилигини олиш учун Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан ҳужжатни қабул қилган вазирлик ёки идорага берилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш муддати ушбу ҳужжат вазирлик ёки идоранинг биринчи раҳбарига розилик олиш учун юборилган кундан розилик олинган кунга қадар тўхтатиб турилади.

100. Тақдим қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш қўйидаги ҳолларда рад этилиши мумкин, агар:

а) ҳужжат Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси ва қонунларига, унга нисбатан юқори юридик кучга эга бўлган бошқа қонунчилик ҳужжатларига, мамлакатда ўтказилаётган ислохотлар мақсадлари ва вазифаларига, шунингдек қонунчилик техникаси қоидаларига зид бўлса;

б) ҳужжатда Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 30 мартдаги 192-сон қарори билан тасдиқланган Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини гендер-ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомга асосан хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг ҳуқуқ ҳамда имкониятлар қафолатларини таъминлаш принципларига мувофиқ бўлмаган қоидалар мавжуд бўлса;

в) ҳужжат Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1997 йил 9 октябрдаги 469-сон қарори билан тасдиқланган Вазирликлар ва идоралар томонидан қабул қилинган норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисидаги низом ва мазкур Қоидалар билан ўрнатилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этиш тартибини бузган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига юборилган бўлса. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этиш тартиби бузилганлиги сабабли давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилса, ҳуқуқий экспертиза ўтказилмайди;

г) ҳужжат манфаатдор органлар билан келишиш мажбурий ҳисобланганда бундай органлар билан келишилмаган бўлса;

д) жамоатчилик муҳокамасидан ўтказиш жараёнида жисмоний ва юридик шахсларнинг асосли эътирозларига сабаб бўлган бўлса;

е) ҳужжат мазкур Қоидалар билан ўрнатилган бошқа талабларга жавоб бермаса.

101. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар рад этилган вақтдан эътиборан бекор қилинган ҳисобланади ҳамда вазирлик ва идоралар томонидан уларни бекор қилиш учун алоҳида ҳужжат қабул қилиш талаб этилмайди.

Бунда Адлия вазирлигининг давлат рўйхатидан ўтказишни рад этиш тўғрисидаги хулосаси имзоланган вақтдан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда унинг бекор қилинганлиги ҳақидаги белги автоматик тарзда электрон тизимда қайд этилади.

Давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги хулосасини эътиборга олган ҳолда қайта ишлаб чиқилиши ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун такроран тақдим этилиши мумкин. Бунда қонунлар, Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталари қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармонлари ва қарорлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорларини бажариш юзасидан, шунингдек Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги тақдимномасига кўра қабул қилинган ҳужжатларни қайта ишлаш ва давлат рўйхатидан ўтказишга такроран тақдим этиш муддати бир ойдан ошмаслиги лозим.

Мазкур Қоидаларнинг 100-банди «в» ва «г» кичик бандларида кўрсатилган асослар бўйича давлат рўйхатидан ўтказиш рад этилганда (мазкур Қоидаларнинг 87-бандида назарда тутилган муддат бузиш ҳоллари бундан мустасно), вазирлик ва идоралар бир ой ичида рад этиш сабабларини бартараф этишга ва ушбу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш учун такроран тақдим этишга мажбурдирлар.

102. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат вазирлик ёки идорага бу ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим қилган органнинг илтимосига кўра, ҳуқуқий экспертизанинг исталган босқичида давлат рўйхатидан ўтказмасдан Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан қайтариб берилиши мумкин. Бу ҳолда вазирлик ёки идора Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тегишли хатни юборади.

103. Агар ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ҳуқуқий экспертиза ўтказиш натижасида Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим эмас деб топилса, ушбу ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этган органга ушбу қарорни қабул қилиш асослари кўрсатилган тегишли хулоса юборилади.

104. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш электрон тизим орқали идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси адлия вазири томонидан тасдиқланадиган хулоса билан расмийлаштирилади.

Давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз

ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш Ўзбекистон Республикаси адлия вазири томонидан, истисно тариқасида, қоғоз шаклида тасдиқланадиган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисидаги хулоса билан расмийлаштирилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисидаги хулоса асосида рўйхатдан ўтказиш рақами берилган ҳолда Давлат реестрига тегишли маълумот киритилади.

Давлат реестри электрон шаклда юритилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг давлат рўйхатидан ўтганлиги тўғрисидаги белги (давлат рўйхатидан ўтказиш рақами ва санаси, шунингдек давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар учун қўшимча равишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг гербли муҳри) буйруқ ёки қарорнинг юқори қисмига қўйилади.

Давлат сири ҳисобланган маълумотлар ва махфий маълумотларни ўз ичига олган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг расмийлаштирилган асл нусхаси идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этган вазирлик ёки идорага белгиланган тартибда юборилади.

Келишувчи вазирлик ва идораларга, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим этган вазирлик ва идора томонидан идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг нусхаси тақдим этилади.

Вазирлик ва идоралар давлат рўйхатидан ўтказилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базасидан электрон кўринишда юклаб олишлари мумкин.

105. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги, шунингдек уларни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мазкур Қоидаларда ўрнатилган тартибда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказилиши лозим.

3-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг кучга кириши

106. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат, агар ҳужжатнинг ўзида кечроқ муддат кўрсатилган бўлмаса, у расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради ва ижро этилиши лозим.

Агар ҳужжатнинг ўзида кечроқ муддат кўрсатилган бўлса, унда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат шу санадан бошлаб кучга киради.

Тадбиркорлик фаолиятини амалга ошириш тартиб-таомили мураккаблаштирилишини ва тадбиркорлик фаолияти субъектлари зиммасига янги мажбуриятлар юклатилишини назарда тутадиган, шунингдек уларнинг жавобгарлигига оид янги чораларни белгилайдиган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат расмий эълон қилинган кундан эътиборан камида уч ойдан кейин кучга киради.

107. Давлат рўйхатидан ўтиши лозим бўлган ҳужжатларни, улар давлат рўйхатидан ўтказилмасидан ва расмий эълон қилинмасидан, ижрога юборишга йўл қўйилмайди. Мазкур талаблар бузилган тақдирда, ҳужжатлар кучга кирмаган ҳужжат сифатида қўлланилмайди.

Ўзбекистон Республикаси «Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар тўғрисида»ги Қонунининг 37-моддасига мувофиқ вазирликлар ва идораларнинг мансабдор шахслари давлат рўйхатидан ўтказилмаган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни амалга киритганлик учун маъмурий жавобгарликка тортилади.

5-боб. Яқуний қоидалар

1-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга расмий шарҳ бериш

108. Вазирлик ва идоралар ўзлари томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тўғри ва бир хилда қўлланилишини таъминлайди. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қўллаш бўйича шарҳ бериш зарурати юзага келган тақдирда, идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилган орган тегишли расмий шарҳ бериши шарт.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатда ноаниқликлар топилган, у амалиётда нотўғри ёки зиддиятли тарзда қўлланилган ҳолларда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга расмий шарҳ берилади. Расмий шарҳлар беришда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритишга йўл қўйилмайди.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга расмий шарҳ бериш ҳуқуқий нормалар мазмунини тушунтиришдан иборат бўлиб, аниқлаштирувчи қоидаларни ўз ичига олади ва мустақил аҳамиятга эга бўлмайди ҳамда расмий шарҳ берилаётган нормалар билан биргаликда амал қилади.

Бунда расмий шарҳ бериш мақсадида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат матнидан фақат сўзма-сўз (унинг бўлими, боби, параграфи, банди ва ҳоказо) фойдаланишга йўл қўйилади. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат мазмунидан (унинг бўлими, боби, параграфи, банди ва ҳоказо) фарқ қилувчи ҳамда янги ҳуқуқий норма ҳосил қилувчи бошқа тушунча ва атамалардан фойдаланишга йўл қўйилмайди.

109. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги тегишли органларга улар қабул қилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар бўйича расмий шарҳ бериш тўғрисида тақдимнома киритишга ҳақлидир.

110. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга расмий шарҳлар тегишлича буйруқ ёки қарорлар билан мазкур Қоидаларнинг 16-иловасига* мувофиқ шаклда берилади.

111. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга расмий шарҳ бериш тўғрисидаги буйруқ ёки қарор қабул қилинганидан сўнг электрон тизим орқали ўн кун ичида ҳуқуқий экспертизадан ўтказиш ва келишиш учун Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим қилинади.

* 16-илова «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да эълон қилинган.

Расмий шарҳ бериш тўғрисидаги буйруқ ёки қарор Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги билан келишилгандан кейингина ижрога юборилади.

112. Расмий шарҳ берилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ўз кучини йўқотган деб топилаётганда, унга берилган расмий шарҳ ҳам ўз кучини йўқотган деб топилиши керак.

Расмий шарҳни ўз кучини йўқотган деб топиш расмий шарҳни бериш тўғрисидаги ҳужжат қандай тартибда қабул қилинган бўлса, шундай тартибда амалга оширилади.

113. Расмий шарҳ бериш тўғрисидаги ҳамда расмий шарҳни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги буйруқлар ёки қарорлар «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами» — «Собрание законодательства Республики Узбекистан»да эълон қилинади.

114. Расмий шарҳ бериш тўғрисидаги ҳамда расмий шарҳни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги буйруқ ёки қарорнинг матни идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг матни қандай тартибда тарқатилган бўлса, шундай тартибда тарқатилади.

115. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қоидаларини қўллаган ҳолда тўлиқ шарҳ бериш имкони бўлмаган тақдирда, вазирлик ёки идора идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга тегишли ўзгартириш ва қўшимчалар киритишга ва уларни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига давлат рўйхатидан ўтказиш учун тақдим қилишга мажбурдир.

Агар шарҳ тайёрлаш давомида қонунчилик ҳужжатлари нормаларини қўллашнинг айрим масалаларини ҳуқуқий тартибга солиш зарурати аниқланса, вазирлик ва идоралар ўз ваколатлари доирасида тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ишлаб чиқишлари ва қабул қилишлари ёхуд юқори турувчи органларга идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш бўйича таклиф киритишлари лозим.

2-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёхуд ўз кучини йўқотган деб топиш

116. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёхуд ўз кучини йўқотган деб топиш қонунчилик ҳужжатлари ўзгариши муносабати билан, шу жумладан вазирлик ва идоралар томонидан янги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан, шунингдек уларни қабул қилган вазирлик ва идораларнинг ташаббуси бўйича амалга оширилади.

117. Янги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат тайёрланаётганлиги муносабати билан муқаддам қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ёки уларнинг тузилмавий бирликларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёхуд уларни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги таклифлар бундай ҳужжат лойиҳасини ишлаб чиқиш билан бир вақтда тайёрланиши лозим.

118. Вазирлик ва идоралар ўзлари томонидан қабул қилинган идоравий

норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга бир хил масаладаги ўзгартириш ва қўшимчаларни битта ҳужжат билан киритиши лозим.

119. Қонунчилик ҳужжатлари ўзгарган тақдирда, вазирлик ва идоралар ўзлари томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонунчилик ҳужжатларига мувофиқ ҳолга келтиришга ҳамда ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги тегишли ҳужжатларни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим этишга мажбурдирлар. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлаштирилгунга қадар ушбу ҳужжатлар қонунчилик ҳужжатларига зид бўлмаган қисмда амалда бўлади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги вазирлик ва идораларга улар томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлаштириш тўғрисида тақдимномалар киритишга ҳақлидир. Бу ҳолда вазирлик ва идоралар ўн кунлик муддатда ўзлари қабул қилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисидаги ҳужжатни ҳуқуқий экспертизадан ва давлат рўйхатидан ўтказиш учун Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим этишга мажбурдирлар. Ушбу норма бажарилмаган тақдирда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги тегишли орган (органлар)ни кейинчалик хабардор қилган ҳолда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Давлат реестридан чиқаришга ҳақлидир, бу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни юридик кучга эга эмас деб ҳисоблаш учун асос бўлади.

Қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлаштирилмаган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг Давлат реестридан чиқарилиши натижасида юзага келадиган «ҳуқуқий бўшлиқлар» оқибатлари учун ушбу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилган вазирлик ва идоралар раҳбарлари жавобгар бўлади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Давлат реестридан чиқариш Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Давлат реестридан чиқариш тўғрисидаги буйруғи билан амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирининг идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни Давлат реестридан чиқариш тўғрисидаги буйруғи, агар буйруқнинг ўзида кечроқ муддат кўрсатилган бўлмаса, у расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга кирилади.

120. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қонунчилик ҳужжатлари ўзгариши муносабати билан ёхуд вазирлик ёки идора ташаббуси бўйича қайта кўриб чиқишда айрим идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг амал қилишини тугатиш зарурати юзага келган тақдирда, вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги тегишли буйруқ ёки қарорни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим этадилар.

Ўзбекистон Республикаси адлия вазири томонидан тасдиқланадиган ушбу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни давлат рўйхатидан ўтказиш тўғрисидаги ҳулоса асосида Давлат реестрига идоравий норматив-ҳуқуқий

хужжатни ўз кучини йўқотган деб топиш ва Давлат реестридан чиқариш тўғрисидаги маълумот киритилади.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат уни ўз кучини йўқотган деб топиш тўғрисидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат расмий эълон қилинган кундан эътиборан, агар унда кечроқ муддат кўрсатилган бўлмаса, ўз кучини йўқотган деб топилади.

121. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат (тузилмавий бирлик) ўз кучини йўқотган деб топилса, ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга (тузилмавий бирликка) ўзгартириш ва қўшимчалар киритган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар (уларнинг тегишли тузилмавий бирлиги) ҳам ўз кучини йўқотган деб топилиши лозим.

122. Илгари қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни (тузилмавий бирликни) ўз кучини йўқотган деб топишни назарда тутувчи идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни ёки унинг тузилмавий бирлигини ўз кучини йўқотган деб топиш, илгари қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат (тузилмавий бирлик) амал қилишининг тикланишига олиб келмайди.

123. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ёхуд уни ўз кучини йўқотган деб топиш ушбу ҳужжатни қабул қилган орган томонидан ёхуд бунга ваколатли бошқа орган томонидан ушбу ҳужжат қабул қилинган тартибда амалга оширилади.

Бошқа вазирлик ва идоралар билан қўшма ҳолда қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга шу вазирлик ва идоралар билан қўшма ҳолда ўзгартириш, қўшимчалар киритилади ёки ўз кучини йўқотган деб топилади.

Бир нечта вазирлик ва идоралар билан келишилган ҳолда қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга юқори юридик кучга эга бўлган қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлаштиришга қаратилган ўзгартириш ва қўшимчалар киритишни назарда тутувчи идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни вазирлик ва идоралар билан келишиш талаб этилмайди.

Бир нечта вазирлик ва идоралар билан келишилган ҳолда қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга юқори юридик кучга эга бўлган қонунчилик ҳужжатларига мувофиқлаштириш билан боғлиқ бўлмаган ўзгартириш ва қўшимчалар киритишда, киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар келишилган вазирлик ва идоралардан қайси бирининг манфаатларига ёки ваколатларига дахл қилса, ўша вазирлик ва идоралар билан келишилади.

Бошқа вазирлик ва идоралар билан келишилган ҳолда қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар шу вазирлик ва идоралар билан келишилган ҳолда ўз кучини йўқотган деб топилади.

Агар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатга киритилаётган ўзгартириш ва қўшимчалар уни қабул қилишда иштирок этмаган вазирлик ва идоралар билан келишилиши лозим бўлса, бундай ўзгартириш ва қўшимчалар ушбу вазирлик ва идоралар билан ҳам келишилиши лозим.

124. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиш ҳуқуқи берилган вазирлик ёки идора қайта ташкил этилган тақдирда, ҳуқуқий ворисга

ўз ваколати доирасида идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиш ҳуқуқи билан бирга илгари қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш, қўшимчалар киритиш, уларнинг амал қилишини тўхтатиб туриш ва тугатиш ваколатлари ҳам ўтади, ушбу Қоидаларнинг 125-бандида назарда тутилган ҳоллар бундан мустасно.

125. Вазирлик ёки идора тугатилган ёхуд у тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қабул қилиш ҳуқуқини ҳуқуқий ворисига бермасдан қайта ташкил этилган тақдирда, илгари қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларга ўзгартириш, қўшимчалар киритиш, уларнинг амал қилишини тўхтатиб туриш ва тугатиш ваколатлари юқори турувчи ёки бошқа ваколатли органга ўтади.

126. Вазирликнинг ёки идоранинг номи ўзгартирилган тақдирда, унинг илгариги номи кўрсатилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг ўзгартирилган номга оид қисмига ўзгартириш ёки қўшимча киритилиши лозим. Бундай ўзгартиришлар ёхуд қўшимчалар киритилгунига қадар илгариги номи кўрсатилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларнинг амал қилиши номи ўзгартирилган вазирликка ёки идорага тўлиқ ҳажмда татбиқ этилади.

Вазирлик ёки идора мақомининг ўзгартирилиши улар томонидан илгари қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар амал қилишининг тугатилишига олиб келмайди.

127. Вақтинчалик тусга эга бўлган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар уларнинг амал қилиш муддати тугаган кундан эътиборан Давлат реестридан чиқарилган ҳисобланади. Вазирлик ва идоралар зарур ҳолда бундай ҳужжатларнинг амал қилиш муддати тугашидан камида ўттиз кун олдин уларнинг амал қилиш муддатини узайтириш тўғрисидаги тегишли ҳужжатни Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига тақдим этиб, уларнинг амал қилиш муддатини узайтиришга мажбурдирлар.

Бутун ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиш муддатини узайтириш ёхуд унга муддатсиз тус бериш идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қонунчилик ҳужжатларига, ўтказилаётган ислохотларнинг устувор йўналишларига, жамиятдаги барқарор ҳуқуқий муносабатларга мувофиқ бўлган тақдирдагина амалга оширилади.

3-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар амал қилишининг тўхтатиб турилиши

128. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши уни қабул қилган орган ёхуд унинг юқори турувчи органи томонидан муайян муддатга ёки муайян ҳодиса юз бергунига қадар тўхтатиб турилиши мумкин. Бунда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши муайян ҳодиса юз бергунига қадар тўхтатиб турилган ҳолда, қандай ҳодиса юз бериши лозимлиги аниқ кўрсатилиши ҳамда ушбу ҳодиса барчага маълум бўлиши лозим.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилишини тўхтатиб туриш ёки қайта тиклаш тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан амалга оширилади.

Муайян муддатга тўхтатилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши тўхтатиб туриш муддати тугагандан сўнг автоматик равишда қайта тикланган ҳисобланади. Бунда амал қилишни қайта тиклаш тўғрисидаги идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат қабул қилиниши талаб этилмайди.

Муайян ходиса юз бергунига қадар тўхтатиб турилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши тегишли идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан қайта тикланади.

129. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши низоли масалалар келиб чиққанда, шунингдек идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қўллаш билан боғлиқ бўлган янги ҳолатлар аниқланганда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан тўхтатиб турилиши мумкин.

130. Мазкур Қоидаларнинг 129-бандига асосан тўхтатиб турилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши уни тўхтатиб туриш асослари бартараф қилинган тақдирда қайта тикланиши мумкин.

131. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилиши мазкур Қоидаларнинг 129-бандига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг буйруғи билан тўхтатиб турилади ёки қайта тикланади, буйруқнинг нусхаси ушбу идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қабул қилган органга юборилади.

Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатнинг ёки унинг тузилмавий бирлигининг амал қилишини тўхтатиб туриш ёки қайта тиклаш тўғрисидаги буйруғи, агар буйруқнинг ўзида кечроқ муддат кўрсатилган бўлмаса, у расмий эълон қилинган кундан эътиборан кучга киради.

4-§. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни эълон қилиш ва уларнинг матнларини тарқатиш

132. Давлат рўйхатидан ўтказилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар эълон қилинадиган расмий манбаларда эълон қилиниши шарт. «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами» — «Собрание законодательства Республики Узбекистан», Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, вазирлик ва идораларнинг расмий нашрлари идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар эълон қилинадиган расмий манбалардир.

Вазирлик ва идоралар томонидан таъсис этилган, таъсис ҳужжатларида кўрсатиб ўтилган органлар томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни расман эълон қилиш назарда тутилган оммавий ахборот воситалари уларнинг расмий нашрлари ҳисобланади.

Вазирлик ва идоралар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни «Ўзбекистон Республикаси қонунчилик тўплами» — «Собрание законодательства Республики Узбекистан» ва Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базасида расман эълон қилингунга қадар ўзларининг расмий нашрларида эълон қилган тақдирда, бу ҳақда эълон қилинган кундан кечик-

май, расмий нашр реквизитларини кўрсатган ҳолда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигига маълум қилади.

133. Давлат рўйхатидан ўтказилган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан улар давлат рўйхатидан ўтказилган қуни Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан тасдиқланган Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар матнлари ҳамда зарур бўлган тақдирда уларга тегишли ахборот-таҳлилий материаллар электрон шаклда юбориладиган давлат органлари ва бошқа ташкилотларнинг рўйхати бўйича давлат органлари ва ташкилотларга юборилади.

134. Вазирликлар ва идоралар ўзлари томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни (зарур бўлган тақдирда, ахборот-таҳлилий материаллари билан бирга) улар расман эълон қилингандан кейин бир кундан кечикмай ўзларининг расмий веб-сайтларида жойлаштириши шарт.

Тадбиркорлик субъектлари билан ўзаро муносабатлар масалаларини тартибга соладиган расмий веб-сайтларда эълон қилинмаган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар талабларини бузганлик учун тадбиркорлик субъектларига жавобгарлик чораларини қўллаш тақиқланади.

135. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни эълон қилиш ва тарқатишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказиш рақами ва санаси кўрсатилиши мажбурийдир.

Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни расмий ва норасмий нашрларда, шу жумладан оммавий ахборот воситаларида ва маълумотларнинг электрон базаларида эълон қилишда (тарқатишда), шунингдек қайта чоп этиш йўли билан тарқатишда Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигида давлат рўйхатидан ўтказиш рақами ва санаси ҳужжатнинг биринчи варағининг марказида унинг номининг остига қўйилади.

136. Вазирлик ва идоралар, ўз ваколатлари доирасида, ўзлари томонидан қабул қилинган идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар матнларининг тарқатилишини таъминлашлари шарт.

137. Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар матнларининг тарқатилиши идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат матни билан тўсиқсиз (эркин) танишиш имконини таъминловчи ҳар қандай шаклларда, шу жумладан оммавий ахборот воситаларида, расмий нашрларда, умумфойдаланиш жойларидаги пешлавҳаларда ва бошқаларда эълон қилиш йўли орқали амалга оширилиши мумкин. Бунда идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатни қўллашга масъул бўлган шахслар идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжат билан шахсан таништирилиши лозим.

Ўзбекистон Республикаси
адлия вазирининг 2025 йил 9 октябрдаги
23-мх-сон буйруғига
2-ИЛОВА

**Ўз кучини йўқотган деб топилаётган идоравий
норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар
РЎЙХАТИ**

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2014 йил 28 февралдаги 53-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565, 2014 йил 28 февраль) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 10-сон, 110-модда).

2. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2014 йил 23 майдаги 138-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-1, 2014 йил 23 май) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 21-сон, 253-модда).

3. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2014 йил 31 декабрдаги 317-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларининг 65-бандига қўшимча киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-2, 2014 йил 31 декабрь) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 52(1)-сон, 654-модда).

4. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2016 йил 12 майдаги 114-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-3, 2016 йил 12 май) (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 19-сон, 221-модда).

5. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2017 йил 13 октябрдаги 335-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-4, 2017 йил 13 октябрь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 16.10.2017 й., 10/17/2565-4/0110-сон).

6. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 15 январдаги 27-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-5, 2018 йил 15 январь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 15.01.2018 й., 10/18/2565-5/0565-сон).

7. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2018 йил 5 июлдаги 356-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-6, 2018 йил 5 июль) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 06.07.2018 й., 10/18/2565-6/1469-сон).

8. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 20 февралдаги 65-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул

қилиш қоидаларига ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-7, 2019 йил 20 февраль) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.02.2019 й., 10/19/2565-7/2653-сон).

9. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2019 йил 19 апрелдаги 197-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш Қоидаларининг 67-бандига қўшимча киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-8, 2019 йил 19 апрель) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 20.04.2019 й., 10/19/2565-8/2976-сон).

10. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2020 йил 29 апрелдаги 98-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-9, 2020 йил 29 апрель) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.04.2020 й., 10/20/2565-9/0539-сон).

11. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2020 йил 29 июндаги 150-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-10, 2020 йил 29 июнь) (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.06.2020 й., 10/20/2565-10/1010-сон).

12. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2021 йил 24 июндаги 14-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳақида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-11, 2021 йил 24 июнь) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 24.06.2021 й., 10/21/2565-11/0594-сон).

13. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2022 йил 28 июндаги 16-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартиришлар ва қўшимча киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-12, 2022 йил 28 июнь) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.06.2022 й., 10/22/2565-12/0580-сон).

14. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2024 йил 24 декабрдаги 31-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-13, 2024 йил 25 декабрь) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 27.12.2024 й., 10/24/2565-13/1075-сон).

15. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2025 йил 30 июлдаги 18-мх-сон «Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларига қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида»ги буйруғи (рўйхат рақами 2565-14, 2025 йил 30 июль) (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 31.07.2025 й., 10/25/2565-14/0678-сон).

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ БОШ ПРОКУРОРИНИНГ
БУЙРУҒИ**625** Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрларини тасдиқлаш ҳақида*

*Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2025 йил
9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3687*

Ўзбекистон Республикасининг «Прокуратура тўғрисида»ги ҳамда «Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида»ги қонунларига мувофиқ **буюраман:**

1. Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрлари иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилансинки, Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрларидан давлат ижрочиларининг штат бирликлари бўйича таклифларни ишлаб чиқиш ва Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Мажбурий ижро бюроси органларининг самарали фаолиятини ташкиллаштиришда, шунингдек иш ҳажмини режалаштиришда, ҳар бир давлат ижрочисининг фаолиятини, шунингдек уларга юклатилган мажбуриятларни бажариш учун объектив имкониятларини баҳолашда фойдаланилади.

3. Мазкур буйруқ Ўзбекистон Республикаси Камбағалликни қисқартириш ва бандлик вазирлиги ҳамда Ўзбекистон Касаба уюшмалари Федерацияси Кенгаши билан келишилган.

4. Ушбу буйруқ расмий эълон қилинган кундан эътиборан бир ойдан кейин кучга киради.

Бош прокурор

Н. ЙЎЛДОШЕВ

Тошкент ш.,
2025 йил 8 сентябрь,
49-ҚҚ-сон

Келишилди:

**Камбағалликни қисқартириш
ва бандлик вазири**

Б. ЗАХИДОВ

2025 йил 25 август

**Ўзбекистон Касаба уюшмалари
Федерацияси Кенгаши Раиси**

К. РАФИКОВ

2025 йил 6 сентябрь

* Ушбу буйруқ «Қонунчилик маълумотлари миллий базаси»да 2025 йил 11 октябрда эълон қилинган.

Ўзбекистон Республикаси
Бош прокурорининг 2025 йил 8 сентябрдаги
49-ҚҚ-сон буйруғига
ИЛОВА

Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрлари

1-боб. Давлат ижроچиси томонидан битта ижро иши юритиш бўйича бажариладиган ишларга сарфланадиган вақт меъёрлари

Т/р	Ижро иши юритиш бўйича бажариладиган ишлар	Вақт бирлиги (дақиқада)
1-§. Юридик шахслардан ундирувлар бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт (юридик шахслардан солиқ қарзи, давлат божи, почта харажатлари ва бошқа ундирувлар)		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни кўзғатиш	7
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш кўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	8
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	10
4.	Ижро йиғимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	8
5.	Қарздорнинг яшаш жойи ёки унинг мол-мулки турган жойга чиқиш	55
6.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини аниқлаш	30
7.	Ундирувни қарздорнинг пул маблағларига қаратиш	33
8.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), холисларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	53
9.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	67
10.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	41
11.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	62
12.	Хатланган мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш	44
13.	Қарздор тугатилганда ижро ҳужжатини тугатиш комиссиясига юбориш. Ижро ҳужжати тугатиш комиссиясига юборилганлиги ҳақида ундирувчига хабар бериш	28
14.	Ундирувчининг талабларини қаноатлантириш навбатини аниқлаш	10
15.	Ундирилган пул маблағларини тақсимлаш, ҳисоб-китоб ҳужжатларини расмийлаштириш	26
16.	Реализация қилинмаган мол-мулкни қарз ҳисобига олиш ҳақидаги таклифни тайёрлаш	26
17.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	15
18.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	17
ЖАМИ		540

2-§. Жисмоний шахслардан ундирувлар бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт (жисмоний шахслардан коммунал тўловларни, солиқ қарзларини, зарарни ундириш ва бошқа ундирувлар)		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	7
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	8
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	10
4.	Ижро йигимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	8
5.	Қарздорнинг яшаш жойи ёки унинг мол-мулки турган жойга чиқиш	56
6.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини аниқлаш	29
7.	Ундирувни қарздорнинг пул маблағларига қаратиш	27
8.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), ҳолисларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	57
9.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	49
10.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	41
11.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	49
12.	Хатланган мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш	38
13.	Ундирувчининг талабларини қаноатлантириш навбатини аниқлаш	10
14.	Ундирилган пул маблағларини тақсимлаш, ҳисоб-китоб ҳужжатларини расмийлаштириш	26
15.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	15
16.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	15
ЖАМИ		445
3-§. Алимент ундирувлари бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	10
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	12
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	15
4.	Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг тегишли моддасида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликни расмийлаштириш	14
5.	Алимент тўланганлиги тўғрисидаги ҳужжатларни қарздордан қабул қилиш	19
6.	Қарздордан нақд пул маблағларини қабул қилиш	21
7.	Қарздорнинг алимент қарзи бўйича иш жойи ва унинг иш ҳақини аниқлаш чораларини кўриш, алимент бўйича қарздорликни ҳисоблаш	32
8.	Ижро ҳужжатини қарздорнинг иш жойи бўйича юбориш	17
9.	Қарздорнинг яшаш жойи ёки унинг мол-мулки турган жойга чиқиш	49
10.	Қарздорга нисбатан қидирув эълон қилиш ҳақидаги ҳужжатларни расмийлаштириш	21

11.	Алимент тўламаган қарздорга нисбатан жиноят ишини қўзғатиш учун ҳужжатларни тайёрлаш ва юбориш	73
12.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), холисларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	58
13.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	38
14.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	32
15.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	41
16.	Хатланган мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш	32
17.	Ундирилган пул маблағларини ундирувчига юбориш	21
18.	Ижро ҳужжатини қарздорнинг иш жойи бўйича ижро этиш учун юборишга тайёрлаш ва жўнатиш	20
19.	Қарздор жисмоний шахсга иш ҳақи ёки унга тенглаштирилган бошқа тўловларни тўлаётган ташкилот ёки ўзга шахс томонидан алимент ундирувлари бўйича ижро ҳужжатларининг ижро этилиши устидан назорат қилиш	20
ЖАМИ		545
4-§. Мулкий хусусиятга эга бўлмаган низолар бўйича ижро ҳужжатларини ижро этиш бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт (қарздорни кўчириш ва ундирувчини кўчириб киритиш тўғрисидаги ижро ҳужжатларидан ташқари)		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	7
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	8
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	19
4.	Ижро йиғимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	24
5.	Қарздорни Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 232-моддасига асосан жавобгарликка тортиш чораларини кўриш юзасидан ҳужжатларни тайёрлаш	50
6.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), холисларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	58
7.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	41
8.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	44
9.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	53
10.	Хатланган мол-мулкни ундирувчига топшириш	27
11.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	16
12.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	16
ЖАМИ		363
5-§. Қарздорни кўчириш бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	6

2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	8
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	25
4.	Ижро йиғимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	16
5.	Қарздорнинг яшаш манзили бўйича чиқиш	44
6.	Қарздорни кўчириш (ички ишлар органлари билан кўчириш муддати ва бошқа масалаларни келишиш)	107
7.	Мол-мулкни хатлаш, далолатнома тузиш	53
8.	Қарздорнинг мол-мулкни олиб қўйиш, юклаш ва ташиш	71
9.	Қарздорнинг мол-мулкни сақлаш	29
10.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	16
11.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	17
ЖАМИ		392
6-§. Ундирувчини кўчириб киритиш бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	6
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	7
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	20
4.	Ижро йиғимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	16
5.	Қарздорнинг яшаш манзили бўйича чиқиш	48
6.	Ундирувчини кўчириб киритиш (ички ишлар органлари билан кўчириб киритиш муддати ва бошқа масалаларни келишиш)	106
7.	Ундирувчининг ижро ҳужжатида кўрсатилган хонага монеликсиз киришини ва унда яшашини таъминлаш	64
8.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	16
9.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	19
ЖАМИ		302
7-§. Болани олиб бериш ва топшириш бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни қўзғатиш	6
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш қўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	7
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	21
4.	Болани олиб бериш тўғрисидаги қарорни ижро этиш	101
5.	Олиб қўйилиши лозим бўлган болани кидириш тўғрисида ҳужжатларни расмийлаштириш	28
6.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	13
7.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	16

ЖАМИ		192
8-§. Жарималарни ундириш ва давлат даромадига бошқа ундирувлар бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни кўзғатиш	6
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш кўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	7
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	21
4.	Ижро йиғимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	16
5.	Давлат ижрочиси томонидан жарима ва бошқа тўловларнинг тўланганлиги тўғрисидаги ҳужжатларни қабул қилиш	13
6.	Қарздорнинг яшаш жойи ёки унинг мол-мулки турган жойга чиқиш	41
7.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини аниқлаш	38
8.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), холисларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	51
9.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	50
10.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	44
11.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	54
12.	Хатланган мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш	48
13.	Ундирилган пул маблағларини тақсимлаш, ҳисоб-китоб ҳужжатларини расмийлаштириш	25
14.	Ижро ҳужжатини қарздорнинг иш жойи бўйича юбориш	21
15.	Ундирувчининг талабларини қаноатлантириш навбатини аниқлаш	10
16.	Давлат фойдасига ундирилиши лозим бўлган жарима тариқасидаги жиноий жазо ижро этилмаган ёки қарздорнинг ундирув қаратилиши мумкин бўлган мол-мулклари мавжуд бўлмаган тақдирда жаримани жазонинг бошқа тури билан алмаштириш учун ҳужжатларни тайёрлаш ва судга юбориш	27
17.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	17
ЖАМИ		489
9-§. Давлат даромадига ўтказилиши лозим бўлган мол-мулкларни реализация қилиш ёки йўқ қилиб ташлаш бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни кўзғатиш	6
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш кўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	7
3.	Сақлашда турган мол-мулкларни хатловдан ўтказиш	36
4.	Олиб қўйилган автомобилотранспорт воситаларининг техник ҳолатини ва кўчмас мулкларни кўздан кечириш	51
5.	Мол-мулкни сақлаш жойини ўзгартириш чораларини кўриш, топшириш-қабул қилиш далолатномасини тузиш	61
6.	Мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш ҳамда тегишли ташкилотлар ва бошқа органларга текинга бериш	62

7.	Ижро ҳужжатига асосан йўқ қилиниши лозим бўлган мол-мулкни йўқ қилиш, далолатномани расмийлаштириш	73
8.	Мол-мулк қийматини арзонлаштириш чораларини кўриш ҳамда истеъмомга яроқлилик муддати ўтган мол-мулкни йўқ қилиб ташлаш	59
9.	Реализациядан тушган пул маблағларини тақсимлаш, ҳисоб-китоб ҳужжатларини расмийлаштириш	27
10.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	19
ЖАМИ		401
10-§. Бошқа ижро ишлари бўйича битта ижро ишига сарфланадиган вақт		
1.	Ижро ҳужжатини ўрганиш, ижро ҳаракатларини режалаштириш, ижро иши юритишни кўзғатиш	6
2.	Ижро иши юритишни расмийлаштириш. Ижро иши юритиш кўзғатилганлиги ҳақида тарафларни хабардор қилиш	7
3.	Сўровнома, хат ва бошқаларни тайёрлаш. Ижро иши юритиш тарафларини давлат ижрочисининг ҳузурига чақириш юзасидан чақирув қоғозлари ва бошқа хабарномаларни расмийлаштириш	27
4.	Ижро йигимини ва Ўзбекистон Республикаси Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодексининг 198 ¹ ёки 198 ² -моддаларида назарда тутилган маъмурий ҳуқуқбузарликларни расмийлаштириш	16
5.	Ижро ҳужжатини қарздорнинг иш жойи бўйича юбориш	53
6.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини аниқлаш	36
7.	Қарздорни қидириш тўғрисида ҳужжатларни расмийлаштириш	25
8.	Қарздорнинг мол-мулки ва ўзга қимматликларини хатлаш (банд солиш), ҳолиларни таклиф қилиш ҳамда уларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириш, мол-мулкни кўздан кечириш, далолатнома тузиш	52
9.	Мол-мулкни баҳолаш чораларини кўриш, ижро иши юритиш тарафларини хабардор қилиш, мол-мулкни арзонлаштириш	43
10.	Мол-мулкнинг сақланишини таъминлаш чораларини кўриш	41
11.	Хатланган мол-мулкни олиб қўйиш	44
12.	Хатланган мол-мулкни реализация қилиш учун топшириш	37
13.	Ундирувчининг талабларини қаноатлантириш навбатини аниқлаш	10
14.	Қарздорга муайян ҳаракатларни амалга оширишни юқловчи ижро ҳужжатларини ижро этиш бўйича ҳамда суд қароридан кўрсатилган ашёларни ундирувчига топшириш бўйича зарур чораларни кўриш	40
15.	Ижро иши юритишни тамомлаш тўғрисида қарор чиқариш	16
16.	Ҳужжатларни расмийлаштириш ва юбориш	18
ЖАМИ		471

2-боб. Битта давлат ижрочиси бўйича иш ҳажми меъёрларининг ҳисоб-китоби

Ижро ишини юритиш турлари	Битта давлат ижрочисига тўғри келадиган ижро иши юритишлари сони			
	кунда	ойда	чорақда	йилда
1. Юридик шахслардан ундирувлар	0,9	18,4	55,3	221,1
2. Жисмоний шахслардан ундирувлар	1,1	22,4	67,1	268,3
3. Алимент ундирувлари	0,9	18,3	54,8	219,1

4. Мулкый хусусиятга эга бўлмаган низолар бўйича ижро ҳужжатларини ижро этиш	1,3	27,4	82,2	328,9
5. Қарздорни кўчириш	1,2	25,4	76,2	304,6
6. Ундирувчини кўчириб киритиш	1,6	32,9	98,8	395,4
7. Болани олиб бериш ва топшириш	2,5	51,8	155,5	621,9
8. Жарималарни ундириш ва давлат даромадига бошқа ундирувлар	1,0	20,3	61,0	244,2
9. Давлат даромадига ўтказилиши лозим бўлган мол-мулкларни реализация қилиш ёки йўқ қилиб ташлаш	1,2	24,8	74,4	297,8
10. Бошқа ижро ишлари	1,0	21,1	63,4	253,5
Ўртача	1,25	26,3	78,9	315,5

Изоҳ:

1. Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрлари деганда давлат ижрочилари томонидан иш юритувидаги ижро ишларини бажариш учун ўртача сарф этиладиган вақт миқдори тушунилади.

2. Давлат ижрочиси иш ҳажми меъёрларини ҳисоблаб чиқариш учун қуйидагилар инобатга олинади:

давлат ижрочиси томонидан қарздор жойлашган жойга етиб бориш учун ҳудудларда сарфланадиган вақт ўртасидаги фарқ К1 коэффицентини белгилаш орқали инобатга олинади, бунда ушбу коэффицент транспорт тизими яхши ривожланган ҳамда қарздор жойлашган жойгача масофа узоқ бўлмаган ҳудудларда 0,95 га, узоқ масофали ва транспорт тизими суст ривожланган ҳудудларда эса 1,05 га тенг бўлади;

давлат ижрочисининг малакаси К2 коэффицентини белгилаш орқали инобатга олинади, бунда 1 йилгача ишлаган давлат ижрочисининг коэффицентини 0,9 га, 1 йилдан 3 йилгача ишлаган давлат ижрочисиники — 1 га, 3 йилдан ортиқ ишлаган давлат ижрочисининг коэффицентини эса 1,1 га тенг бўлади.

3. Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрларини қуйидаги формула бўйича аниқлаш тавсия этилади:

$$N = \frac{n}{T}, \text{ бунда:}$$

N — ижро иши юритишлари сони (ижро иши юритиш бирликлари);

T — сарфланадиган иш вақти меъёри (соатларда);

n — иш ҳажми меъёри белгиланадиган давр давомийлиги (ой, чорак, йил).

Давр давомийлиги (n) соатларда ҳисобланади (масалан, 1 ой $21,2 \times 8 = 169,6$ соат, 1 чорак — $169,6 \times 3 = 508,8$ соат, 1 йил — $508,8 \times 4 = 2035,2$ соат).

$$T = \frac{t \times K_1 \times K_2}{60}, \text{ бунда:}$$

t — битта ижро иши юритиши бўйича сарфланган иш вақти (дақиқаларда).

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING
BUYRUG‘I

626 O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3688*

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF–111-son “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

B. ZAXIDOV

Toshkent sh.,
2025-yil 23-sentabr,
17-2025/B-son

Kelishildi:

***Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri***

Sh. XIDOYATOV

2025-yil 12-sentabr

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 13-oktabrda e‘lon qilingan.

O'zbekiston Respublikasi
kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining
2025-yil 23-sentabrdagi 17-2025/B-son
buyrug'iga
ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy
hujjatlarga kiritilayotgan o'zgartirishlar**

1. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2009-yil 27-avgustdagi 54-B-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2010, 2009-yil 29-sentabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 40-son, 437-modda) bilan tasdiqlangan Tayyorlash-qoliplash ishlarida mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar tayyorlash-qoliplash ishlarida mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5, 6, 13 va 33-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin;

4) 8 va 9-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. O'zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo'lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

9. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

5) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining

mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 36-banddagi “davriy tibbiy ko'rikdan” degan so'zlar “dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

8) 38-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“38. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

9) 40-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“40. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'riklar davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.”;

10) 41-banddagi “tibbiy ko'rik” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'rik” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 42-banddagi “tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 44-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“44. Tashkilot maydonlari va binolarining joylashuvi ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos bo'lishi kerak.”;

13) 49-banddagi “Tabiiy va sun'iy yoritish” QMQ 2.01.05-98 talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 55-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15) 58-banddagi “SanMvaQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

16) 71-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

17) 72-banddagi “SanQvaM 0046-95 “Gigiyenik normativlar. Ish hududi havosida zararli moddalarning ruxsat etilgan eng ko'p miqdorlari” talablariga” degan so'zlar “SanQvaN 0294-11 “Ish joylari havosidagi zararli moddalar ruxsat

etilgan miqdorining gigiyena normativlari” talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

18) 2-bobning 11-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

19) 77-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“77. Suv bilan taʼminlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi kerak.”;

20) 78-banddagi “kanalizatsiyaga” degan soʻz “oqova suvlar tizimiga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

21) 84-banddagi “kanalizatsiyalangan” degan soʻz “oqova suvlar tizimiga ulangan” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

22) 85-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“85. Tashkilotda oqova suvlar tizimi yoʻq boʻlganda Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qoʻmitasining hududiy boshqarmalari yoki tuman (shahar) boʻlimlari bilan kelishilgan holda tashkilotda yer qatlamini ifloslantirmaslikka va ishlab chiqarish oqova suvlarga dushxonalaridan va yuz-qoʻl yuvgichlardan suv oqmaydigan qurilmali axlat oʻralariga ruxsat etiladi.”;

23) 86-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

24) 113-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“113. Sex va uchastkalarda ishlab chiqarish elektr-uskunasini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalariga muvofiq joylashtirish va oʻrnatish zarur.”;

25) 165-banddagi “QMQ 3.01.04-97 “Qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish. Umumiy qoidalar” degan soʻzlar “ShNQ 3.01.04-19 “Qurilishi tugallangan obyektlarni foydalanishga qabul qilish. Asosiy holatlar” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 22-iyuldagi 140-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2135, 2010-yil 19-avgust) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2010-y., 33 son, 286-modda) bilan tasdiqlangan Oyna ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar oyna ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5, 6 va 13-bandlar oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilsin;

4) 8 va 9-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

9. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 14-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“14. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 34 — 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilotda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tishini ta‘minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 38-banddagi “tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar “majburiy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 40-banddagi “SanMvaQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarini bosh plani” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

10) 46-banddagi “SanMvaQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

11) 47-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning maʼmuriy va maishiy binolari” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda maʼmuriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

12) 58-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

13) 65-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 2-bobning 12-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

15) 71-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“71. Suv bilan taʼminlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi kerak.”;

16) 74 va 75-bandlardagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 79-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“79. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini oʻrnatish va ulardan foydalanishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”;

18) 115-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

19) 118-banddagi QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

20) 142-banddagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin.

3. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 10-noyabrdagi 71-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2288, 2011-yil 9-dekabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 49

son, 507-modda) bilan tasdiqlangan Noruda materiallari (shag'al, qum) ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar noruda materiallari (shag'al, qum) ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 12-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O'zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo'lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta'minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo'lgan tashkilotda yo'l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo'lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo'yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to'g'risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo'l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo'linmalari bo'lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo'ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog'liq ravishda sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari ishlab chiqiladi hamda xodimlar va ish joylarini ushbu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 34 — 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“34. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim

bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 38-banddagi “tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 44-banddagi “QMQ II-89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 50-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 51-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 64-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) 2-bobning 13-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan so'z “oqova suvlar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 70-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“70. Suv bilan ta'minlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi kerak.”;

15) 76-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

16) 131-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“131. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

4. O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2013-yil 8-yanvardagi 1-B-son buyrug'i (ro'yxat raqami 2424, 2013-yil 5-fevral) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 6-son,

77-modda) bilan tasdiqlangan Shahar elektr transportida ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar shahar elektr transportida ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.

Mazkur Qoidalar yer osti elektr transportida ishlashda tatbiq etilmaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 12-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 35 — 37-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“35. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning tibbiy ko‘rikdan o‘tishini ta‘minlashi lozim.

36. Majburiy tibbiy ko'riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi.

37. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 38-banddagi “tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 41-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish. Loyihalashtirish me'yorlari”ga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 42-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talabiga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

11) 44-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 55-banddagi “QMQ 2.09.02-85 “Ishlab chiqarish binolari” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) 56-banddagi “QMQ 2.09.04-98 “Tashkilotlarning ma'muriy va maishiy binolari” talablari” degan so'zlar “ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

14) 69-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

15) 2-bobning 12-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan so'z “oqova suvlar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

16) 75-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“75. Suv bilan ta'minlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi kerak.”;

17) 78 va 79-bandlardagi “kanalizatsiya” degan so'z “oqova suvlar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

18) 80-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

19) 120-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“120. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini o'rnatish va ulardan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son

qarori bilan tasdiqlangan Iste'molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste'molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilinishi kerak.”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRINING
BUYRUG‘I

627 O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida*

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3689*

O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF–111-son “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

B. ZAXIDOV

Toshkent sh.,
2025-yil 23-sentabr,
18-2025/B-son

Kelishildi:

*Qurilish va uy-joy kommunal
xo‘jaligi vaziri*

Sh. XIDOYATOV

2025-yil 12-sentabr

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 13-oktabrda e‘lon qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi
kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining
2025-yil 23-sentabrdagi 18-2025/B-son
buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik
vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy
hujjatlarga kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 6-dekabrda 199-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2187, 2011-yil 28-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 4-5-son, 40-modda) bilan tasdiqlangan Maxsus suyuqliklar (benzin, benzol, sulfat kislota, ishqorlar, texnik moylar) bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar maxsus suyuqliklar (benzin, benzol, sulfat kislota, ishqorlar, texnik moylar) bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalarlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 4 va 5-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

4) 6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

5) 8-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

6) 9-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” degan so‘zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

7) 24 va 25-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“24. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

25. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 33-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 64-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“64. Tashkilotlarda elektr quurilmalarini o‘rnatish va ulardan foydalanishda

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Iste‘molchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilish kerak.”.

2. O‘zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2010-yil 10-noyabrdagi 188-B-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2188, 2011-yil 28-yanvar) (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2011-y., 4-5-son, 41-modda) bilan tasdiqlangan Metallarga kimyoviy ishlov berish va ularga galvanik va kimyoviy qoplamalar surtishda mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar metallarga kimyoviy ishlov berish va ularga galvanik va kimyoviy qoplamalar surtishda mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Ushbu Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 11-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin;

4) 6 va 7-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“6. O‘zbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq bo‘lgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini ta‘minlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha tegishli tayyorgarlikka ega bo‘lgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud bo‘lgan tashkilotda yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yo‘l harakati xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam bo‘lgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha mutaxassis lavozimini joriy etish to‘g‘risidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining o‘ziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

7. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yo‘l harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy bo‘linmalari bo‘lib, ular bevosita tashkilot rahbariga bo‘ysunadi.”;

5) 9-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 12-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“12. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 32 — 35-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“32. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

33. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko‘rikka kelishini ta‘minlashi lozim.

34. Majburiy tibbiy ko‘riklar korxonalariga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa korxonada joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi. Majburiy tibbiy ko‘riklar davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

35. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 36-banddagi “Davriy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar “Davriy majburiy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 39-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash talablari”ga” degan so‘zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 40 va 41-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“40. Ishlab chiqarish binolari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” hamda SanQvaN 0020-22 “Davolash-profilaktika muassasalarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilishning sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari”ga muvofiq jihozlanishi lozim.

41. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

11) 52-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” degan so‘zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

12) 2-bobning 11-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan so‘z “oqova suvlar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

13) 58-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“58. Suv bilan ta‘minlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talabiga mos kelishi kerak.”;

14) 61 va 62-bandlardagi “kanalizatsiya” degan so‘z “oqova suvlar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

15) 63-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” degan so‘zlar

“ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun’iy yoritish” shaharsozlik normalari va qoidalari” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

16) 70-banddagi “QMQ II-89-80 “Sanoat tashkilotlarini bosh plani” talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 91-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“91. Elektr qurilmalarini va tarmoqlarini montaj qilish va ishlatish vaqtida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilish kerak.”.

3. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 17-yanvardagi 1-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2192, 2011-yil 31-yanvar) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 6-son, 50-modda) bilan tasdiqlangan Charm-galantereya mahsulotlari ishlab chiqarish xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar charm-galantereya ishlab chiqarishida mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 12-bandlar oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilsin;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Oʻzbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq boʻlgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini taʼminlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha tegishli tayyorgarlikka ega boʻlgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud boʻlgan tashkilotda yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yoʻl harakati xavfsizligi boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bogʻliq ravishda sodir boʻlgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish Oʻzbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Ishlarni texnologik reglament bo'yicha xavfsiz yuritish yo'riqnomalari ishlab chiqiladi va xodimlar hamda ish joylarini shu yo'riqnomalar bilan ta'minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 33 — 36-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“33. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom (ro'yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

34. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo'mitasi va sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko'rikdan o'tishi lozim bo'lgan xodimlarning ro'yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko'rikka kelishini ta'minlashi lozim.

35. Majburiy tibbiy ko'riklar korxonalariga tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo'lmagan taqdirda esa korxonada joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o'tkaziladi. Majburiy tibbiy ko'riklar davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

36. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko'rikdan o'tmagan yoxud majburiy tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo'yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 37-banddagi “Davriy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar “Davriy majburiy tibbiy ko'riklar” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

9) 39-banddagi “QMQ II 89-80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

10) 45 va 46-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“45. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va talablariga mos kelishi kerak.

46. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma'muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga mos kelishi lozim.”;

11) 57-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sun'iy yoritish” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun'iy yoritish” shaharsozlik normalari va talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

12) 64-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash” talablariga” degan so'zlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik normalari va talablariga” degan so'zlar bilan almashtirilsin;

13) 2-bobning 12-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 70-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“70. Suv bilan taʼminlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik normalari va qoidalari talabiga mos kelishi kerak.”;

15) 73 va 74-bandlardagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

16) 75-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“75. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini oʻrnatish va ulardan foydalanishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilish kerak.”.

4. Oʻzbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2011-yil 10-noyabrdagi 70-B-son buyrugʻi (roʻyxat raqami 2289, 2011-yil 9-dekabr) (Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2011-y., 49-son, 508-modda) bilan tasdiqlangan Savdo tashkilotlari xodimlari uchun mehnatni muhofaza qilish qoidalarida:

1) muqaddima quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Mazkur Qoidalar savdo qilish jarayonlarida mehnatni muhofaza qilish tartibini belgilaydi.”;

2) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Mazkur Qoidalar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar, shaharsozlik normalari va qoidalari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablari bajarilishi shart ekanligini istisno etmaydi.”;

3) 5 va 12-bandlar oʻz kuchini yoʻqotgan deb topilsin;

4) 7 va 8-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Oʻzbekiston Respublikasi “Mehnatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonunining 12-moddasiga muvofiq, ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshiruvchi, xodimlarining soni ellik kishi va undan ortiq boʻlgan har bir tashkilotda mehnatni muhofaza qilish talablariga rioya etilishini taʼminlash, ularning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etiladi yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha tegishli tayyorgarlikka ega boʻlgan mutaxassis lavozimi joriy etiladi. Ellikta va undan ortiq transport vositasi mavjud boʻlgan tashkilotda yoʻl harakati xavfsizligi xizmati ham tashkil etiladi yoki yoʻl harakati xavfsizligi boʻyicha mutaxassis lavozimi joriy etiladi.

Xodimlarining soni ellik nafardan kam boʻlgan tashkilotda mehnatni muhofaza qilish xizmatini tashkil etish yoki mehnatni muhofaza qilish boʻyicha mutaxassis lavozimini joriy etish toʻgʻrisidagi qaror ish beruvchi tomonidan mazkur tashkilot faoliyatining oʻziga xos xususiyati hisobga olingan holda qabul qilinadi.

8. Mehnatni muhofaza qilish xizmati va yoʻl harakati xavfsizligi xizmati tashkilotning mustaqil tarkibiy boʻlinmalari boʻlib, ular bevosita tashkilot rahbariga boʻysunadi.”;

5) 10-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“10. Tashkilotlarda mehnat faoliyati bilan bog‘liq ravishda sodir bo‘lgan baxtsiz hodisalar va boshqa jarohatlanishlarni tekshirish va hisobini yuritish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 6-iyundagi 286-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining mehnat vazifalarini bajarish bilan bog‘liq boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshirilishi lozim.”;

6) 13-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“13. Ishlarni texnologik reglament bo‘yicha xavfsiz yuritish yo‘riqnomalari ishlab chiqiladi va tashkilot xodimlarini hamda ish joylarini shu yo‘riqnomalar bilan ta‘minlash tashkilot rahbariyati zimmasiga yuklatiladi.”;

7) 32 — 35-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“32. Tashkilotlarda xodimlarning salomatligini nazorat qilish Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 2387, 2012-yil 29-avgust) asosida amalga oshirilishi lozim.

33. Tashkilot rahbariyati kasaba uyushmasi qo‘mitasi va sog‘liqni saqlash organlari bilan birgalikda har yili dastlabki (mehnat shartnomasini tuzayotganda) va davriy (mehnat faoliyati davomida) majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tishi lozim bo‘lgan xodimlarning ro‘yxatini tuzishi hamda xodimlarning ko‘rikka kelishini ta‘minlashi lozim.

34. Majburiy tibbiy ko‘riklar tashkilotga tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan, ular bo‘lmagan taqdirda esa tashkilot joylashgan yerdagi davolash-profilaktika muassasalari tomonidan o‘tkaziladi. Majburiy tibbiy ko‘riklar davolash-sog‘lomlashtirish tadbirlari belgilangan tekshirish dalolatnomasi bilan yakunlanishi lozim.

35. Ish beruvchi majburiy tibbiy ko‘rikdan o‘tmagan yoxud majburiy tibbiy ko‘rik natijalariga ko‘ra tibbiy komissiyalar tomonidan berilgan tavsiyalarni bajarishdan bo‘yin tovlagan shaxslarni ishdan chetlashtirishi shart.”;

8) 36-banddagi “Davriy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar “Davriy majburiy tibbiy ko‘riklar” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

9) 39-bandning uchinchi xatboshisidagi “QMQ 3.01.05-98 “Tabiiy va sun‘iy yorug‘lik. Loyihalashtirish me‘yorlari”ga” degan so‘zlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sun‘iy yoritish” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

10) 41-banddagi “QMQ II 89 — 80 “Sanoat tashkilotlarining bosh plani” talabiga” degan so‘zlar “ShNQ 2.09.17-21 “Sanoat korxonalarining bosh rejalarini loyihalash” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

11) 52 va 53-bandlar quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“52. Ishlab chiqarish binolari va inshootlari ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga mos kelishi kerak.

53. Yordamchi binolar va xonalar ShNQ 2.09.02-23 “Korxonalarining ishlab chiqarish hamda ma‘muriy-maishiy bino va inshootlari. Loyihalash talablari” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga mos kelishi lozim.”;

12) 64-banddagi “QMQ 2.04.05-97 “Isitish, shamollatish va konditsionerlash”

talabiga” degan soʻzlar “ShNQ 2.04.05-22 “Isitish, ventilyatsiya va konditsiyalash” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

13) 2-bobning 12-paragrafi nomidagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

14) 70-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“70. Suv bilan taʼminlash va oqova suvlar tizimi ShNQ 2.04.01-22 “Binolarning ichki suv taʼminoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish” shaharsozlik qoidalari va normalari talabiga mos kelishi kerak.”;

15) 73 va 74-banddagi “kanalizatsiya” degan soʻz “oqova suvlar” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

16) 75-banddagi “QMQ 2.01.05-98 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” talablariga” degan soʻzlar “ShNQ 2.01.05-24 “Tabiiy va sunʼiy yoritish” shaharsozlik qoidalari va normalari talablariga” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

17) 108-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“108. Tashkilotlarda elektr qurilmalarini oʻrnatish va ulardan foydalanishda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrdagi 712-son qarori bilan tasdiqlangan Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari va Isteʼmolchilar elektr qurilmalarini ekspluatatsiya qilishda xavfsizlik texnikasi qoidalari talablariga rioya qilish kerak.”.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRINING
BUYRUG‘I**628 O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan
qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga
o‘zgartirishlar kiritish haqida***

*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2025-yil
9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3690*

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini, chet el fuqarolarini hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarni yashash joyi va turgan joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Vazir

A. TASHPULATOV

Toshkent sh.,
2025-yil 1-oktabr,
569-son

O‘zbekiston Respublikasi
ichki ishlar vazirining 2025-yil 1-oktabrdagi
569-son buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan
qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga
kiritilayotgan o‘zgartirishlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 14-yanvardagi 13-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 2972, 2018-yil 16-fevral) (Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.02.2018-y., 10/18/2972/0710-son) bilan tasdiqlangan Xorijiy davlatlar ta‘lim tashkilotlarida o‘qish uchun tanlov o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 18-bandning yettinchi xatboshisidagi “doimiy ro‘yxatda turgan” degan so‘zlar “yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

b) 25-bandning ikkinchi xatboshisidan “doimiy” degan so‘z chiqarib tashlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 17-apreldagi 106-son “O‘zbekiston Respublikasida siyosiy boshpana berish to‘g‘risidagi iltimosnoma

* Ushbu buyruq «Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi»da 2025-yil 13-oktabrda e‘lon qilingan.

shaklini tasdiqlash haqida”gi buyrug‘iga (ro‘yxat raqami 3008, 2018-yil 10-may) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 10.05.2018-y., 10/18/3008/1191-son) ilovaning matnidagi “doimiy yashash” degan so‘zlar “yashash” degan so‘z bilan almashtirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2018-yil 20-oktabrdagi 286-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3089, 2018-yil 22-noyabr) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 23.11.2018-y., 10/18/3089/2222-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilish uchun tanlovlar o‘tkazish va ularning hujjatlarini rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 10-bandi birinchi xatboshisidan “doimiy” degan so‘z chiqarib tashlansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2019-yil 23-martdagi 67-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3159, 2019-yil 20-may) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.05.2019-y., 10/19/3159/3151-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tergov hibsonalari va jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning tibbiy-sanitariya ta’minoti bo‘yicha qoidalarning 86-bandidan “doimiy” degan so‘z chiqarib tashlansin.

5. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2019-yil 2-maydagi 71-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3168, 2019-yil 19-iyun) (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.06.2019-y., 10/19/3168/3304-son) bilan tasdiqlangan Muayyan yashash joyiga ega bo‘lmagan shaxslarni ma’muriy javobgarlikdan ozod etish va identifikatsiya ID-kartasini rasmiylashtirishda davlat bojini qoplash uchun tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish hamda sudlarga va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi nizomda:

a) 1-bandning uchinchi xatboshisidagi “doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bo‘yicha” degan so‘zlar “yashash joyi yoki turgan joyi bo‘yicha” degan so‘zlar bilan almashtirilsin;

b) 7-bandning birinchi xatboshisi, 8 va 10-bandlardan “doimiy” degan so‘z chiqarib tashlansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2021-yil 3-noyabrdagi 415-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3342, 2021-yil 14-dekabr) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 14.12.2021-y., 10/21/3342/1158-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutining kasbiy tayyorgarlik fakultetiga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 19-bandidan “doimiy” degan so‘z chiqarib tashlansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 23-iyundagi 200-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3374, 2022-yil 28-iyun) (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.06.2022-y., 10/22/3374/0582-son) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi harbiy tuzilmalariga kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatga nomzodlarni saralash tartibi to‘g‘risidagi nizomning 14-bandning birinchi xatboshisidagi “doimiy yashash joyi yoki vaqtincha turgan joyidagi” degan so‘zlar “yashash joyi yoki turgan joyidagi” degan so‘zlar bilan almashtirilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2025-yil 19-iyuldagi 403-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3670, 2025-yil 20-avgust) (Qonunchilik

ma'lumotlari milliy bazasi, 22.08.2025-y., 10/25/3670/0767-son) bilan tasdiqlangan Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaning 91-bandidan "doimiy" degan so'z chiqarib tashlansin.

**Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлигининг
вазирликлар, давлат қўмиталари ва идораларнинг
норматив-ҳуқуқий ҳужжатларини давлат рўйхатидан
ўтказиш ҳолати тўғрисида
МАЪЛУМОТИ**

1. Давлат рўйхатидан ўтказилди:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 2-sentabrdagi 48-q/q-son va Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 29-avgustdagi 8-mh-son "Xorijiy tillar va umumta'lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 6-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3515-1.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 2-sentabrdagi 23-son "Atom elektr stansiyasi blokining ehtimoliy xavfsizlik tahliliga qo'yiladigan asosiy talablarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3684.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasining 2025-yil 2-sentabrdagi 22-son "Atom elektr stansiyasi blokining ekspluatatsiya muddatini uzaytirish bo'yicha asosiy talablarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.

2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3685.

4. O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirining 2025-yil 15-sentabrdagi 9-son "Mehnatga layoqatsizlik varaqalarini berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i.

2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2667-4.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi direktorining 2025-yil 4-oktabrdagi 2025/1-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimidagi tibbiy-ijtimoiy muassasalarda pullik xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risidagi nizomning 19-bandiga o'zgartirish kiritish haqida"gi buyrug'i.

2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3360-2.

6. O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2025-yil 5-sentabrdagi 445-son "Avtomototransport vositalarini qayta ro'yxatdan o'tkazishni (qayd etishni) tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish haqida"gi buyrug'i.

2025-yil 8-oktabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2050-5.

7. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2025-yil

19-sentabrdagi 289-son “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi buyruqqa o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 2730-1.

8. O‘zbekiston Respublikasi transport vazirining 2025-yil 22-sentabrdagi 13-son “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transportida yuk tashish qoidalariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 8-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3457-1.

9. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2025 йил 9 октябрдаги 23-мх-сон “Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш, қабул қилиш, ҳуқуқий экспертиза ва давлат рўйхатидан ўтказиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи.

2025 йил 9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3686.

10. Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг 2025 йил 8 сентябрдаги 49-ҚҚ-сон “Давлат ижрочиларининг иш ҳажми меъёрларини тасдиқлаш ҳақида”ги буйруғи.

2025 йил 9 октябрда рўйхатдан ўтказилди, рўйхат рақами 3687.

11. O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 23-sentabrdagi 17-2025/B-son “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3688.

12. O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirining 2025-yil 23-sentabrdagi 18-2025/B-son “O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi buyrug‘i.

2025-yil 9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3689.

13. O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining 2025-yil 1-oktabrdagi 569-son “O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tomonidan qabul qilingan ayrim idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi buyrug‘i.

2025-yil 9-oktabrda ro‘yxatdan o‘tkazildi, ro‘yxat raqami 3690.

II. Давлат реестридан чиқарилди:

1. Ўзбекистон Республикаси адлия вазирининг 2014 йил 28 февралдаги 53-мх-сон “Идоравий норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни тайёрлаш ва қабул қилиш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи (рўйхат рақами 2565, 2014 йил 28 февраль), шунингдек унга киритилган ўзгартириш ва қўшимчалар (рўйхат рақами 2565-1, 2014 йил 23 май), (рўйхат рақами 2565-2, 2014 йил 31 декабрь), (рўйхат рақами 2565-3, 2016 йил 12 май), (рўйхат

рақами 2565-4, 2017 йил 13 октябрь), (рўйхат рақами 2565-5, 2018 йил 15 январь), (рўйхат рақами 2565-6, 2018 йил 5 июль), (рўйхат рақами 2565-7, 2019 йил 20 февраль), (рўйхат рақами 2565-8, 2019 йил 19 апрель), (рўйхат рақами 2565-9, 2020 йил 29 апрель), (рўйхат рақами 2565-10, 2020 йил 29 июнь), (рўйхат рақами 2565-11, 2021 йил 24 июнь), (рўйхат рақами 2565-12, 2022 йил 28 июнь), (рўйхат рақами 2565-13, 2024 йил 25 декабрь), (рўйхат рақами 2565-14, 2025 йил 30 июль).

2025 йил 9 октябрда давлат реестридан чиқарилди.

Мазкур ҳужжатлар қонунчиликка ўзгартириш киритилиши ва/ёки янги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилиниши муносабати билан давлат реестридан чиқарилди.